

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SABOHAT QAHHAROVA

**“YURISH” SEMALI LUG‘AVIY BIRLIKLAR SEMANTIKASI
VA TEZAURUS MODELI**

MONOGRAFIYA

**TOSHKENT – 2025
“FIRDAVS-SHOH” NASHRIYOTI**

UO‘K 811.512.133'37

KBK 87.4 (5O‘zb)

Q 35

Ushbu monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 4-son bayonnomasi (2025-yil 30-oktabr) qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

M a s’ u l m u h a r r i r

Zulxumor Xomanova,

filologiya fanlari doktori, professor

T a q r i z c h i l a r

M.Hakimova,

filologiya fanlari doktori, professor

D.Muhammadiyeva,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Qahharova, Sabohat

“Yurish” semali lug‘aviy birliklar semantikasi va tezaurus modeli. Monografiya. Sabohat Qahharova. – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2025-y. – 131 b.

Ushbu monografiya o‘zbek tilidagi “yurish” semasi bilan bog‘liq lug‘aviy birliklarning semantik xususiyatlari va tezaurus modeliga bag‘ishlangan. Unda “yurmoq” fe‘lining denotativ va konnotativ ma’nolari, frazeologizmlar tarkibidagi qo‘llanilishi hamda konseptual mazmuni lingvosemantik va kognitiv yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Mazkur monografiya o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik tahlilning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga, shuningdek, elektron ko‘rinishdagi semantik hamda tezaurus lug‘at namunlarini tuzishda lingvistik manba sifatida xizmat qiladi.

Monografiya o‘zbek tilshunosligi, xususan, semantika, leksikologiya, leksikografiya sathlari yuzasidan ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining filologiya fakulteti bakalavr va magistratura bosqich talabalariga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9910-570-80-3

© S.Qahharova, 2025

© “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2025

SEMANTIK VA TEZAURUS LUG‘AT YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI (“yurish” semali lug‘aviy birliklar misolida)

Semantika va uning masalalari eng qadimgi davrlardan boshlab ilmiy muammo sifatida o‘rganib kelingan. Hozirgi vaqtda semantika zamonaviy yo‘nalish sifatida ham turli tillarda sathlar kesimida rivojlanmoqda. Fonetik, leksik, morfologik, sintaktik semantika milliy til imkoniyatlarini aks ettirish, uslubiyat masalalari, tillarni qiyoslash va chog‘ishtirish bilan bog‘liq ravishda o‘rganilmoqda.

Semantika turlari orasida leksik semantika eng faol va davrlar osha o‘zgarishlarni yorqin ifodalashi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida semantik maydon, semantik guruhlar, arxisema asosidagi tahlillarga keng o‘rin berilmoqda. Lug‘aviy birlik semantikasida ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, iqtisodiy-ma’naviy taraqqiyot o‘z ifodasini topadi, ma’lum davrlarda lug‘aviy birlikning valentlik imkoniyatlari kengayadi. Metafora, metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishlari kuzatiladi. Mazkur omillar negizida “yurish” semali lug‘aviy birliklar tahliliga bag‘ishlangan ushbu monografiya tilning lug‘at fondi hajmini aniqlash, shuningdek, lug‘aviy birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi so‘z ma’nolari haqidagi ilk mulohazalar Aristotelning “Poetika”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida qayd etilganini ta’kidlab, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy asosda atroflicha tadqiq etilganini izchil ravishda yoritgan. Jahon tilshunosligidagi harakat-holat fe’llari semantikasiga oid tadqiqotlar ikki guruhga ajratib izohlangan: 1. Ikki va undan ortiq tillardagi harakat leksemalarining qiyosiy, chog‘ishtirma tahliliga oid tadqiqotlar. 2. Bir til doirasidagi harakat leksemalari tahliliga oid tadqiqotlar.

Tadqiqotlarda, xususan, fe’l leksemalar tasnifida har xilliklar mavjudligi o‘rinli qayd etilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar mavjud lug‘at turlarining takomillashuviga, zamonaviy elektron lug‘atlar ishlab chiqilishiga asos bo‘lgani, shu bilan bir qatorda, kompyuter

leksikografiyasi, korpus lingvistikasi borasida yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga zamin yaratgani ta'kidlangan.

Turkiy tillarda harakat semali lug'aviy birliklar asosini faol harakat semali fe'llar tashkil etishi, turkologiyada fe'lning leksik-semantik guruhlari hamda grammatik kategoriyalar nuqtayi nazaridan o'rganilgani asoslangan. N.Dmitriyev A.Memetov tadqiqotlaridagi fe'l-leksemalarning semantik guruhlari keltirilib, munosabat bildirilgan.

Turkologiyada fe'l muammolarini o'rganish yuzasidan G'arbiy Yevropa turkologlari (A.K.fon Gaben, X.Denis va boshqalar), rus turkologlari (N.Dmitriyev, E.Tenishiyev, A.Yo'ldashev, N.Gadjiyeva, A.Kononov, E.Sevortyan va boshqalar) tadqiqot olib borishgani, olimlar fe'l semantikasini ikki yo'nalishda: fe'lning leksik-semantik guruhlari hamda fe'lning grammatik kategoriyalari jihatidan tahlil qilishgani asoslangan. N.K.Dmitriyev, E.Tenishev, V.Veshilova G.Kuliyev M.Usmonova, A.Memetov tasniflari keltirilib, munosabat bildirilgan.

Monografiyada fe'l leksemalar semantikasiga XX asr boshlarida alohida e'tibor berilgani, morfologik aspektda tahlil etilgani, Abdurauf Fitrat tomonidan mustaqil turkum birliklari sifatida izohlangani bayon etilgan. A.G'ulomov, A.Hojiyev tasniflari keltirilib, sharhlangan. M.Mirtojiyev, S.Muhamedovalarning fe'l leksemalar, harakat va holat fe'llariga oid qarashlari izohlangan.

Tadqiqotda tezaurusning olti xil xususiyati ilmiy va ensiklopedik manbalardan keltirilgan ta'riflar orqali ko'rsatilgan. Tezaurus modellarining lug'aviy birliklarni tizimlashtirishda, semantikasini yoritishda, o'zaro semantik munosabatlarini tahlil qilishda vosita sifatida xizmat qilishi, bir lug'aviy birlik semantikasi doirasida o'ndan ortiq belgisiga ko'ra xulosa chiqarishga asoslanishi misollar orqali dalillangan.

Ishda tezaurus modellarining lug'aviy birliklar semantikasini ochib berishdagi ahamiyati ko'rsatilib, semantika bilan aloqador hodisalarga munosabati nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Nutqda *yur-* va *yur-*asosli 211ta so'z faol ishlatilishi, ularning qo'llanishi matn turi, uslubi bilan bevosita aloqadorligi, badiiy uslubda qo'llanish chastotasi yuqori ekanligi misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

“Yur-” tushunchasining tarixiy semantikasi badiiy asarlar matni misolida yoritilgan.

“Yurish” harakati semasini o‘zida ifoda etuvchi 71ta leksema mavjudligi aniqlanib, N.Dmitriyev tasnifiga asoslanib ikki turga ajratilgan: harakat yo‘nalishini bildiruvchi fe’llar (18 xil) va harakat usuli (tarzi)ni bildiruvchi fe’llar (53 xil).

Monografiyada o‘zbek tilshunosligida bugungi kungacha qayd etilmagan “yurish” semali leksemalarning semantik munosabatlaridan biri – troponimik munosabati yoritilgan. Kristian Fellbaum va Jorj Miller tomonidan taklif qilingan troponimiya konsepsiyasi ilk bor o‘zbek tilshunosligiga tatbiq etilgan. Troponim ma’no jihatdan boshqa so‘zlarga qaraganda aniqroq so‘z, gipernim esa kengroq ma’no doirasini o‘z ichiga olgan umumiy atama ekanligi misollar orqali asoslangan. Troponimiya hodisasi haqidagi fikr birinchi bo‘lib Alisher Navoiy tomonidan o‘rtaga tashlangani misollar orqali dalillangan.

Troponim-gipernim munosabatlarining iyerarxik, vertikal shaklda ekanligi, eng yuqori qismida gipernimlar va quyi qismida shunga mos keladigan troponimlar joylashishi, aniqlik darajasi yuqoridan quyiga tomon ortib borishi ko‘rsatib berilgan.

Yur- asosli fe’l leksemalar frazemalar tarkibida kelib, turli usubiy-semantik xususiyatlarni ifoda etishi “*yurgiligi qolmaslik*”, *tili bilan yurmoq*, *og‘zi bilan yurmoq* frazemalari orqali tahlil qilingan.

Tilshunoslikda *semantik domen* termini tildagi har bir konseptning barcha qirralarini o‘z ichiga olgan mavhum makonni anglatishi ta’kidlanib, bir nechta so‘zlar bir xil ma’noga ega bo‘lishini aks ettirgani bois semantik domen leksik birliklarning *semantik ombori* sifatida baholangan. Semantik domenda har bir so‘z bir-biri bilan assotsiativ, sintagmatik va paradigmatic kabi leksik munosabatlar orqali bog‘lanishi, semantik uya, semantik maydon, semantik tarmoq tushunchalariga nisbatan keng qamrovligi, tizimlilik, asoslanganligi bilan ajralib turishi, ichki elementlariga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

“Yurish” semali lug‘aviy birliklarning *yo‘l + fe’l (harakat)* modeli semantik muqobillari ham mavjudligi qayd qilinib, *yo‘l* semantik yadroli frazemalar izohlangan.

“Yurish” semali leksemalar *“bir yo‘nalishda harakatlanish”* semantik domeniniga jamlanishi, sintaktik sinonimiyani hosil qilishda ishtirok etishi misollar orqali ko‘rsatib berilgan. *“Bir yo‘nalishda harakatlanish”* integral sema, shaxsning turli vaziyatlardagi va nisbatlardagi harakatini ifodalashi differensial sema sifatida ajratilgan.

“Yurish” semali fe‘llar bilan semantik muqobil tarzda qo‘llanadigan yuzga yaqin lug‘aviy birliklar mavjudligi, denotativ va konnotativ semalarda qo‘llanishi, o‘zaro gipernim-troponim munosabatga kirishishi, ma‘noni darajalab ifodalashiga ko‘ra graduonimik qator hosil qilishi, “yurish” semali ayrim leksik birliklarning faqat inson harakatini ifodalash uchun xoslangani ko‘rsatib berilgan.

Umuman, mazkur monografiyada harakat va holatga ajratishning nisbiyligi aniqlanib, tasniflashga oid tavsiyalar berilgan. “Yurish” semali lug‘aviy birliklar semantikasini yoritishda tezaurus modellarining o‘rni ko‘rsatilgan. *Yur-* asosli va boshqa shakldagi leksemalar, frazemalarning qo‘llanish faolligi va miqdori, o‘zaro gipernim-troponimik, graduonimik munosabatlari aniqlangan; “yurmoq” leksemasi va unga ma‘nodosh lug‘aviy birliklarning lug‘atlarda qayd etilmagan kontekstual semalari, mustaqil fe‘l, ko‘makchi fe‘l, bog‘lama vazifasida kelishi, kesimlik shakllariga muqobil bo‘la olishi, inson xatti-harakati uchun xoslanishi, “yo‘l + fe‘l modelidagi bir qator frazemalarning “yurish” semasini ifodalashi aniqlanib, tezaurus modellari ishlab chiqilgan. “Yurish” semali lug‘aviy birliklarning o‘zbek tilidagi tezaurus, ontologik, semantik lug‘atlar, semantik domenlarni shakllantirishdagi o‘rni asoslangan o‘ziga xos muhim ilmiy tadqiqot sifatida e‘tirof etish mumkin.

Zulxumor Xolmanova,
filologiya fanlari doktori, professor

I BOB. HARAKAT-HOLAT SEMALI LUG‘AVIY BIRLIKLAR SEMANTIKASIGA DOIR TADQIQOTLAR TAVSIFI

Jahon tishunosligida harakat-holat semali lug‘aviy birliklar semantikasi tadqiqi

Tilshunoslikda til va uning tuzilishi tizim sifatida ilmiy tadqiq qilinadi: tilning insoniyat tomonidan qanday idrok qilinishi, o‘zlashtirilishi va ishlatilishi uchun avvaldan mavjud o‘ziga xos me‘yor, qoidalar, ta’riflar qayta ko‘rib chiqiladi hamda takomillashtiriladi. Ma’lumki, har qanday tilni o‘zlashtirish va tadqiq etishda uning nutq tovushi yoki fonema qismi (fonetika va fonologiya), grammatik qurilishi (morfologiya va sintaksis), hamda ma’no tomoni (semantika va pragmatika)ga alohida ahamiyat qaratiladi. Hozirgi kungacha uning ayrim kichik sathlari shular tarkibida o‘rganilgan va uning zamonaviy tarmoqlari esa shular negizida paydo bo‘lgan deb qaraladi¹.

Jahon tilshunoslari lingvistikaning to‘rtta muhim sohasi: fonologiya, morfologiya, semantika va sintaksis mavjudligini ham e’tirof etishgan². Olimlar semantikaning o‘rganish obyekti sifatida so‘zlar, iboralar va jumlar bilan bir qatorda matnni ham kiritishgan³. So‘z va ibora (frazema) bu lug‘aviy birliklar sanalsa, jumla va matn grammatik birliklar hisoblanadi. Ana shu leksik birliklar semantikasi tilshunoslikda bugungi kunda mental tafakkurga asoslangan kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda⁴. Shu bois semantika sohasidagi tadqiqotlar idrok, xotira va tafakkur kabi asosiy psixik jarayonlarni aniqlashga qaratiladi.

So‘zlarning leksik ma’nolari taraqqiyotiga tilshunoslik nuqtayi nazaridan dastlab 1839-yil nemis tilshunosi Karl Rayzig tomonidan e’tibor qaratilgan⁵. U lotin filologiyasiga bag‘ishlangan ma’ruzasida so‘z ma’nosini alohida semasiologiya deb nomlangan fan tarmog‘ida o‘rganish

¹ George Yule The Study of Language. Fourth edition.– New York: Cambridge University Press, 2010. –340 p.

² Umagandhi R., Vinothini M. Leech’s seven types of meaning in semantics // International Journal of Multidisciplinary Research and Development Online ISSN: 2349-4182, Print ISSN: 2349-5979, www.allsubjectjournal.com Volume 4. Issue 3. March 2017. – P.71-72.

³ Riemer N. Introducing semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P.20.

⁴ Evans Vyvyan and Green Melanie. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh University Press, 2006; Geeraerts Dirk And Cuyckens Hubert The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2010; Chandra Sekhar Rao Cognitive Linguistics: An Approach to the Study of Language and Thought. // Journal of research scholars and professionals of English language teaching. ISSN: 2456-8104. Vol. 5. Issue 24. March 2021.

⁵ Миртожиев. М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.– Б.4. www. ziyouz. com.

kerakligini ilgari surdi. Bunda u ko‘proq leksik ma’no taraqqiyotini nazarda tutgan edi⁶. Biroz vaqt o‘tib, ilmiy manbalarda 1880-1883-yillar oralig‘ida zamonaviy semantikaning asoschisi hisoblangan fransuz tilshunosi Mishel Breal tomonidan “semantika” atamasi fanga kiritilgan. U *phonétique* “fonetika” keng ma’noda nutq tovushlari haqidagi soha bo‘lganidek, yunoncha “ma’no” tushunchasini beruvchi “sémantique” sohasi ham mavjudligini ta’kidlaydi⁷.

Aslida so‘z ma’nolari haqidagi ilk mulohazalar qadim zamonlardan, aniqrog‘i, tilshunoslar so‘zlarning moddiy (shakliy) tomoni haqida fikr yuritmaslaridan oldin paydo bo‘lgan. Xususan, antik davrning buyuk olimi Aristotel tomonidan yaratilgan “Poetika” (Poeziya san’ati haqida) asarining “Til va fikr” (XIX fasl), “Nutq bo‘laklari” (XX fasl), “Otlarning turlari” (XXI fasl), “So‘z tanlash” (XXII fasl) kabi bo‘limlarida ot va fe’llarning o‘zi ifodalayotgan ma’nodan ko‘chishi: ko‘chma so‘z (metafora) – narsaga xos bo‘lmagan, jinsdan turga: *ana mening kemam turibdi...*” (bu yerda “*turibdi*” so‘zida “*langarda turibdi*” ma’nosi anglashilgan, ya’ni ayrim so‘zlar implitsit shakda ifodalanagan) yoki turdan jinsga yoxud turdan turga ko‘chirilgan yoki o‘xshatilgan so‘z ekanligi bir qator misollar bilan izohlanganligini ko‘rish mumkin⁸. Nafaqat G‘arb-u Sharqda, balki dunyoning barcha mamlakatlarida til faqat o‘rganilgan, tadqiq etilgan, asrlar davomida yaratilgan son-sanoqsiz lug‘atlar esa buning amaliy isbotidir.

Semantika muayyan lug‘aviy birlik va uning ma’nolari o‘rtasidagi munosabatni hamda shu ma’nolarning nutq jarayonida shakllangan turli xil semalari bilan bir qatorda qaysi leksik birliklar bilan semamaydon hosil qilishini ham o‘rganadi. Misol uchun, biz “sayohat” so‘zini eshitganimizda, ongimiz orqali uni avtomatik ravishda “*boshqa bir joy (shahar)ga borish*” mazmunini anglaymiz. Keyinchalik bu ma’no sayohat bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tushunchalar bilan birlashadi, masalan: *yurish, sayr qilish yoki insonning sayohatdan o‘zgacha zavq olishi, rohatlanib dam*

⁶ Adelung. Über der ductsche Stil. 4-Auflage. – Berlin. 1800. 343 s.; Gerber G. Die Sprache als Kunst. 2 Auflage. – Berlin, 1885. –78 s.; Бен А. Стилистика и теория устной и письменной речи. – М., 1886.– С.8-19.

⁷ Essai de Sémantique, 1897.

⁸ Аристотель. Поэтика: (Поэзия санъати ҳақида). –Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.– Б.42-43.

olishi va bu orqali ruhiyatini sog'lomlashtirishi kabi bir qator tushunchalarni o'zida mujassam etadi. So'zni avtomatik ravishda tasniflash erkin birikmalarni, gaplarni, hatto matnlarni ham tahlil qilishga ta'sir etishi mumkin. Chunki muayyan bir leksik birlik nutqiy jarayonda turli ma'no qirralarini namoyon etadi. Shu sabab hozirgi kunda til birliklari semantikasini tadqiq etish tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri desak to'g'riroq bo'ladi.

Mavjud adabiyotlarda semantikaning quyidagi uch tarmog'i qayd etiladi⁹:

1. Formal semantika – til birliklarining ma'nosini o'rganish uchun matematik va mantiqiy usullardan foydalaniladigan semantika¹⁰. U “rasmiy semantika” deb ham nomlanadi, unda tushuncha va ularning denotatsiyasi o'rtasidagi munosabatni aniqlashtirish uchun mantiqiy formalizmlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi¹¹. U matn tarkibidagi so'zlar, iboralarning bosh ma'nosi va hosila ma'nosi aloqadorligiga asoslanadi. Masalan, *“Imtihon jarayonida har bir abituriyentga ikkitadan ruchka beriladi”* jumlasini olaylik. Biz buni rasmiy semantikadan foydalanib, “ $1y = 2x$ ” shaklida mantiqiy formulaga aylantirishimiz mumkin, bu yerda y - abituriyent va x - ruchka.

2. Leksik semantika – so'z va iboralarning ma'nolarini tadqiq etadigan semantika¹². Bunda til biliklarning ma'nolari o'rtasidagi farqlarga asoslanib, semantikani o'rganishda ikkita asosiy obyekt: so'z (leksema) semantikasi va ibora (frazema) semantikalarini aytish o'rinli. Shu sababdan leksik semantika alohida so'z va iboralarning jumla yoki matn tarkibidagi leksemalar qurshovida anglatgan turlicha ma'nolari hamda uning qaysi birliklar o'rnida kelganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *“urmoq”* leksemasi jumla tarkibida turli xil ma'nolarni ifodalaydi. Denotati izohli lug'atlarda *“bilvosita zarb bermoq”* semasi keltirilgan. Bundan farqli o'laroq, *yo'ldan urmoq, jigardan urmoq, qo'l urmoq* kabi birliklarda

⁹ Roland Hausser Three Kinds of Semantics // Foundations of Computational Linguistics. – P. 379–396. <https://www.researchgate.net/publication/302367858>.

¹⁰ Claudia Maienborn, Klaus von Heusinger, Paul Portner Semantics: theories. Boston: De Gruyter Mouton, 2019.

¹¹ Dirk Geeraerts Theories of Lexical Semantics. London: Oxford University Press, 2009. Moeschler Jacques Introduction to Semantics. In Rajman, Martin (ed.). Speech and Language Engineering. EPFL Press, 2007. Retrieved 2024-02-15. – P. 31–33; Barbara Partee, Paul Portner Formal Semantics: The Essential Readings. April 2008. – 496 p.

¹² Claudia Maienborn, Klaus von Heusinger, Paul Portner Semantics: theories. Boston: De Gruyter Mouton, 2019.

tamomila boshqacha ma'nolarni anglatgan¹³. Ayni damda hozirgi kunda insonlar nutqida yo'l haqqini to'lash maqsadida turli xil plastik yoki transport kartalarini jamoat taransportlarida o'rnatilgan maxsus apparatga tekkizish orqali ma'lum bir miqdorda pul yechib olinishini ifodalash uchun ham *karta (atto yoki plastik karta) urmoq* leksemasi faol qo'llanilmoqda.

3. Kontseptual semantika ilk marotaba 1976-yilda Rey Jakendof tomonidan fanga olib kirilgan bo'lib, u so'zlar va jummalarni inson tushunishi uchun kontseptual elementlarning tavsifini hamda semantik tasvirini ishlab chiqishdan iboratligi ta'kidlangan¹⁴. Kontseptual semantikaning nazariy asosi til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni va ana shu jarayonda sodir bo'ladigan ma'noning asosiy kontseptual tuzilmalarini o'rganishdan iborat, unda so'zlar va iboralarning nutq jarayonida qo'llanilish holatlari ko'rib chiqiladi¹⁵. Masalan, "*baxt*" so'zi *quvonch, zavq va mamnunlikni* o'z ichiga olgan asosiy kognitiv tuzilishga bog'liq bo'lgan ijobiy his-tuyg'ularni ifodalaydi. Shu sababdan kontseptual semantika faqat til nazariyasi emas, balki insonning bilishi haqidagi nazariya sifatida qaraladi.

Bundan tashqari semantikaning yana bir tarmog'i sifatida kognitiv semantika ham mavjudki, u ma'no muammosini psixologik nuqtayi nazardan yoki tildan foydalanuvchining tafakkuri ma'noga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Kognitiv lingvistikaning bir bo'limi sifatida u tilni dunyoni tushunish va ifodalash uchun ishlatiladigan kontseptual tuzilmalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan keng kognitiv qobiliyat sifatida ko'radi¹⁶. Kognitiv semantiklar lingvistik bilim va dunyoni bilish o'rtasida keskin farqni ajratmaydi va buning o'rniga ularni o'zaro bog'liq hodisalar sifatida tadqiq etadi. Ular til va inson bilishi o'rtasidagi o'zaro ta'sir fazo, vaqt, sabab va harakat kabi umumiy tushunchalarda kontseptual tuzilmaga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar. Qisqasi, kognitiv semantiklar tilga umumiy kognitiv qobiliyatining bir qismi sifatida yondashadi va shuning

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). IV. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008.– Б. 295–296.

¹⁴ Ray Jackendoff Semantics and cognition. Cambridge, MA: MIT Press, 1976.– 283 p.

¹⁵ Claudia Maienborn, Klaus von Heusinger, Paul Portner Semantics: theories. Boston: De Gruyter Mouton, 2019.

¹⁶ Li Fuyin Cognitive Semantics. Oxford Bibliographies. Archived from the original on 25 March 2023. Retrieved 10 February 2024.

uchun dunyoni faqat insonlar uni tasavvur qilganidek tasvirlashi mumkin bo‘ladi¹⁷.

Angliyalik tilshunos Jefri Lich tadqiqoti ingliz tilidagi joy, vaqt va modallik semantikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, olim “ma’no”ni yetti xil turga ajratadi:

1. **Konseptual yoki mantiqiy ma’no** (conceptual or logical meaning) – fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantikaning lingvistik tahlili natijasida aniqlangan gapning ma’nosi. Ba’zi olimlar buni belgilovchi (designative), denotativ (denotative), tavsiflovchi (descriptive) yoki kognitiv (cognitive) ma’no deb ham atashadi¹⁸.
2. **Konnotativ ma’no** (connotative meaning) – bosh ma’no nazarda tutilgan holda nutqiy jarayonda yuzada keladigan ko‘chma ma’no.
3. **Ijtimoiy ma’no** (social meaning) – muloqot vaziyatidagina kelib chiqadigan ma’no.
4. **Affektiv ma’no** (affective meaning) – muloqotni qabul qiluvchi yoki tahlil etuvchi shaxsning o‘zlariga ta’sir etishi bilan berilgan subyektiv ma’no.
5. **Reflektiv ma’no** (reflected meaning) – so‘zning asl ma’nosi bilan adresant munosabati qorishishi natijasida vujudga keladigan ma’no.
6. **Kollokativ, ya’ni yig‘ma ma’no** (collocative meaning) – so‘zning asl konseptual ma’nosini o‘zgartiruvchi, balki ayrim so‘zlar bilan ifodalangan so‘zlar, nutq figuralari yoki umumiy qo‘llanish qoliplari yordamida ifodalangan ma’no.
7. **Mavzuli (thematic) ma’no** – ma’ruzachi muayyan ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish uchun intonatsiya, urg‘udan foydalangan holda xabarni tahrirlaydi, tartibga soladi¹⁹.

Aslida yuqoridagilardan kontseptual ma’no va mavzuli ma’nodan tashqari boshqa beshtasi assotsiativ ma’no deyiladi²⁰. Ushbu tasnifda,

¹⁷ Croft William and D. Alan Cruse Cognitive Linguistics. // Cambridge: Cambridge University Press, 2004.– P.105, 7–15, 33–39.

¹⁸ Umagandhi R., Vinothini M. Leech’s seven types of meaning in semantics. // International Journal of Multidisciplinary Research and Development Online. www.allsubjectjournal.com Volume 4; Issue 3; March 2017; Page No. 71-72.

¹⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Geoffrey_Leech#cite_ref-18

²⁰ Umagandhi R., Vinothini M. Leech’s seven types of meaning in semantics. // International Journal of Multidisciplinary Research and Development. Online ISSN: 2349-4182, Print ISSN: 2349-5979, www.allsubjectjournal.com Volume 4. Issue 3. March 2017.– P.71-72.

asosan, hosila ma'nolar e'tiborga olingan. Ma'noni yuzaga keltiruvchi omillar nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, har qanday leksik birlik tilning barcha boshqa birliklari bilan bog'lanib, o'zining butun leksik-semantik tizimi doirasidagina o'z mohiyatini namoyon etadi. Bu haqda akademik V.Vinogradov shunday yozgan edi: "So'zning semantik mohiyati uning o'ziga xos ma'nolari bilan chegaralanmaydi. Ko'pincha so'zning ma'nosi nutqiy jarayonda oydinlashadi. U til tizimining boshqa so'zlar, uning ma'nolari bilan bog'langan va to'yingan holdagina yaxlit ma'noni yuzaga keltiradi"²¹. Ayrim tadqiqotlarda esa tilning leksik-semantik darajasi lug'aviy birlik-elementlardan tashkil topgan tizim sifatida taqdim etiladi. Tizim esa alohida elementlarining o'zaro ta'siri va bog'liqligini aniqlashni o'z ichiga oladi²². Lug'atni tizim sifatida o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, u leksik-semantik guruhlar (LSG)ning tavsiflanishi bilan xarakterlanadi. Leksik-semantik tizimni yaxlit tavsiflash yo'lidagi keyingi qadam LSG o'rtasidagi paradigmatic, syntagmatic va iyerarxik munosabatlarni to'g'ridan to'g'ri aniqlashdir²³.

Yevropa tilshunosligida tilni o'rganishga tizimli yondashuv F.de Sossyurning faoliyati va Praga lingvistik doirasi deklaratsiyasi bilan bog'liq bo'lsa²⁴, rus tilshunosligida tilning tizimli tavsifiga e'tibor odatda I.Boduen de Kurtene²⁵, xususan, M.Pokrovskiy, A.Potebnya, N.Krushevskiy asarlarida belgilab berilgan²⁶.

Lug'at sathini tizim sifatida o'rganishda fe'llar alohida o'rinni egallaydi. Rus tilshunosligida XX asrning 60-yillarida esa fe'llarning alohida leksik-semantik guruhlari (LSG)ni tizimli o'rganish boshlandi va bu tadqiqotlar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmadi: L.Bogdanova,

²¹ Виноградов В.В. Избранные труды / Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 165 с.

²² Keith Allan. Semantics and Pragmatics: A historical review to the end of the twentieth century. // Argumentum 15. – Debreceni: Debreceni Egyetemi Kiadó, 2019. – P.81-116.

²³ Кузнецова Э.В. Итоги и перспективы семантической классификации русских глаголов. В кн.: Семантические классы русских глаголов. – Свердловск, 1982. – С. 3-10.

²⁴ Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. – М., 1967; шу муаллиф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – 695 с.

²⁵ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 384 с.

²⁶ Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959; Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. 1-2. – М., 1958; Крушевский Н.В. Очерки по языковедению (О языке как системе; динамика, статика языка) // Хрестоматия по истории русского языкознания. 2- изд., испр. – М.: Высшая школа, 1977. – С. 375-377.

G.Stepanova, R.Gaysina, V.Ibragimova, L.Vasilyev, T.Qildibekova, A.Plotnikova ishlari²⁷, shuningdek, LSG fe'llarining bir-biri bilan o'zaro ta'siri va aloqadorligi muammolariga bag'ishlangan E.Kuznetsova, T.Novoselova, N.Sidorovalar²⁸ izlanishlari keyingi tadqiqotlarning yaratilishiga zamin bo'ldi. Xususan, L.Vasilyevning rus tilidagi fe'llar semantikasiga bag'ishlangan tadqiqotida rus tilidagi fe'llar ma'nosi, ularning turkumlari, grammatik va leksik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan²⁹. Bu ish leksik va grammatik semantikani o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Semantik nazariyani ishlab chiqishda o'z hissasini qo'shgan tilshunos D.Dovtiy fe'l ma'nosini lingvistik tadqiq qilishda deyarli barcha fe'llar negizida harakat semasi mavjudligini aniqlagan holda turg'un yoki dinamik turlarga ajratadi. Turg'un fe'llar argumentlarning holatlarini, dinamik fe'llar esa faol harakat-hodisalarni ifodalashini ta'kidlaydi. Faol harakat fe'llarning semantik guruhiga esa "jonli va jonsiz jismlarning makondagi jismoniy harakatini bildiruvchi va shu jihati bilan boshqa fe'llardan ajralib turuvchi fe'llar guruhi"³⁰ degan ta'rifni beradi.

Tilshunoslikda harakat tushunchasi zahirida turli xil semalar: yo'nalish, fazoviy lokalizatsiya, harakat usuli, intensivlik, yo'l, maqsad,

²⁷ Богданова Л.А. Опыт компонентного анализа глаголов становления // Актуальные проблемы лексикологии. Тезисы докл.–Новосибирск, 1967. – С.19-21; Степанова Г.В. Лексико-семантическая группа глаголов понимания // Вопросы семантики.– Изд.: Ленингр. ун-та, 1974.– Межвуз. сб. Вып. 1. – С. 17-28; Гайсина Р.М. Синтагматическая характеристика глаголов отношения // Синтаксис и интонация. – Уфа, 1976.– С.32-48; Ибрагимова В.Л. К истории изучения глаголов движения в отечественном языкознании // Исследования по семантике / Лексическая и словообразовательная семантика.–Уфа, 1979. – С. 64-74; Васильев Л.М. Семантика русского глагола. Глаголы речи, звучания и поведения. Уч. пособие. – Уфа, Башкирск. ун-т. 1981. – 72 с.; Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М.: Высшая школа, 1983. 328 с.; Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика: учеб. пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 1990. 179 с.; Кильдибекова Т.А. Глаголы действия в современном русском языке. Опыт функционально-семантического анализа. – Изд. Саратовск. ун-та, 1985. – 160 с.; Кильдибекова Т.А. Глаголы действия в современном русском языке / Опыт функционального анализа. Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Днепропетровск, 1986. – С.54; Ибрагимова В.Л. Глаголы пространственной локализации в современном русском языке. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Екатеринбург, 1994; Плотникова А.М. Когнитивное моделирование семантики глагола (на материале глаголов социальных действий и отношений): Дисс... д-ра филол. наук. – Екатеринбург, 2009.– 555 с.

²⁸ Кузнецова Э.В. Русские глаголы «приобщения объекта» как функционально-семантический класс слов / К вопросу о природе лексико-семантических групп. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – М., 1974. –28 с.; она же. О пересекающемся характере лексико-семантических групп слов // Семантика и структура предложения. Лексическая и синтаксическая семантика. – Уфа, 1978. – 211 с.; Сидорова Н.П. Системная организация лексико-семантической группы глаголов звучания и их взаимосвязи с другими глагольными группами. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1978. –20 с.; Новоселова Г.И. Взаимодействие лексико-семантической группы глаголов созидания с другими группами в современном русском языке // Русская лексикология и вопросы межуровневых связей. – Новосибирск, 1980. – С.12-22.

²⁹ Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М.: Высшая школа, 1983. – 328 с.

³⁰ Dowty D.R. Word meaning and Montague grammar: The semantics of verbs and times in generative semantics and in Montague's PTQ.– Nithelands: D.Reidel Publishing Company, 1979. – 415 p.

muhitni o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p qirrali semalar anglashiladi³¹. Ma’lumki, harakat konsepti asosan fe’lda ifodalanadi. Harakatning barcha semantik xususiyatlari, uning ayrim jihatlarini C.Fillmore, G.Miller, L.Talmy, N.Arutyunova, R.Jakendoff, V.Cheyf, E.Kubryakova, B.Levin, V.Gak, V.Toporov, M.Nikitin, A.Vejbitskaya kabi tilshunos olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan³². Bu borada rus tilshunosi, akademik Y.Apresyanning xizmatlari alohida e’tiborga molik. Olim fe’l semantikasini uning sintaktik xususiyatlari bilan bog‘liq holda tavsiflaydi va fe’lning ma’nosi so‘z birikmasi va jumla tarkibida yaqqol ifodalanishini alohida ta’kidlaydi³³. E.Paducheva fe’l nutqiy ma’nolarining barcha parametrlarini batafsil tavsiflab, ularni turli xil fe’llarning leksik-semantik guruhlariga nisbatan ko‘rib chiqadi³⁴.

Harakat fe’llari shaxs, hayvon, narsa yoki tabiat tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan harakatni tasvirlaydi. Bilamizki, istalgan gapning qurilishida harakat fe’llari uyushtiruvchanlik xususiyatiga egaligi uchun ham uning gapdagi o‘rni ahamiyatli: matnning asosiy g‘oyasini, jumlaning propozitsiyasini ham belgilovchi unsur bu fe’l predikati sanaladi. Shu sabab jahon tilshunosligida harakat-holat fe’llari eng ko‘p tadqiq etilgan leksik-semantik guruhlardan biri bo‘lib, uning semantik xususiyatlarini o‘rganish tillarni o‘qitish amaliyoti uchun ham, nazariy jihatdan ham samaralidir. Hozirgi kungacha harakat-holat fe’llari semantikasiga oid yaratilgan

³¹ Никитина И.Г. Способы репрезентации концепта «движение» в разноструктурных языках: на материале русского, английского и чувашского языков. Автореф. канд. филол. наук. – Чебоксары. 2010. – 207 с.

³² Fillmore Ch.J. Deictic Categories in the Semantics of “Come”. // *Foundations of Language. International Journal of Language and Philosophy* / Ed. By J.H. Thompson. Chicago, 1966. Vol.2. – №3. August. – P. 219-227; Miller G. English Verbs of Motion: A Case Study in Semantics and Lexical Memory. // *Coding Processes in Human Memory*. – New York, 1972. – P.335-372; Talmy L. Semantics and Syntax of Motion // *Syntax and Semantics*. Cambridge, 1975. – Vol. IV. – P.181-238; Арутюнова Н.Д. Язык цели // *Логический анализ языка: модели действия*. – М., 1992. – С.14-23; Jackendoff R.S. Semantics and cognition. – Cambridge, MA: MIT Press, 1983. – 283 p.; Чейф У.Л. Память и вербализация прошлого опыта // *Новое в зарубежной лингвистике. Вып 12: Прикладная лингвистика*. – М., 1983. – С.35-73; Кубрякова Е.С. Глаголы действия через их когнитивные характеристики. // *Логический анализ языка. Модели действия*. Сб. ст. ин-т языкознания РАН. – М., 1992. – С. 84-90; Levin B. and M. Rapoport Hovav The Lexical Semantics of Verbs of Motion: The Perspective from Unaccusativity, in I.M. Roca, ed., *Thematic Structure: Its Role in Grammar*, Berlin, Foris. – 1992. – P. 247-269; Гак В.Г. Функционально-семантическое поле предикатов локализации // *Локативность, бытийность. Посессивность. Обусловленность*. – СПб.: Наука, 1996. – С.6-26.; Топоров В.Н. Об одном парадоксе движения. Несколько замечаний о сверхэмпирическом смысле глагола «стоять», преимущественно в специализированных текстах // *Концепт движения в языке и культуре*. – М., 1996. – С. 8-101; Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. – СПб.: Науч. центр проблем диалога, 1997. – 757 с.; Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языка. – М.: Шк. Языки рус. культуры, 1999. – 780 с.

³³ Апресян Ю.Д. Экспериментальное исследование семантики русского глагола. – М.: Наука, 1967. – С.4.

³⁴ Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 607 с.

tadqiqotlarni shartli ravishda ikkita yirik guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Ikki va undan ortiq tillardagi harakat leksemalarining qiyosiy, chogʻishtirma tahliliga oid tadqiqotlar. Bu borada kognitiv tilshunoslik asoschilaridan, semantik va rasmiy til tuzilmalari oʻrtasidagi munosabatlar, shuningdek, semantik tipologiyalar va universalialarni ishlab chiqqan tilshunoslardan V.Cheyf, L.Talmi, T.Maysak ³⁵ hamda turli tillar semantikasini tavsiflash boʻyicha bir nechta tipologik loyihalarning tashkilotchilaridan L.Abdyukova, O.Furer, E.Raxilina, E.Abramova, I.Nikitina, A.Xoliqov ³⁶ larning tadqiqotlari alohida eʼtiborga molik. Jumladan, L.Abdyukova ingliz tilidagi harakat feʼllari maqsadli ekanligini taʼkidlaydi: “Maqsad harakatga maʼno beradi. Maqsad qoʻyish harakatdan oldin boʻladi, maqsad – bu harakatning yakuniy bosqichidir”³⁷. Maqsad harakat-hodisalarni tushunish va izohlash uchun zarur boʻlgan aqliy kategoriya boʻlib, u harakatga maʼno beradi. Shuningdek, tabiat sabab kategoriyasi bilan, inson esa maqsad kategoriyasi bilan tavsiflanadi. Maqsad tushunchasining boshlangʻich va manzil nuqtasi tasviri muhim ahamiyatga ega. Makon va zamonda maqsadli jarayonni ifodalovchi harakat sohasida quyidagi fazalar kuzatiladi:

- harakatning boshlanishi: *yoʻlga tushish, yoʻlga chiqish;*
- oraliq nuqta: *yoʻl yurmoq, yoʻlda davom etmoq;*
- yakuniy manzil: *manzilga yetmoq.*

³⁵ Chafe W. Phonetics, semantics, and language. // Language Vol. 38. – America: Linguistic Society of America. 1962.– №4. – P.335-344; Talmy L. Lexicalization patterns: semantic structure in lexical forms. Language typology and syntactic description, second edition. Grammatical categories and the lexicon. Vol 3. Cambridge: Cambridge University press, 1985. – P. 57–149; Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Typology and process in concept structuring. Vol. 2. Cambridge: MIT Press, 2000. – P. 495; Майсак Т.А. Типология грамматикализации конструкций с глаголами движения и глаголами позиции. Дисс... канд. филол. наук. – М., 2002. – 298 с.

³⁶ Абдюкова Л.А. Функционально-когнитивный анализ сферы «двигаться» в русском и английском языках. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 2002. – 18 с.; Фурер О.В. Семантика глаголов действия и их дериватов в лингвокогнитивном аспекте (на материале русского и английского языков). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ульяновск, 2005. – 28 с.; Майсак Т.А., Рахилина Е.В. Глаголы движения в воде: лексическая типология. – М.: Издательство Индрик, 2007. – 752 с.; Абрамова Е.Н. Семантико-когнитивный анализ глаголов активного действия в русском и английском языках. Дисс... канд. филол. наук.: – Челябинск 2008.– 222 с.; Никитина И.Г. Способы репрезентации концепта «движение» в разноструктурных языках: на материале русского, английского и чувашского языков. Дисс... канд. филол. наук. – Чебоксары. 2010. – 207 с.; Холиков А.Ю. Структурно-семантические особенности глаголов, обозначающих движение на воде разноструктурных языках. Дисс. ... канд. филол. наук: Институт языка и литературы им. Рудаки. – Таджикистан, 2022. – 175 с.

³⁷ Абдюкова Л.А. Функционально-когнитивный анализ сферы «двигаться» в русском и английском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2002. –18 с.

Harakatning qo‘shimcha komponentlari yo‘nalishni yo‘qotishdir: *adashish, boshi og‘gan tomonga ketib qolish; masofa: katta, kichik; to‘siq: aylanib o‘tish* kabilar.

Turli tillar misolida harakat fe‘llarining leksik-semantik guruhlarini chuqurroq va kengroq maxsus o‘rganish orqali ularning integral semantik xususiyatlari aniqlanadi. Integral semantik tavsif g‘oyasi bu “qoidalar tizimi sifatida amalga oshirilgan tilning yagona rasmiy tavsifi”³⁸ demakdir.

Dunyoning ko‘pgina tillarida harakat semali fe‘llarning har biri denotativ semada faol harakatni anglatishdan tashqari konnotativ semada faol bo‘lmagan jarayonni ifodalashi keng targ‘ib qilinadi. Bu haqda J.Blomberg dissertatsiyasida shved, fransuz va tay tillaridagi harakatni qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etar ekan, u harakat konseptini ikkiga: faol harakat (actual motion–AM) va nafaol harakat (non-actual motion–NAM)ga ajratadi. Faol harakat (actual motion–AM) – obyekt pozitsiyasining uzluksiz o‘zgarishi tajribasi bo‘lib, “*Erkak o‘rmon bo‘ylab yugurdi*”, “*Ayol daryo yoqalab yurdi*”, “*Bolalar zinadan pastga tushmoqda*” kabi jumalarda o‘z aksini topadi. Nafaol harakat (NAM) esa turg‘un vaziyatlarni tasavvur qilish yoki idrok etish bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ishora qiladi³⁹. M: “*Vujudimga orombaxsh shabada yugurdi*”, “*Sen bizlar ko‘rganni ko‘rmagaysan hech, G‘urbat yo‘llaridan yurmagaysan hech*”, *Narxlar asta-sekin tushmoqda*”. Bu kabi misollar ko‘proq nutq jarayonida boshqa leksik birliklar qurshovida, metaforik jumlar tarkibida kuzatiladi. Nafaol harakat fe‘llarida harakat xuddi dinamik harakatdagidek o‘ylanadi, tasavvur qilinadi va shunday talaffuz qilinadi. Faol jismoniy harakat fe‘llari esa ko‘chma ma’noli fe‘llar haqida fikr yuritish, semantik tahlil etish uchun kommunikativ va kontseptual shablon bo‘lib xizmat qiladi.

J.Blomberg tasnifi harakat fe‘llarining o‘z va ko‘chma ma’nosini ifoda etadi. Ko‘chma ma’nodagi harakat fe‘llari kognitiv usulda yuzaga kelgan bo‘lib, til egalarning tafakkur tarzi, idrok darajasi bilan bog‘liq.

³⁸ Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. Том 1. – М.: Восточная литература РАН, 1995. – 472 с.

³⁹ Blomberg J. Motion in Language and Experience: Actual and Non-actual motion in Swedish, French and Thai [Doctoral Thesis (monograph), Centre for Languages and Literature]. The Faculties of Humanities and Theology 2014.– 269 p.

Bir qator chog‘ishtirma tadqiqotlar bir ma‘noviy guruhga mansub leksemalar tahliliga bagishlangan. Xususan, G.Hakimovanning nomzodlik dissetatsiyasida esa rus va ingliz tillaridagi “eshitish / tinglash” tushunchasining qiyosiy tavsifi va buni ifodalash vositalarini tizimlashtirish materialidan foydalangan holda ideografik lug‘atning yangi turini yaratish imkoniyati haqida dolzarb fikr-mulohazalar qayd etilgan⁴⁰. An‘anaga ko‘ra, unda leksik birliklarning mazmun plani semantik tahlil doirasida o‘rganildi, bu orqali lug‘at tarkibini tartibga solish imkoniyati ko‘rsatib o‘tildi. Ushbu ishda lug‘atni tizimlashtirish muammosi konsepsiyalash, shaxsning aqliy tajribasini umumlashtirish va leksik vositalardan foydalangan holda xotiradagi ma‘lumotlarni “qadoqlash” nuqtayi nazaridan hal qilindi, bu esa barcha turdagi bilimlarni bir lug‘at blokida birlashtirishga imkoniyat yaratdi.

2. Bir til doirasidagi harakat leksemalari tahliliga oid tadqiqotlar, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirildi. Bir til doirasidagi harakat-holat leksemalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni ham o‘z navbatida ikkiga ajratish mumkin:

a) umumiy harakat-holat fe’llari semantikasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar;

b) ayrim ma‘noviy guruhga mansub fe’llar semantikasiga oid ishlar.

Rus tilidagi umumiy harakat fe’llari bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Z.Blyagoz, Y.Gordeyev; harakat fe’llarida so‘z yasaliш paradigmalari va uyalari haqida A.Xamidullina; uning semantik-sintaktik tahlili borasida V.Ibragimova, E.Lazutkina, T.Skrebsova, E.Bayartuyevalar⁴¹ning ishlari alohida ahamiyatga molik.

⁴⁰ Хакимова Г.Ф. Представление сферы слухового восприятия в русско-английском функционально-когнитивном словаре. Дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – 160 с.

⁴¹ Блягоз З.У. Глаголы перемещения в современном русском языке. Дисс... канд. филол. наук. – Горький, 1964. – 164 с.; Гордеев Ю.М. Поле направленности (глаголы движения и их распространители) в современном русском языке. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. Свердловск, 1971. – 51 с.; Хамидуллина А.М. Словообразовательные отношения в семантическом поле глаголов движения. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 1973. – 21 с.; Ибрагимова В. Семантическое-поле глаголов движения в современном русском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 1975. – 23 с.; Лазуткина Е.М. Семантико-синтаксический анализ глаголов локально направленного действия. Дисс... канд. филол. наук. – М., 1984; Скребцова Т.Г. Семантика глаголов физического действия в русском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – СПб., 1996 – 23 с.; Баяртуева Е.П. Фреймовая семантика глаголов оценочного действия в современном английском языке. Дисс... канд. филол. наук. – Иркутск. 2001. – 144 с.

Ingliz tilshunosligidagi tadqiqotlarda ham harakat fe'llarining semantik tahlilida uning sintaktik sathda, boshqa leksik birliklar qurshovida kelishiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada B.Levin⁴² ham fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari jumla mazmunini belgilashini inobatga olgan holda ingliz tilidagi 3000dan ortiq fe'llarning semantikasi, asosan, sintaksis, ya'ni o'zi bog'lanib kelgan so'zga bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu ingliz tilidagi fe'l leksikasini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi degan gipotezani ilgari suradi. U o'xshash sintaktik xatti-harakatga ega fe'llarni aniqlash semantik jihatdan izchil fe'l guruhlari farqlashning samarali vositasi ekanligini ta'kidlaydi va fe'l guruhlari bir yoki bir nechta umumiy ma'no komponentlariga ega bo'lgan fe'llar to'plami o'xshash xatti-harakatni ifodalash sababli paydo bo'ladi, deydi. O'xshash xatti-harakatlar semantik almashinuv (fe'l alternativi, ya'ni muqobillari)ni yuzaga keltiradi. Masalan, quyidagi jumalarga e'tibor qaratsak:

- a) *er-xotin doimo urishadi*;
- b) *er-xotin doimo bahslashadi*;
- c) *er-xotin doimo janjallashadi*.

Mazkur jumalarda *urishadi*, *bahslashadi*, *janjallashadi* fe'llari semantik alternativ (semantik almashinuv) xususiyatiga ega. Bu kabi izlanishlar ingliz tilidagi fe'l guruhlari va muqobillari leksik semantikasi va sintaksisi o'rtasidagi interfeysni ishlab chiqish uchun zamin yaratdi. Tilshunos Lutz Marten⁴³ ham Levin gipotezasini ma'qullagan holda ingliz tilidagi fe'l frazemalarini sintaktik va semantik jihatdan tavsiflaydi.

Rus tilshunosi S.Zaretskaya harakat fe'llarining quyidagi umumiy semantik xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: yo'naltirilganlik yoki yo'nalish ko'rsatmasligi; harakatlanish usuli; harakat intensivligi; harakat sifati⁴⁴. Tadqiqotchi rus tilidagi harakat fe'llarining kichik guruhi qattiq sirt yuzasida oyoqlar yordamida amalga oshadigan 10ta prefiksli harakat

⁴²Levin B. English verb classes and alternations: a preliminary investigation. Chicago: University of Chicago Press, 1993.; Levin B. Argument Structure. In: Aronoff, M. (Ed.). Oxford Bibliographies in Linguistics. New York: Oxford University Press, May 2018. Available from: <https://oxfordbibliographies.com/view/document/obo-9780199772810/obo-9780199772810-0099.xml>;

⁴³ Lutz Marten. Syntactic and Semantic Underspecification in the Verb Phrase. Thesis Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. University of London. June, 1999. ProQuest Number: 11010497.

⁴⁴ Зарецкая С.А. Семантический класс глаголов перемещения: Толкования и лексико-синтаксические свойства. Автореф. дисс... канд. филол. наук.– М., 1999. – 175 с.

fe'llari (*uḍmu* “ketmoq”, *noʻimu* “bormoq”, *boʻimu* “kirmoq”, *zaiʻmu* “kirmoq”, *npuʻimu* “kelmoq”, *yʻimu* “ketmoq”, *npoʻimu* “oʻtmoq”, *nepeʻimu* “aylanib oʻtmoq”, *oḅoʻimu* “oʻtmoq”, *nodoʻimu* “yaqinlashmoq”, *omoʻimu* “uzoqlashmoq”)ni integral tavsif nuqtayi nazaridan oʻrgandi. Keltirilgan tadqiqotlardan farqli oʻlaroq jahon tilshunosligida muayyan til (rus, ingliz, fransuz tillari) misolida ayrim maʼnoviy guruhga mansub harakat fe'llari borasida ham bir qancha izlanishlar amalga oshirilganini kuzatish mumkin.


Aytish mumkinki, bu kabi tadqiqotlar mavjud lugʻat turlarining takomillashuviga, zamonaviy elektron lugʻatlar ishlab chiqilishiga asos boʻldi, shu bilan bir qatorda kompyuter leksikografiyasi va korpus lingvistikasi borasida yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga ham zamin yaratdi⁴⁵.

Jahon tilshunosligida fe'l, harakat fe'llarining semantikasi turli jihatdan samarali tadqiq etilgan boʻlsa-da, bu boradagi ilmiy izlanishlar hali hanuz davom etmoqda. Bunga sabab, bir tomondan, jamiyatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohadadagi oʻzgarishlar dastlab tilda, aniqrogʻi, uning leksik sathida namoyon boʻlayotganligi, ikkinchi tomondan, tilga yangicha zamonaviy yondashuvlarning paydo boʻlishi bilan xarakterlanadi. Shulardan biri kompyuter matnining har bir jumlasini maʼnosini tushunib oʻqiy oladigan tabiiy til semantikasini ishlab chiqishdir. Xususan, tadqiqotchi Pasion Sandra Mari⁴⁶ fe'llarning oyoq-qoʻl harakati bilan bogʻliq xususiyatlari haqidagi dissertatsiyasida *catch* “ushlamoq” fe'lining kompyuter oʻqiy oladigan chizmasini shunday tasvirlaydi:

1.1-chizma

⁴⁵ Schuler K.K. VerbNet: a broad-coverage, comprehensive verb lexicon. 2005. Phd dissertation (Doctorate in Computational Linguistics)—University of Pennsylvania, Philadelphia; Dana Abdulrahim. A corpus study of basic motion verbs In Modern Standard Arabic. A thesis submitted to the Faculty of Graduate Studies and Research in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy, 2013.— 301 p.; Cançado M., Amaral L., Meirelles L. VerboWeb: syntactic-semantic classification of Brazilian Portuguese verb. 2017. <http://www.lettras.ufmg.br/verboweb/>.

⁴⁶ Sandra M.P. The relationship between the processes of action-related language comprehension and upper- and lower-limb movements. A thesis submitted in conformity with the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. 2021.— 275 p.



Ushbu tadqiqotning maqsadi tilni tushunish va oyoq-qo‘llarning motor harakatlari o‘rtasidagi faraz qilingan ikki tomonlama bog‘liqliklarni o‘rganish edi. Shu maqsadda dissertant tadqiqot savollariga javob topish uchun bir qator tajribalar o‘tkazadi. Natijada tilni tushunish oyoq-qo‘llarning o‘ziga xos motor harakatlariga yordam beruvchi ta’sir o‘tkazishini aniqladi.

Bundan tashqari fe‘l ma’nosini alohida tadqiq qilgan Luana Lopez Amaral inglizlar uchun VerbNet, basklar uchun BVI, ispan va katalan uchun AnCoraVerb, braziliyalik portugallar uchun VerboWeb, xorvatiyaliklar uchun CROVALLEX va chexiyaliklar uchun VALLEX kabi fe‘lning sintaktik-semantik tasnifi uchun onlayn ochiq resurs-manbalar tashkil etilganligini alohida ta’kidlaydi⁴⁷. Shulardan VerbNet fe‘llarning sintaktik-semantik tasnifi uchun mukammal onlayn resurs bo‘lib, keyingi resurslar uchun tayanch manba hisoblanadi. U B.Levin tomonidan ingliz tilidagi fe‘llarning batafsil sintaktik-semantik tavsifi va tasnifiga asoslangan⁴⁸. Mazkur manbada fe‘llar va fe‘l guruhlari haqida qimmatli ma’lumotlar mujassam.

⁴⁷ Luana Lopes Amaral Online resources for the syntactic-semantic classification of verbs: theory, methods and applications. Linguagem e Tecnologia.

⁴⁸ Karin Kipper, Anna Korhonen, Neville Ryant, Martha Palmer A large-scale classification of English verbs.// Language Resources and Evaluation. Volume 42, 2008. – P.21–40. Available from: <http://link.springer.com/10.1007/s10579-007-9048-2>. Visited on: 8 June 2022.

Tilshunoslikda fe'llarni semantik jihatdan guruhlashda Z.Vendlerning ham qarashlari keng targ'ib qilinadi. U fe'llarni semantik jihatdan to'rt turga ajratadi⁴⁹:

1) dinamik (faol harakat) va yakuniy nuqtaga ega bo'lmagan fe'llar (activity verbs): *yugurmoq, yurmoq, suzmoq, bormoq, kelmoq, qaytmoq, surmoq yoki tortmoq*;

2) statik (turg'un yoki barqaror) va yakuniy nuqtaga ega bo'lmagan fe'llar (stative verbs): *ega bo'lmoq, xohlamoq, yoqtirmoq, sevmok, nafratlanmoq, hukmronlik qilmoq, bilmoq, ishonmoq, sevmok*;

3) yakuniy nuqtaga ega bo'lgan va bir zumda amalga oshadigan ("tanish", "xabar berish") fe'llar (achievements verbs): *tan olmoq, anglamoq, aniqlamoq, yo'qotmoq, topmoq, cho'qqiga chiqmoq, poygada g'alaba qozonmoq, chegarani kesib o'tmoq, boshlamoq, to'xtatmoq va davom ettirmoq, tug'ilmoq, o'lmoq*;


4) yakuniy nuqtaga ega bo'lgan va bosqichma-bosqich erishish mumkin bo'lgan ("rasm bo'yash", "uy qurish") fe'llar (accomplishments verbs): *chizmoq, yasamoq, qurmoq, yozmoq, o'qimoq, dars bermok, darsga qatnashmoq, o'ynamoq, ulg'aymoq, tuzalmoq, tayyorgarlik ko'rmoq va hokazo*.

Z.Vendler bu leksik guruhlarini farqlash uchun diagnostikada progressiv jihatdan foydalanishni (maqsad sari harakat qilishda subyekt tomonidan muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi) ommalashtirdi; masalan, harakat va muayyan maqsad sari intilish progressiv jihatdan paydo bo'lishi mumkin (*U yugurmoqda, U rasm chizmoqda*), turg'un va tezlikda erishiladigan fe'llar esa yaqqol ko'zga tashlanmaydi (*U fransuz tilini biladi, U o'z do'stini tan oldi*). Bu boradagi Vendlerning fikr-mulohazalari hali ham sintaksis, semantika va ikkinchi tilni o'zlashtirish kabi sohalarda, zamonaviy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Tilshunos S.Kurodaning aytishicha, Vendler atamalari "o'shandan beri zamonaviy tilshunoslikning asosiy texnik lug'atiga aylangan" va ko'plab nazariyalarni ishlab chiqish va turli sohalarda "murakkab va yuqori texnologiyali" tadqiqotlarni amalga oshirish uchun hozirgi kunda ham foydalanilmoqda. Bundan tashqari

⁴⁹ Vendler Zeno. Verbs and Times. // Linguistics in Philosophy. – Ithaca: Cornell University Press, 1967. – P. 97-121.

L.Brinton Vendler tasnifiga asoslangan holda fe'llarning to'liqroq tasnifini taklif qiladi. L.Brintonning fe'l turlari quyidagi chizmada aks etgan⁵⁰:

1.2-chizma



Muallif chizmada fe'llarni dinamik va statik turlarga ajratib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini birma-bir sanab o'tadi: masalan, statik (stative) fe'llarni hissiy, aqliy va jismoniy holatlar kabi o'zgarmas vaziyatlarni ifodalashi bilan bir qatorda ularda holat turg'un, muqim ko'rinishda bo'lishi; dinamik (dynamic) fe'llarda esa harakat cheksiz davom etishi (*yurmoq, bahslashmoq*) yoki o'zgaruvchan (*o'smoq, rivojlanmoq*) shaklda ifodalanishi mumkinligi aytiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, L.Brinton *kravotda o'tirmoq* (*sitting on the bed*), *rasmga tikilmoq* (*staring at the picture*) kabi fe'llarni dinamik fe'llar guruhiga kiritisa, aynan "*o'tirmoq*" fe'lini R.Rasulov davomli holat fe'llar tarkibida izohlaydi⁵¹. Aytish mumkinki, bu kabi tillararo nomuvofiqlikni ko'plab kuzatish mumkin.

Harakat-holat semali lug'aviy birliklar semantikasining turkologiyada o'rganilishi

Lingvistik birliklar ma'nosi dastlab qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi V-III asrlarda, Qadimgi Gretsiyada va O'rta asr Yevropa an'analarda, so'ngra Uyg'onish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan tadqiq qilingan⁵². Turkiy tillarda harakat semali lug'aviy birliklar asosini faol harakat semali fe'llar tashkil etadi, shu sabab Qadimgi Hind tilshunosligida ilk bor fe'l so'z turkumi harakat va holatni ifodalovchi

⁵⁰ Brinton Laure. The Development of English Aspectual Systems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

⁵¹ Расулов, Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тизилиши. Монография. 2-нашри. – Тошкент, 2008. – Б.7.

⁵² Жеребило Т.В. Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой // *Lingua-universum*. – 2006. – № 3. – С.17-21.

soʻz sifatida qayd etilganligi til tarixidan maʼlum. Xususan, eramizning boshlarida rim tilshunosi Verriy Flakk feʼlining turli xil maʼnolari haqida yirik hajmli asar yaratgan⁵³. Keyinchalik Oʻrta Osiyo qomusiy olimlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshgʻariy kabi allomalar lugʻaviy birlik sanalgan soʻz maʼnosiga, maʼno koʻchishi masalalariga alohida eʼtibor qaratishgan. XV asrga kelib buyuk mutafakkur, oʻz davrining yetuk olimi Alisher Navoiy tilshunoslikka oid asarida harakat feʼllarini semantik jihatdan tahlil qilib, differensial-semantik metod asosida maʼno nozikliklarini qayd etgan⁵⁴. Jumladan, alloma feʼlining maʼno, shakl va qoʻllanish jihatidan forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Turkologiyada feʼl muammolarini oʻrganish yuzasidan Gʻarbiy Yevropa turkologlari (A.K.fon Gaben, X.Denis va boshqalar)⁵⁵, rus turkologlari (N.Dmitriyev, E.Tenishiyev, A.Yoʻldashev, N.Gadjiyeva, A.Kononov, E.Sevortyan va boshqalar)⁵⁶ fanga salmoqli hissa qoʻshdilar. Ayniqsa, turkiy tillardagi feʼllarning alohida leksik-semantik guruhlarini tasniflashga bagʻishlangan ishlar qatorida N.Gadjieva, E.Tenishev, V.Veshilova, E.Sevortyan, A.Yoʻldoshev, I.Qoʻchqortoyev, M.Zaynullin, S.Arnazarov, K.Kuliyev, D.Tumashev, K.Xusainov⁵⁷ kabi olimlarning

⁵³ Rasulov. R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. – B.24.

⁵⁴ Алишер Навоий Мухокаматул-луғатайн. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – 54 б. www.ziyouz.com kutubxonasi.; Нурмонов. А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 90.

⁵⁵ Bang W., Gabain A. von. Türkische Turfan-Texte I-V. Berlin: Verlag Akademie der Wissenschaften in Kommission beiWalter de Gruyter U. Co., 1929; Berlin: Verlag Akademie der Wissenschaften in Kommission beiWalter de Gruyter U. Co., 1929-1931; Deny J. principes de grammaire turque (“turk” de turquie). –Paris: Adrien Maisonneuve, 1955.– 183 p.

⁵⁶ Дмитриев Н.К. Глаголы речи в языках тюркской группы. Глаголы мышления. Глаголы действия. Глаголы движения// Очерки по методике преподавания русского и родного языка в татарской школе. – М., 1952; Тенишев Э.Р. Глаголы движения в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков.–М., 1962; Юлдашев А.А. Глаголы чувственного восприятия (verba sentienti) в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков.– М., 1962; Вещилова В.Ф. Глаголы движения в турецком языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Т. IV. Лексика. 1962; Гаджиева Н.Э., Коклянова А.А. Глаголы речи в тюркских языках // Историческое развитие лексики в тюркских языках. –М., 1962; Кононов А.Н. О глаголе *карашеваться* // Русская речь. 1973. –№1; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков.Т.1-IV. – М., 1974-1989.

⁵⁷ Гаджиева Н.З., Коклянова А.А. Глаголы речи в тюркских языках. // Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Изд-во АН СССР. 1961. – С.322-460; Тенишев Э.Р. Глаголы движения в тюркских языках. // Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С.232-294; Вещилова В.Ф. Глаголы движения в турецком языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Часть 4. Лексика. – М.: Наука, 1962.– С. 101–115; Sevortjan E.Y. Les verbtis de mouvement dans la lanque azerbaidjanaise // Acta Orientalia, T.XIV, N 1-2. –Budapest, 1962.– P.101-122; Юлдашев А.А. Глаголы чувственного восприятия в тюркских языках // Историческое развитие лексики в тюркских языках. –М.: АН СССР, 1961. – С.294-322; Кучкартаев И. Семантика глаголов речи в узбекском языке. (Компонентный и валентный анализ). Дисс. д-ра филол. наук. –Ташкент, 1978.– 355 с.; Зэйнуллин М.В. Сылымдың лексик-семантик торкемсэлэре // Хэдерге башкорт эдэби теленец морфология. 2- се кизк. –Офо, 1979. – С.8-14; Арназаров С. Глаголы речи в туркменском

tadqiqotlari alohida e'tiborga molik sanaladi. Turkologiyada fe'l semantikasi ikki yo'nalishda: fe'lning leksik-semantik guruhlari hamda fe'lning grammatik kategoriyalari jihatidan o'rganilgan⁵⁸. Biz asosiy e'tiborimizni birinchi yo'nalish, ya'ni harakat fe'llari semantikasiga qaratamiz.

Harakat fe'llari an'anaviy ravishda tirik mavjudotlar va jonsiz narsalarning jismoniy harakatini bildiruvchi fe'llar guruhi sifatida tushuniladi va bu haqda E.Leisi harakat fe'llari barcha fe'llarni o'z ichiga olishini⁵⁹ ta'kidlaydi.

Turkolog olim N.K.Dmitriyev⁶⁰ ilk bor turkiy tillardagi fe'llarning semantik guruhlarini aniqlagan. U fe'llarni to'rt guruhga ajratgan: 1) nutq fe'llari; 2) sezgi fe'llari; 3) faoliyat fe'llari; 4) harakat fe'llari. Olimning ishi, asosan, harakat fe'llariga bag'ishlangan bo'lib, uning fikricha, barcha harakat fe'llari ikki guruhga bo'linadi:

1) harakat yo'nalishini bildiruvchi fe'llar (глаголы, обозначающие направление движения): *kelmoq, ketmoq, kirmoq, bormoq, aylanmoq, chiqmoq, qaytmoq* kabilar;

2) harakat usuli (tarzi)ni bildiruvchi fe'llar (глаголы, обозначающие способ движения): *oqmoq, yurmoq, bosmoq, yugurmoq, suzmoq, sakramoq, uchmoq, yumalamoq, o'rmalamoq, sirg'anmoq, surilmoq*.

Muallif tatar tilidagi 50ta harakat fe'llarini ham xuddi shunday ikki guruhga ajratsa-da, turkiy tillardagi harakat fe'llarini harakat usuliga ko'ra farqlanmasligini ta'kidlaydi⁶¹. S.Muhamedova esa N.Dmitriyev tasnifidagi harakat usulini anglatuvchi fe'llar ichidan faqat "*bosmoq*" fe'lidan tashqari barcha fe'llarni harakat yo'nalishini bildiruvchi fe'llar qatoriga kiritish

языке (в сравнении с другими тюркскими языками юго-западной группы). Дисс. канд. филол. наук / Институт языка и литературы. им. Махтумкули. – Ашхабад, 1982.–200 с.; Кулиев Г.К. Семантика глаголов в тюркских языках. Дисс. д-ра филол. наук.– Баку, 1992. – 307 с.; Ганиев Ф.А. Семантические разряды глаголов татарского языка // Исследования по татарскому языкознанию.– Казань, 1984.– С.75-84; Тумашева Д.Г. О способе номинации пространственной характеристики глагольного действия в татарском языке // Нормативный аспект лингвистических единиц в языках различных типов.– Саратов, 1986.–С.129-141; Хусаинов К.Ш. Звукоизобразительность в казахском языке. –Алма-Ата: Наука, 1988. – 230 с.

⁵⁸ Кулиев Г.К. Семантика глаголов в тюркских языках. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Баку, 1992.– С. 44-45.

⁵⁹ Leisi, Ernst: Der Wortinhalt: seine Struktur im Deutschen und Englischen. – 5. Aufl. – Heidelberg: Quelle & Meyer, 1975. – P.44

⁶⁰ Дмитриев Н.К. Глаголы движения. Строй тюркских языков.– М.: Изд-во восточной литературы, 1962.– 606 с.

⁶¹ Дмитриев Н.К. Кўрсатилган манба. – 606 с.

taklifini beradi⁶². Ammo, biznigcha, barcha fe'llar qatorida “*bosmoq*” fe'lida ham harakat usuli, ham qisman bo'lsa-da “tepadan pastga tomon yo'nalgan harakat”, ya'ni harakatning yo'nalish semasi mavjud. Aslini olganda, turkiy tillardagi, jumladan, o'zbek tilida ham harakat fe'llarining barchasida harakat yo'nalishi bilan bir qatorda harakat usuli ham anglashiladi. Ushbu fikr-mulohazalarga aniqlik kiritish maqsadida shuni aytish mumkinki, harakat yo'nalishini bildiruvchi fe'llarning deyarli barchasida muayyan harakat (masalan: oyoq harakati) kuzatilsa-da, boshlang'ich va oxirgi nuqta o'rtasidagi yo'nalma harakat nazarda tutiladi, shu sabab bu kabi fe'llarda harakat yo'nalishi birlamchi, uning oyoq vositasida amalga oshishi, ya'ni usuli ikkilamchi o'rinda turadi. Harakat usuli (tarzi)ni bildiruvchi fe'llarda ham gorizontal yoki vertikal kabi yo'nalish semasi mavjud bo'lsa-da, u asosiy o'rin kasb etmaydi, balki harakat turlicha tarzda yuzaga kelishi birlamchi o'rinni egallaydi. Masalan: “*oqmoq*” fe'li *oqish* tarzida; “*yurmoq*” fe'li *yurish* tarzida; “*bosmoq*” fe'li *bosish* tarzida; “*yugurmoq*” fe'li *yugurish* tarzida va hakoza.

E.Tenishev ham turkiy tillardagi harakat fe'llarining o'ziga xos semantik tasnifini beradi. Semantik xususiyatlariga ko'ra harakat fe'llari ikki guruhga bo'linishini izohlaydi:

- 1) umumiy ma'noli fe'llar (глаголы общего значения);
- 2) alohida (maxsus) harakat fe'llari (глаголы частного движения).

Birinchi guruhga ma'no jihatdan antonim bo'lgan to'rtta fe'l (*bor - qayt*, *kel - ket*)ni kiritadi va ular harakatni eng umumiy, mavhum shaklda ifodalashini ta'kidaydi. Ikkinchisini esa alohida belgilariga ko'ra uch guruhga bo'ladi:

- a) harakat usulini bildiruvchi fe'llar (глаголы, указывающие на способ движения): *yormoq*, *uchmoq*, *oqmoq*;
- b) harakatdagi to'siqni yengib o'tishni bildiruvchi fe'llar (глаголы, указывающие на преодоление преграды в движении): *osh*, *kech*, *yet*;
- v) harakat tezligini bildiruvchi fe'llar (глаголы, указывающие скорость движения)⁶³: *yugur*, *qoch*, *chop*.

⁶² Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 36 б.

⁶³ Тенишев Э.Р. Глаголы движения тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков.–М.: Изд-во АН СССР, 1961.– С. 232–294.

Demak, olim umumiy ma'noli harakat fe'llari guruhiga semantik bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fe'llarni, maxsus ma'noli harakat fe'llari guruhiga esa harakatning holati va sur'atini bildiruvchi fe'llarni kiritgan. E.Tenishev turkiy tillardagi fe'lning boshqa leksik-semantik guruhlari orasida harakat fe'llarining o'rni va mavqeyini hisobga olgan holda umumiy tasnifini amalga oshirgan. Shu jihatdan uning tadqiqotini fe'llarning leksik-semantik tasnifi nuqtayi nazaridan ahamiyatli deyish mumkin.

V.Veshilova harakat fe'llarini "subyektning kosmosdagi harakatini bildiruvchi fe'llar" deb hisoblagan holda turkiy tillardagi harakat fe'llarini to'rt kichik guruhga ajratadi:

- 1) harakat usulini ifodalovchi fe'llar (глаголы способа движения);
- 2) harakat yo'nalishini ko'rsatuvchi fe'llar (глаголы направления, указывающие направление движения);
- 3) harakat usuli hamda yo'nalishini bildiruvchi fe'llar (глаголы способа и направления движения);
- 4) harakat jarayonini ifodalovchi, usuli va yo'nalishni ko'rsatmaydigan mavhum ma'noli fe'llar (глаголы отвлеченного значения, обозначающие сам процесс движения, не указывающие ни на способ, ни на направление)⁶⁴.

Ozarbayjon olimi G.Kuliyev doktorlik dissertatsiyasida harakat fe'llarini ikkita yirik LSGga ajratgan⁶⁵:

I. Predmet (inson)ning predmetga ta'sirini bildiruvchi harakat fe'llari. Bunda inson faoliyatining turli qirralarini ifodalashi, asosan o'timli fe'llar nazarda tutilishi va, o'z navbatida, quyidagi kichik leksik-semantik guruhlarga ajralishi aytiladi:

- 1) yaratish mazmunidagi harakat fe'llari: *barpo etmoq, qurmoq, yaratmoq, to'qimoq, yasamoq kabilar*;
- 2) barbod qilish mazmunidagi harakat fe'llari, bu yaratish fe'llariga zid bo'lgan fellardir: *sindirmoq, yo'q qilmoq, o'chirmoq, yirtmoq, kesmoq, parchalamoq, maydalamoq kabilar*;

⁶⁴ Вещилова В.Ф. Глаголы движения в турецком языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Часть 4. Лексика. – М.: Наука, 1962. – С.101–115.

⁶⁵ Кулиев Г.К. Семантика глаголов в тюркских языках. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Баку, 1992. – С.10-11

3) qisman o'zgarish ma'noli harakat fe'llari: *bezamoq, kiyinmoq, ta'mirlamoq, bo'yamoq, teshmoq, yamamoq* kabilar;

4) obyektga dinamik ta'sir etuvchi harakat fe'llari: *olib kelmoq, olib ketmoq, otmoq, itarmoq, tashimoq, ko'tarmoq, ko'chirmoq* va boshqalar;

5) ovqatlanish mazmunidagi harakat fe'llari: *yemoq, ichmoq, ho'plamoq, chaynamoq, yutmoq* kabilar.

II. Predmet (inson)ning fazodagi harakatini bildiruvchi fe'llar.

Bular to'rt kichik LSGga bo'lib taqiq qilinadi:

1) harakat usulini bildiruvchi fe'llarga *yugurmoq, sakramoq, emaklamoq*;

2) harakat yo'nalishini bildiruvchi fe'llarga *bormoq, ketmoq, qaytmoq, kirmoq, yo'nalmoq, uzoqlashmoq, kelmoq* kabi fe'llarni kiritadi;

3) harakatning ham usulini, ham yo'nalishini bildiruvchi harakat fe'liga ozarbayjon tilidagi "*dush*" (muqobili sanalgan o'zbek tilidagi "*tushmoq*") fe'lini misol sifatida keltirib, unda ikkalasi ham: harakat qilish usuli – oyoqlar bilan, yo'nalishi – pastga tomon harakat ham mujassam ekanligini izohlaydi;

4) harakat jarayonini ifodalovchi fe'llar: *sayr qilmoq, kezmoq, aylanmoq, aralashtirmoq* kabi fe'llar mansubligini ta'kidlaydi.

M.Usmonova⁶⁶ harakat fe'llarini tasniflashda boshqa turkiy tillardagi kabi boshqird tilida ham so'z yasalish tizimida prefiksning yo'qligi barcha turkiy tillar uchun asosiy mezon sifatida olinishini ta'kidlab, quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Yo'naltirilgan harakat fe'llari (глаголы направленного движения). Bu guruh ham tegishli ravishda kichik guruhlariga bo'lingan: 1) gorizontal harakat fe'llari (глаголы движения по горизонтали). Bular bir-biri bilan shaxsga, narsaga nisbatan qarama-qarshilikni hosil qiladi: a) ichkariga yo'nalgan harakat fe'llari; b) ichkaridan kelgan harakat fe'llari; 2) vertikal harakat fe'llari (глаголы движения по вертикали);

2. Yo'naltirilmagan harakat fe'llari (глаголы ненаправленного движения). Bular ham, o'z navbatida, quyidagi kichik guruhlariga ajratilgan: 1) umumiy ma'noli fe'llar: *yurmoq, uchmoq, suzmoq, aylanmoq*;

⁶⁶ Усманова М.Г. Функционально-семантическая классификация глаголов башкирского языка. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2002.– 212 с.

2) farqlangan ma'noli fe'llar. Bular harakat tezligi, usuli bilan farqlanadi, ya'ni graduonimiyani yuzaga keltiradigan fe'llar: *qadam tashlamoq-yurmoq-yugurmoq-yelmoq* kabi fe'llarni misol tariqasida keltiradi.

3. Tinch (muqim) holatga o'tgan fe'llar (глаголы покоя, которые соответственно подразделяются еще на подразряды): *turmoq, o'tirmoq, yotmoq, qolmoq* kabilar. Bular "uzoq vaqt harakat qilmaslik" semasi bilan doimiy harakat semali fe'llarning aksi sanaladi. Shu sababdan R.Rasulov⁶⁷ bu kabi fe'llarni holat fe'llarining davomli holat mazmunidagi LSGiga kiritadi.

Boshqa turkiy tillardan farqli o'laroq qrim-tatar tilidagi harakat fe'llari ma'nolarining ichki semantik guruhlarini batafsil tadqiq qilgan A.Memetov⁶⁸ quyidagicha tasniflagan:

1. Ovqatlanish jarayonini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия, выражающие процессы приема пищи): insonga nisbatan ishalatiladi: *аша* – *ovqatlan*; *леззетини (дамыны) корь* – *tatib ko 'r*; *кемир* – *kemir*; *ич* – *ich*; *ют* – *yut*; *чайна* – *chayna*; *къанын* – *tishla, ye*; hayvonga nisbatan ishalatiladi: *чокъула* - *tumshug`i bilan ushlamoq, yemoq*; *отла* - *o'tlamoq*.

2. Yaratish mazmunidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением созидания): *яса, къур* – *qil, bajar, yarat, qur*; *азырла* – *tayyorla (masalan, ovqat)*; *пишир* - *pishir, dimla, qaynat*; *бас* – *nashr qil, bosmadan chiqar*; *яма* - *yama*; *тюзет* – *tuzat*; *токъу* - *to'qish va boshqalar*.

3. Halokat, yo'q qilish mazmunidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением разрушения уничтожения): *боз, къыр, сындыр* – *sindir*; *ёкъ эт, къырын ташла* – *yo'q qil*; *астыны устьке чыкъар* – *teskari ag'darmoq*; *ернен ексан эт* – *yer bilan yakson qil*; *ер юзенден ёкъ эт* — *yer yuzidan yo'q qil*; *куль ол, кульге чевикриль* – *kul bo'l, yo'qol, yo'q bo'l*; *кульни кокке учур* – *kulini ko'kka sovur va hokazo*. Bular o'z ma'nosiga ko'ra yaratish fe'llariga qarama-qarshi fe'llar sanaladi.

⁶⁷ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989.– 143 б. Б.22.

⁶⁸ Меметов А.М. Семантическая классификация глаголов действия в крымскотатарском языке. // Культура народов Причерноморья, 1998. – № 5. – С. 403-406.

4. Umumiy harakatni bildiruvchi fe'llar (глаголы, выражающие действие вообще): **яса** – *yasamoq, qilmoq; аракет эт* – *harakat qilmoq va boshqalar*.

5. Qismlarga, guruhlarga, turlarga bo'lish mazmunidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением разделения на части, группы, виды): **ayir (айыр), ayril (айырыл), bo'l (боль), bo'lin (болюн); yor (яр), yoril (ярыл); sayla (сайла)**. Bu guruhdagi fe'llar o'zining lug'aviy ma'nosi va valentligi jihatidan ham ikki kichik guruhga bo'linadi: a) butunning bo'laklarga bo'linishini ifodalovchi fe'llar: **яр** – *yor; боль* – *bo'l, ajrat; айыр* – *ayir; йырт* – *yirt* va b) bir jinsdan turni tanlab olishni ifodalovchi fe'llar: **сайла** – *sayla, tanla* (kattaroq, yaxshiroq).

6. Jamlanish, bir joyda to'planish mazmunidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением соединения, сосредоточения, скопления в одном месте): **бирлештир** – *birlashtir; топла, джый* – *to'pla, yig'; дестеле* – *taxla* kabi

7. O'qish va yozish jarayoni bilan bog'liq harakat fe'llari (глаголы действия, связанные с процессами чтения и писания): **ариф таны, акъны къараны таны** – *savodli bo'lmoq, oq-qorani tanimoq; эджеле* – *bo'g'inlab o'qimoq; яз* – *yoz; окъу* – *o'qi; къол къой* – *qo'l qo'y, imzo chek* kabi. Ushbu fe'llarni L.M.Vasilyev nutqiy fe'llar deb nomlaydi⁶⁹.

8. Kurash, zarb tushunchalarini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия, выражающие борьбу, удар): **ур, топеле, ялат, яндыр** – *ur; къамыла* – *qatchi bilan ur; тён, тёнкеле, аякънен ур* – *terkila, ter; къолнен ур* – *qo'l bilan ur; сопанен* – *ur; таякънен ур* – *tayoq bilan ur; ольгендже ур* – *o'laksa qilib ur*.

9. Himoya, boshpana, yopish mazmunidagi harakat fe'llari (глаголы действия, связанные с процессом защиты, укрывания, прикрытия): **яп** – *yopmoq; бастыр* – *bostirmoq; сар* – *atrofini o'ramoq; сакъла* – *berkitmoq; ком* – *ko'tmoq; сыкъ* – *siqmoq, qismoq; къорчала* – *himoya qilmoq, qalqon qilmoq, saqlamoq va boshqalar*.

10. Vosita bilan bajariladigan harakatni ifodalovchi fe'llar (глаголы, выражающие действия, совершенные тем или иным орудием):

⁶⁹ Васильев. Л.М. Семантические классы глаголов чувства, мысли и речи. В кн.: Очерки по семантике русского глагола. – Уфа: Изд-во Башкирского госуниверситета, 1971. – С.39.

балатала – *bolta bilan harakat qilish, boltalamoq*; *пычакъла* – *pichoq bilan kesmoq*; *эгеле* – *egov bilan o'tkirlamoq, egovlamoq*; *курекле* – *belkurak bilan kuramoq*; *тырнаучла* – *xaskash bilan to'dalamoq kabi*

11. Bezash, chiroy mazmunini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия со значением украсить, отделать, придать красивый вид): *безет, орьнекле* – *bezatmoq, ajratmoq*; *йылтырат* – *yaltiratmoq*; *тюз бер, ренк бер* – *rang kirgizmoq, chiroyli ko'rintirmoq*; *нагъышла* – *naqshlamoq va hokazo*.

12. Bog'lash ma'nosidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением скрепления, стягивания): *багъла* – *bog'lamoq*; *туюмле* – *tugun qilib bog'lamoq, tugunlamoq*; *тыршавла* – *otning old oyoqlarini kishan bilan bog'lash va hokazo*.

13. Kesish mazmunini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия со значением сечения) *кес, къый* – *kesmoq, qiymoq*; *бич* – *bichmoq*; *тиль* – *tilim qilib kesmoq*; *тилимле* – *tilimlamoq*; *къыскъарт* – *qisqartmoq va boshqalar*.

14. O'rnatmoq, tartibga solmoq ma'noli harakat fe'llari (глаголы действия со значением уладить, упорядочить): *тертинке кетир, тертинке туюшир, низамгъа къой* – *tartibga solmoq, tizimga keltirmoq*; *ёлгъа къой* – *yo'lga qo'yumoq, tuzatmoq*; *дестеле* – *taxlamoq*; *тиз* – *tizmoq, tartibga keltirmoq*; *тюзет* – *tuzatmoq, to'g'rilamoq va boshqalar*.

15. Biriktirish, qo'shish ma'nosidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением соединения, сложения): *къарыштыр* – *aralashtirmoq, qorishtirmoq*; *къош* – *qo'shmoq*; *бириктир* – *biriktirmoq*; *чокълаштыр* – *ko'paytirmoq va hokazo*.

16. Surtish mazmunini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия, употребляющиеся в значениях нанести, наложить, накладывать одно на другое, покрывать слоем чего-либо и т.д.): *якъ* – *moylamoq, surtmoq*; *яныштыр* – *yelimla, yopishtir*; *ягъла* – *yog'la*; *сабунла* – *sovun bilan ishqala, sovunla*; *бояла* – *bo'yamoq*; *сюрмеле* – *surma qo'yumoq va hokazo*

17. Harakatning boshlang'ich yoki yakuniy bosqichini bildiruvchi fe'llar (глаголы, выражающие начальную или конечную фазу

действия): *битиp, сонъуна еткиз* – *bitirmoq, oxiriga yetkizmoq*; *баишлa, ишке кириш* – *ish boshlamoq, ishga kirishmoq* kabilar.

18. Tozalash jarayonini aks ettiruvchi harakat fe'llari (глаголы действия, отражающие процессы чистки, очищения, освобождения от верхнего слоя): *артла* – *tozalamoq*; *юв* – *yuvmoq*; *ялап таишлa, ялап къой* – *yalab tashlamoq, yalab qo'ymoq*; *сюрт* – *o'chirmoq*; *темиэле* – *tozalamoq*; *чайкъа* – *chayqamoq, yuvmoq* va boshqalar.

19. Buklash va tekislash jarayonini ifodalovchi harakat fe'llari (глаголы действия, выражающие процессы свертывания и разглаживания): *букле* – *buklamoq*; *бурмеле* – *burmalamoq, burmalar hosil qilib taxlamoq*; *джай* – *yoymoq*; *джый* – *yig'moq*; *бук* – *egmoq, bukmoq* (masalan, tizzalarni); *къайыр* – *qayirmoq* (masalan, qo'lni); *котер* – *ko'tar* (masalan, poldan); *тёше* – *to'shamoq* (masalan, to'shak); *черем* – (yeng) *shimarmoq* va boshqalar.

20. Harakat erkinligidan mahrum qilish mazmunini ifodalovchi fe'llar (глаголы действия со значением лишить свободы движения, действия, лишить возможности действовать свободно, заставить поступать в зависимости от чего-либо, а также с противоположить): *къанат* – *qulflamoq*; *тыкъ* – *qatamoq, qatomoqqa tashlamoq*; *къамала* – *o'rab olmoq, qamal qilmoq*; *килитле* – *qulflamoq*; *чез* – *yechmoq*; *бошат* – *bo'shatmoq*; *джибер* – *qo'yib yubormoq*; *къутар* – *qutqarmoq, xalos etmoq*; *азат эт* – *ozod etmoq* va hokazo

21. Mashg'ulotni bildiruvchi harakat fe'llari (глаголы действия, обозначающие занятия тем или иным ремеслом): *авла* – *ovlamoq*; *авгъа чыкъ* – *ovga chiqmoq*; *богъдай орко* – *bug'doy o'rmoq, bug'doy yig'moq*; *ер сюр* – *yerni haydash*; *башакъларны джый* – *boshmoq to'dalamoq*; *сач* – *ek* va boshqalar.

22. Qazish ma'nosidagi harakat fe'llari (глаголы действия со значением рыть): *къаз* – *qazmoq*; *ой* – *o'ymoq, chuqur qilmoq*; *теренлеиштиp* – *kovlamoq, qazimoq* va hokazo.

23. Belgi ifodalovchi harakat fe'llar (глаголы действия со значением метить, пометить, отметить каким-нибудь знаком, надписью, цифрой): *бельги къой, бельгиле, нищанда, нишан къой* – *belgilamoq, belgi*

qo‘ymoq, belgilamoq; тамға қўй, тамғала – tamg‘a qo‘ymoq; номерле – nomerlamoq kabi.

Yuqoridagi tasnif asosida o‘zbek tilidagi harakat konsepti mavjud fe’llarni leksik mavzuviy to‘da (LMT) hamda leksik mazmuniy guruh (LMG)larga ajratish mumkin bo‘ladi. Natijada bu kabi tasniflar harakat konseptli leksik birliklarning LMT va LSGlari asosida o‘zbek tilidagi fe’llarning semantik lug‘atini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Turkologiyada harakat fe’llarining LMT va LSGlari turli tizimli tillar asosida qiyosiy yo‘l bilan ham o‘rganildi. Xususan, keyingi yillarda harakat fe’llarining qardosh tillarni chog‘ishtirish asosida qilingan tadqiqotlar qatoriga Z.Siddiqovning o‘zbek va turk tillarida ko‘ruv leksemalari (2000), J.Shabanovning turk va o‘zbek tillarida faol harakat fe’llarining semantikasiga oid izlanishlarini (2004) keltirish mumkin.

Z.Siddiqov K.Rahmonberdiyevning “O‘zbek tilida ko‘ruv tuyg‘usini ifodalovchi fe’llar” mavzusida nomzodlik dissertatiyasi (1969) hamda G.Sultonxo‘jayevaning “Nigoh fe’llari sinonimiyasi” sarlavhali maqolasi (1985) asosida o‘zbek va turk tillaridagi “ko‘rish” semasi bilan bog‘liq bir qator leksemalarni qiyosiy tahlil qildi ⁷⁰. Olim ko‘ruv leksemalari semantikasi misolida o‘zbek tilidagi “*ko‘rmoq*”, “*qaramoq*”, “*boqmoq*” va turk tilidagi “*bakmak*”, “*görmek*” (“qaramoq” leksemasi turk tilida qo‘llanilmaydi) leksemalarining ba’zi o‘rinlarda bir xil ma’nolarini ifodalashi hamda har ikki tilning izohli lug‘atlarida aks etmagan yangi ma’nolarini aniqlabgina qolmay, balki bir oilaga mansub o‘zbek va turk tillarining bir butunligi hamda so‘nggi uzoq tarixiy taraqqiyot davrida ular orasida sezilarli semantik farqlarning yuzaga kelganligini ko‘rsatib bergan. Ta’kidlash joizki, dissertant o‘zbek tilida “*ko‘rmoq*” fe’lining yigirma to‘qqizta, uning turk tilidagi ekvivaliyenti bo‘lgan “*görmek*” fe’lining yigirma beshta ma’no turini sanaydi va, shu bilan bir qatorda, ikkala fe’lning yigirma bitta ma’nosi bir-biri bilan muvofiq kelishini misollar bilan izohlaydi.

Dj.Shabanov dissertatsiyasida o‘zbek va turk tillaridagi *ketmoq/gitmek, kelmoq/gelmek, chiqmoq/çikmek, kirmoq/girmek,*

⁷⁰ Сиддиқов З. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. док.... дисс. – Тошкент, 2000. – Б.9.

yurmoq/yürümek, bormoq/varmak faol harakat fe'llari qiyosiy jihatdan o'rganilib, leksik-semantik xususiyatlari sistem leksikologiya nuqtayi nazardan tadqiq etilgan va har ikki tilga xos umumiy va xususiy ma'nolari, muqobil leksik variantlari aniqlangan⁷¹.

Bugungi kunga kelib ham tilshunoslikda harakat semali lug'aviy birliklar, xususan, harakat fe'llari semantikasiga doir ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, tadqiqotchi N.Tidikova⁷² ning barcha turkiy tillar uchun "bobo til" sanalgan oltoy tili va shu tildagi harakat fe'llarining leksik-semantik guruhi haqidagi maqolasida "harakatlanmoq" fe'li harakat fe'llarining LSGidagi leksik birliklarni birlashtiruvchi leksema guruhining semantik dominantini jyp - "*yurmoq, bormoq, ketmoq, harakatlanmoq*" (ходить, идти, ездить, двигаться) fe'li bo'lib, unda butun guruh semantikasi ifodalanishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi harakat fe'llarining tasnif belgilari orasida eng muhim xususiyati harakat yo'nalishi ekanligini hisobga olgan holda A.Chugunekova⁷³ va V.Barys-Khoolarning⁷⁴ tasniflariga tayanib, oltoy tilidagi harakat fe'llarini ikki guruhga ajratgan:

1.Yo'naltirilgan harakat fe'llari (глаголы направленного действия).

2.Yo'naltirilmagan harakat fe'llari (глаголы ненаправленного действия).

Yo'naltirilgan harakat fe'llarini ham ichki semantik guruhlarga bo'ladi:

1) gorizontal tekislikda (в горизонтальной плоскости): *бар - bormoq, ketmoq, кел - kelmoq, manzilga yetmoq, жуукта - yaqinlashmoq, jem – yetmoq*;

2) vertikal tekislikda (в вертикальной плоскости): *чык – yuqoriga chiqmoq (masalan, daraxtga, zinadan), көдүр - ko'tarmoq, көдүрүн - ko'tarilmoq, өрөлө - ko'tarilmoq (balandga, yuqoriga) chiqmoq, кармактан – tirmashib chiqmoq, түйш - pastga tushmoq* kabi.

⁷¹ Шабанов Д.К. Турк ва ўзбек тилларида фаол ҳаракат феълларининг семантикаси. Филол. фан. док.... дисс. – Тошкент, 2003.– Б.5.

⁷² Тыдыкова Н.Н. О лексико-семантической группе глаголов движения в алтайском языке // Гуманитарные наук, 2021. – №10. – С. 100-104.

⁷³ Чугунекова А. Н. Глаголы движения и формируемые ими модели простого предложения: на материале хакасского языка. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Новосибирск, 1998. – 155 с.

⁷⁴ Барыс-Хоо В.С. Лексико-семантическая группа глаголов движения в тувинском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2006. – 21 с.

Yo‘naltirilmagan harakat fe‘llari esa quyidagi kichik guruhlardan iborat: umumiy ma‘noli harakat fe‘llari va farqlangan ma‘noli harakat fe‘llari. Yo‘naltirilmagan umumiy ma‘noli harakat fe‘llari predmetning yerda, suvda, havoda harakatlanishi kabi ma‘lum muhitdagi harakat ma‘nosini bildiruvchi fe‘llarni qamrab oladi. Farqlangan ma‘noli fe‘llar tarkibiga harakat xususiyatlarini aks ettiruvchi leksemalar, asosan, harakat tezligi va harakat usulini ifodalovchi fe‘llar kiradi.

Aytish joizki, oltoy tillari oilasidagi harakat fe‘llari barcha turkiy tillar oilasidagi harakat fe‘llarining leksik-semantik guruhlarini tavsiflash, fe‘llarning semantikasi haqidagi bilimlarning butun majmuasini ochish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, turkologiyada bugungi kungacha harakat fe‘llarining leksik-semantik guruhi (LSG) turli miqdordagi leksik birliklarni o‘z ichiga olgan va ularni tasniflash turlicha yo‘llar bilan amalga oshirilgan.

O‘zbek tilshunosligida harakat-holat semali lug‘aviy birliklar semantikasiga doir tadqiqotlar

O‘zbek tili semantikasi semasiologiya negizida shakllandi, nazariy asoslari ishlab chiqildi ⁷⁵. Keyingi yillardagi leksikologiyaga oid izlanishlarda, xususan, lug‘aviy birliklar tadqiqida semantik tahlillarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Lug‘aviy birliklar ikki jihatli til birliklari hisoblanadi. Ikki jihatli til birliklar ham ifoda, ham mazmun planiga ega bo‘ladi. Lug‘aviy birliklar semantikasida shakl va mazmun birligidan tashqari, lisoniy ong, idrok, tafakkur, mental leksikon, madaniy munosabatlar bilan belgilanuvchi semantik mundarija ham mavjud bo‘ladi. Shu bois semantik tahlillarda kognitiv bilim, pragmatik yondashuv, lingvokulturologik tamoyillar talab etiladi. Lug‘aviy birlik deyilganda tilning lug‘at boyligini tashkil etadigan mustaqil lug‘aviy ma‘no anglatuvchi til birliklari nazarda tutiladi⁷⁶. So‘zga ma‘no jihatidan teng keladigan barcha birliklar: leksema, frazema, tasviriy ifoda (parafraza), qo‘shma so‘zlar lug‘aviy birliklar sanaladi.

⁷⁵ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – Б.36.

⁷⁶ Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – Б.56.

Til tarixiga nazar tashlasak, hozirgi kungacha o‘zbek tilida harakat-holat semali lug‘aviy birliklar turli sathlarda: morfologik, leksikologik, semasiologik (semantik) nuqtayi nazardan o‘rganilganligini hamda bunga ko‘plab tadqiqotchilarda qiziqish uyg‘onganligining guvohi bo‘lamiz. Dastavval, harakat-holat semali lug‘aviy birliklar, asosan, turkum jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, XX asr boshlarida tilshunos olim Abdurauf Fitrat ham o‘zbek (“turkcha” nomi bilan keltiradi) tilidagi fe’l so‘z turkumiga turkum sifatida yondashadi. U fe’lning barcha grammatik kategoriyalarining har biriga alohida to‘xtaladi, olimning bu boradagi ayrim fikrlari hali o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotmagan, ayniqsa, fe’lning shaxs-son, nisbat va bo‘lishli-bo‘lishsizlik shakllari haqidagi mulohazalari⁷⁷ alohida e’tiborga molik.

O‘zbek tilida fe’l so‘z turkumini fundamental tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Jumladan, shu yilllar oralig‘ida tilshunos olim Ayub G‘ulomovning “Fe’l” kitobi nashrdan chiqdi. Ayub G‘ulomov va Sodiq Ferdauslardan keyin fe’l mavzusi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar, monografiyalar, o‘ttizga yaqin ilmiy maqolalar muallifi hamda sinchkov “fe’lshunos olim” sifatida tanilgan Azim Hojiyev 1960-yilda “Hozirgi zamon o‘zbek tilida fe’lning hozirgi zamon shakllari” mavzusida nomzodlik, 1968-yilda esa “O‘zbek tilida to‘liqsiz fe’l” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi hamda 1973-yilda ikkala tadqiqot umumlashtirildi: “Fe’l” sarlavhasi ostida monografiyasi nashrdan chiqdi.⁷⁸ Unda fe’llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘linadi: 1) mustaqil fe’llar, 2) yordamchi fe’llar. Mustaqil fe’llar harakatning obyektga bo‘lgan munosabatiga qarab ikki guruhga bo‘linadi: a) obyektli fe’llar, b) obyeksiz fe’llar⁷⁹. Muallif obyektli fe’llar deganda o‘timli fe’llarni, obyeksiz fe’llar deganda esa o‘timsiz fe’llarni nazarda tutadi. Bundan tashqari monografiyada fe’l yasalishi, fe’lga xos grammatik kategoriyalar o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bayon etiladi. Natijada bu davrda fe’l so‘z turkumiga oid tadqiqotlar morfologik sath nuqtayi nazaridan atroflicha o‘rganildi.

⁷⁷ Курбонова М.М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 1997. – Б. 28-30.

⁷⁸ Madvaliyev A. O‘zbek tilshunosligining yorqin namoyandasi // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Тошкент, 2018. – №6. – Б.5.

⁷⁹Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.– Б.4.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk bor leksikologiya alohida bir bo‘lim ekanligi, uning o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan munosabati belgilandi⁸⁰. O‘sha davrda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobining leksikologiya qismi Faxri Kamol tomonidan yozildi. So‘zlarning leksikosemantik guruhlari haqida ilk bor ma’lumot berildi, ma’no kategoriyasi atamasi kiritildi va bu atama ostida polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari o‘rganildi⁸¹. Shuningdek, Faxri Kamol so‘zlarning ko‘chma ma’nolari haqida boshlang‘ich ma’lumot bergan bo‘lsa, T.Aliqulov, M.Mirtojiyevlar ko‘chma ma’no turlari, ularning hosil bo‘lish yo‘llari muammolarini yoritdilar⁸². T.Aliqulov, M.Mirtojiyevlarning polisemiyaga oid monografik tadqiqotlari yuzaga keldi⁸³.

O‘zbek tilshunosligida fe‘l, undagi harakat va holat semalari haqida tadqiqotchi-olimlar o‘rtasida turlicha talqinlar mavjud: “fe‘l harakat yoki holatni ifodalovchi so‘z turkumidir”⁸⁴; “Harakat so‘zining grammatikada keng ma’noda qo‘llanilganligidan holat ma’nosi ham shuning ichiga kiritilib, “fe‘l – harakat bildiradigan so‘z turkumi”⁸⁵, “harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlar fe‘l deyiladi”⁸⁶ degan ta’riflar berildi; “fe‘llar shaxs va predmetlar harakatini ifodalash bilan birga, turlicha holatni, belgining o‘zgarishini ham harakat tarzida anglatadi: *daraxt ko‘kardi, o‘rik gulladi, ukam uxladi kabi*”⁸⁷.

XX asrning 70-80-yillarida yaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘zbek ma’noshunosligidagi yangi davrni boshlab berdi⁸⁸. Ular orasida

⁸⁰ Абдурахмонов Ғ.А. Ҳозирги замон ўзбек тили (лексикология. фонетика. графика ва орфография. морфология). – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1957. – 391 б.; Ғуломов А.Ғ. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Тошкент: ЎзССРФА, 1954. – 53 б.; Нурмонов А. Ўзбек тилшunosлиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

⁸¹ Ҳозирги узбек адабий тили. I. Фонетика, Лексикология, Морфология. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.114-149.

⁸² Нурмонов А. Ўзбек тилшunosлиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.185.

⁸³ Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Тошкент: 1966; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975; Кобулжонова Г. Ўзбек тилида метафоранинг лингвистик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Суюнова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 2001.

⁸⁴ Абдурахмонов Ғ.А. Ҳозирги замон ўзбек тили (лексикология. фонетика. графика ва орфография. морфология). – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1957. – Б.377-378.

⁸⁵ Абдурахмонов Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 446 б.

⁸⁶ Абдурахмонов Ғ. Кўрсатилган манба. – Б.325.

⁸⁷ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 3

⁸⁸ Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1974. – №1. – Б. 51- 53; шу муаллиф. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш тажрибасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №4. – Б.54-60; Қўчқортюев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977.

R.Yunusov, S.G'iyosov, A.Salkalamanidze, B.Jo'rayev, R.Safarova, M.Narziyeva singari tadqiqotchilarning izlanishlari alohida ajralib turadi⁸⁹. Xususan, X.Ne'matov va A.Salkalamanidzelar fe'llarning semantik-sintaktik guruhlarini ajratishda faqat ularning obyekt munosabatlarini hisobga olish zarurligini qayd etadilar⁹⁰. Unda turkiy tillarda fe'lning o'timli va o'timsizligi morfologik emas, aynan leksik kategoriyadir, deyiladi. O'timsiz fe'llarni medial (oraliq, vosita) va medial bo'lmagan fe'llarga ajratiladi. O'timsiz medial (vosita) fe'llarda boshqariladigan predmet bo'lmaydi, balki predmet holati tabiiy yo'l bilan o'zgaradi. Masalan: *ko'ylak quridi, kiyim quritilgan, barglar sarg'aydi* (S₁-V₁) kabi.

O'timsiz medial (vosita) bo'lmagan fe'llar esa o'z navbatida ikkita kichik guruhga bo'linadi: 1) harakat fe'llari: *kel, yot, tur, yur, yugur, bor, ket* va boshqalar; 2) aqliy, his- tuyg'u, ruhiy holat fe'llari: *quvon, kul, qo'rq, yig'la, ishon, sig'in, sajda qil* kabilar. Bu ikki fe'l guruhlarining umumiy jihati shundaki, muayyan bir harakat-holatni bajarishda subyekt faol ishtirok etadi, muayyan voqea-hodisani boshidan kechiradi: *Kozim keldi* (S₁ - V₁); *Biz sizga ishonamiz* (S₁ - O₁ - V₁).

O'timli fe'llar ham ikkita kichik guruhga ajratiladi: 1) o'timli – refleksiv fe'llar (subyektning manfaati uchun bajariladigan harakat): *ko'r, ich ye, qo'y*; 2) o'timli – refleksiv bo'lmagan fe'llar (subyektdan boshqa shaxs manfaati uchun bajariladigan harakat): *Salimaga xat yozmoq, kitobni Lolaga bermok* kabi.

O'timli – refleksiz fe'llarning o'zi ham a) o'timli – natijali (*och, bo'ya, kes, yoy kurash*) va b) o'timli –natijasiz refleksiv bo'lmagan fe'llar (*sot, ber, ol, ayt, uzat*)ga bo'linishi aytiladi. Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin.

1.3-chizma

⁸⁹ Джураев Б. Структурно-семантическое исследование многозначных слов современного узбекского языка. Автореф. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985; Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1983; Рахматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент, 1974.– №1. – Б. 51-53.

⁹⁰ Нигматов Х.Г., Салкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке // Советская тюркология. – Баку, 1979. – №3. – С. 48-57.



Darhaqiqat, fe'lning o'timli yoki o'timsizligi bevosita nisbat kategoriyasi bilan bog'liqligi sabab bu nisbatlanish harakat ma'nosini holat semali fe'lga aylantiradi (*bo'yamoq-bo'yalmoq*) yoki aksi – holat semasini harakat semali fe'lga o'zgartiradi (*oqarmoq-oqartirmoq*). Aynan bu fikr fe'ldagi o'timli va o'timsizlikning fe'l arxisemasi (harakat yoki holat semasi)ga o'z ta'sirini o'tkazishi uni morfologik kategoriya emas, balki leksik-semantik kategoriya deyishimizga asos bo'la oladi.

A.G'ulomov fe'lga harakat yoki holatni ifodalovchi so'z turkumi sifatida yondashib, undagi bu leksik xususiyat ikki guruhga: harakat fe'llari va holat fe'llariga ajratilishiga asos bo'lishini isbotlaydi⁹¹. Olim harakat fe'llariga dinamik xususiyat aniq sezilib turgan *yugurmoq*, *o'qimoq*, *yurmoq* kabi fe'llarni kiritadi; *eshitmoq*, *eslamoq*, *qarimoq* kabi fizik hodisalarni holat fe'llari deb hisoblaydi.

A.Hojiyev fe'l so'z turkumiga harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlar deya ta'rif bergan holda uning zamirida *uxlamoq*, *yotmoq*, *turmoq* kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni; *qo'rqmoq*, *cho'chimoq*, *zavqlanmoq*, *qadrlanmoq* kabi fe'llar bildiradigan psixik o'zgarishlarni; *gullamoq*, *o'smoq* kabi fe'llar bildiradigan biologik jarayonlarni va shu kabi sememalar mavjudligini ta'kidlaydi. Olim "grammatikada harakat tushunchasi juda kengligi"dan kelib chiqqan holda harakatni umumiy tarzda barcha fe'llarga xos deb hisoblaydi⁹². Shu sababli u fe'llarni harakat va holat semali fe'llarga ajratmagan, ammo monografiyasida o'zbek tilidagi ko'plab fe'llarning tahlili bilan bir qatorda ularning yasalishi, muayyan

⁹¹ Гуломов А. Фейл. Ҳозирги ўзбек тилидан материаллар. – Тошкент: ЎзССРФА, 1954. – Б.3.

⁹² Ҳожиёв А. Фейл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.4.

grammatik shakllarni qabul qilishi, o'zni bilan semantikasi haqida ba'zi fikrlarni bergan.

M.Sodiqova turkolog olimlar ishlarini kuzatar ekan, ularning tadqiqotlarida fe'lning mazmuniy guruhlari sonini ko'plab kichik mazmuniy guruhlariga bo'lib o'rganilganligini alohida qayd etadi va bu haqda shunday deydi: “..Avval fe'llarni ikki katta gruppaga: harakat va holat fe'llari gruppasiga ajratib, so'ng ularni o'z ichida yana mayda gruppalariga ajratgan holda tekshirish zarur”⁹³. Xuddi shu mazmunda S.Muhamedova ham holat fe'llaridan qolgan hamma fe'llarni harakat arxisemasiga ega semantik maydonni tarkib toptiradi, deb qaraydi⁹⁴. Ammo professor M.Mirtojiyev S.Muhamedova e'tiborda tutgan fe'llar ichida nutq fe'llari, sezgi fe'llari, mushohada fe'llari ham borki, ular alohida semantik maydon sifatida qaralmay iloji yo'q”, deydi⁹⁵. Boshqa bir o'rinda S.Muhamedova doktorlik dissertatsiyasida X.Ne'matov va A.Salkalamanidzellar maqolasida *yashamoq, yotmoq, tutamoq, o'tirmoq, yonboshlamoq* kabi holat fe'llarining harakat fe'llari sifatida talqin etilganligini, ammo harakat semali fe'llar sirasiga *kasallanmoq, sog'aymoq, qarimoq, yosharmoq* kabi holat fe'llarini qo'shib yuborishganini alohida qayd etadi. S.Muhamedova ishida fe'llar bosh ma'nosiga ko'ra, avvalo, harakat, so'ng holatni anglatishi, dissertatsiya tadqiqot obyekti sifatida dinamik-faol harakat semali fe'llar olinganligi ta'kidlanadi. Olima dinamik harakat fe'llari guruhiga borliqda harakatlana oluvchi jismlarning muayyan o'zgarishga uchraydiganlarni, ya'ni o'z o'zni va holatini o'zgartirishi, harakat sodir etilishi natijasida o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirishi nazarda tutilgan birliklarni kiritgan⁹⁶.

R.Rasulov doktorlik dissertatsiyasida holat fe'llarining 9ta leksik-semantik guruhini qayd etadi⁹⁷, ammo keltirilgan misollarning barchasida qisman bo'lsa-da, harakat semasi mavjudligini payqash mumkin: 1) davomli holat fe'llari: *turmoq, o'tirmoq*; 2) harakat natijasi bo'lgan holat

⁹³ Содиқова М. Феъл стилистикаси. — Тошкент: Фан, 1975. — Б.57.

⁹⁴ Миртожиев, М.М. Ўзбек тили семасиологияси. — Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. — Б. 53.

⁹⁵ Миртожиев М.М. Қўрсатилган асар. — Б.53.

⁹⁶ Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги.— Тошкент: Фан, 2005. — Б. 46.

⁹⁷ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. —Тошкент: Фан, 1989. —142 б.

fe'llari: *yorishmoq, qoraymoq*; 3) ijro holati fe'llari: *saqlamoq, poylamoq*; 4) harakatning holatini ifodalovchi fe'llar: *kuchaymoq, pasaymoq*; 5) malaka holati fe'llari: *odatlanmoq, o'rganmoq*; 6) obrazli holat fe'llari: *alangalamoq, gavgalanmoq*; 7) biologik holat fe'llari: *keksaymoq, suvsamoq*; 8) fiziologik holat fe'llari: *uxlamoq, charchamoq*; 9) psixik holat fe'llari: *o'ng'aysizlanmoq, qo'rqmoq* kabilarning aksariyatida, jumladan, *turmoq, o'tirmoq, poylamoq, alangalamoq* fe'llarida shaxsning muayyan tana a'zolari harakati semasi mujassam. S.Muhamedova ta'biri bilan aytgan-da, bosh ma'nosiga ko'ra avvalo harakatni ifodalab kelgan, chunki ular muayyan harakat natijasida "o'z o'rni va holatini o'zgartirgan"⁹⁸.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, fe'llarni ma'no jihatdan faqat ikkita yirik guruhga: harakat va holat fe'llariga bo'lib tadqiq etish, bizningcha, turkiy tillar, xususan, o'zbek tili uchun ham maqsadga muvofiq emas. Bunga kuzatishlar natijasida quyidagi sabablarni asos sifatida keltirish mumkin:

Birinchidan, bu holatni, ya'ni fe'llarning ikkita yirik guruhga: harakat va holat fe'llariga ajratilishini ishimizning birinchi paragrafida nomlari tilga olingan turkolog olimlardan N.Dmitriyev, V.Veshilova, E.Tenishev, G.Kuliyev, A.Memetov, hatto A.Chugunekova va V.Barys-Khoolarning ishlarida ham uchratmadik.

Ikkinchidan, fe'llarni semantik maydon nuqtayi nazardan ham ikkiga: harakat yoki holat arxisemali fe'llarga ajratib bo'lmaydi. Chunki ba'zi harakat fe'llari nisbat shaklini olishi natijasida holat semali fe'lni yoki holat fe'llari harakat semali fe'lni hosil qilishi mumkin. Oqibatda harakat yoki holat semasi muayyan semantik maydon uchun arxisema maqomidan chetlashadi. Bu borada tilshunos olim M.Mirtojiyev nemis olimi M.Filipning quyidagi fikrlarini keltiradi: "...bu arxisema, genetik sema sifatidagi barcha birliklarga taalluqlidir"⁹⁹.

Uchinchidan, denotativ semada harakat fe'llarida muayyan bir harakat-hodisa ma'nosi aniq ko'zga tashlanadi, ammo konnotativ semada harakat ma'nosi umuman anglashilmaydi. Qiyoslang: *amakim keldi; xayolimga bir fikr keldi*.

⁹⁸ Мухамедова С.Х. Қўрсатилган манба.– Б.46.

⁹⁹ Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – Б.53.

Demak, harakat va holat semalari nisbiy tushunchalar hisoblanib, ular fe'lni semantik jihatdan guruhlarga ajratib tadqiq etishda asosiy mezon bo'la olmaydi, qolaversa, o'zbek tilini o'qitish jarayonida ham bir qator qiyinchiliklar, chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Chunki fe'lning aksariyat qismida harakat semasi mujassam, harakat natijasida holat semasi vujudga keladi¹⁰⁰.

Fe'llarda, asosan, harakat semasi ifodalanadi. Holat bildiruvchi fe'llarda ham nisbatan harakat semasini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra fe'llarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq: 1. Bevosita kuzatiladigan harakat fe'llari. 2. Bevosita kuzatilmaydigan harakat fe'llari.

O'zbek tilshunosligida harakat semali fe'llar tadqiqiga nazar tashlar ekanmiz, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab harakat fe'llari leksik-semantik jihatdan alohida o'rganilganligini ko'rish mumkin. Xususan, K.Xoliqov tadqiqotida turkolog olim E.Tenishev¹⁰¹ tasnifiga tayangan holda harakat fe'llarini leksik-semantik jihatdan dastlab ikki katta guruhga: umumiy ma'noli harakat fe'llari (глаголы с общим значением) hamda alohida, ya'ni xususiy ma'noli harakat fe'llari (глаголы с частным значением)¹⁰²ga ajratadi. Bular o'z ichida yana kichik guruhlarga ajratib tekshiriladi.

M.Sodiqova esa o'zbek tilidagi harakat fe'llarini to'rt guruhga ajratadi: 1) oyoq harakati bilan bog'langan fe'llar; 2) qo'l harakati bilan bog'liq fe'llar; 3) imo-ishora fe'llari; 4) nutqiy fe'llar¹⁰³

I.Qo'chqortoyev harakat fe'llarini uch guruhga ajratgan holda biroz farqli tasniflagan: 1) jismoniy harakat fe'llari; 2) aqliy harakat fe'llari; 3) nutqiy harakat fe'llari¹⁰⁴.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida lug'at tarkibini sistem-struktur jihatdan tadqiq etish, lisoniy birliklarni mazmuniy maydon asosida

¹⁰⁰ Bu fikr 1-paragrafda ham ta'kidlangan.

¹⁰¹ Тенишев Э.Р. Глаголы движения тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Изд-во АН СССР 1961. – С. 232–294.

¹⁰² Халиков К. Глаголы движения в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967.

¹⁰³ Содикова М. Фейл стилистикаси. –Тошкент: Фан, 1975. –Б. 57.

¹⁰⁴ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977.– 168 б.; Кучкартаев И. Семантическая классификация глаголов в узбекском языке. – В кн.: «Актуальные вопросы русской и узбекской семасиологии». – Ташкент: ТашГУ, 1981. – С.19-31.

o‘rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar yaratildi¹⁰⁵. O‘zbek tilining mukammal semantik lug‘atini ishlab chiqish fe’llarning matn tarkibidagi turli xil semema (ma‘noviy guruh)larini kichik-kichik semalarga ajratishni talab qiladi. Shu sabab keyingi tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek tilshunosligida harakat semali fe’llarning kichik leksik-semantik guruhlari va harakatini ifodalovchi alohida leksemalarni o‘rganish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilganligining guvohi bo‘lamiz. Xuddi shu yo‘sinda T.Musayevning o‘zbek tilida sezgi fe’llari, O‘.Sharipovanning yumush fe’llarining ma‘no valentliklari, S.Muhamedovanning yo‘nalma harakat fe’llarining predikativligi va valentligi mavzusida nomzodlik hamda o‘zbek tilida harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyalari, G.Narimova o‘zbek tilida fe’llarning obyekt argumenti, G.Isaqovanning o‘zbek tilidagi “qilmoq” fe’lining leksik-semantik xususiyatlari mavzusida nomzodlik ishlari yaratildi¹⁰⁶.

T.Musayev nomzodlik dissertatsiyasida sezgi fe’llarini oltita LSGlarga ajratadi:

- 1) sezmoq fe’li atrofida birlashuvchi fe’llar: sezmoq, his qilmoq, payqamoq;
- 2) ko‘rish sezgisi fe’llari: ko‘rmoq, qaramoq, tikilmoq kabilar;
- 3) eshitish sezgisi fe’llari: eshitmoq, tinglamoq, quloq solmoq va boshqalar;
- 4) hid sezgisi fe’llari: hidlamoq, iskamoq va boshqalar;
- 5) ta‘m sezgisi fe’llari: totimoq, yalamoq kabilar;
- 6) tusmol fe’llari: paypaslamoq, tusmollamoq va boshqalar;

¹⁰⁵ Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Тожиматов Х. Сифат семемаларининг реаллашувида контекст. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

¹⁰⁵ Гак В.Г. К проблеме семантической синтагматики // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1972. – С. 367-395.

¹⁰⁶ Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1992. – 145 б.; Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 152 б.; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; шу муаллиф. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2005. – 122 б.; Наримова Г.А Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – 129 б.; Исақова Г.Н Ўзбек тилидаги қилмоқ феълининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. –127 б.

Bundan tashqari dissertant ishida sezgi fe'llarining agens, obyekt, lokalis, adresat va kontragent kabi semantik valentliklarni aniqlab, ulardan agens, obyekt, lokalis valentliklari sezgi fe'llari uchun obligator sanalishini qayd etadi¹⁰⁷.

O'.Sharipova tadqiqotida harakat fe'llari uch guruhga: yumush, kechim va davomiy fe'llarga ajratiladi. Unda yumush fe'llarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning har biri ma'no valentligini yuzaga chiqaruvchi lisoniy birliklar, ya'ni agens, kontragent, obyekt, patsiyens, vosita kabi valentliklari bilan semantik maydon hosil qilishi haqida fikr yuritiladi¹⁰⁸.

G.Narimova fe'llarning obyekt argumenti haqida fikr yuritar ekan, obyektни ifoda etuvchi so'z nafaqat vositasiz to'ldiruvchi, balki undan boshqa vazifalarda kela olish sabablarini fe'l nisbatiga, fe'l-predikatning kesimdan boshqa bo'lak vazifasida qo'llanishiga, mantiqiy urg'u talabiga bog'liq ekanligini bir qator misollar keltirib izohlaydi¹⁰⁹.

O'zbek tilshunosligida harakat fe'llarini semantik va valentlik nuqtayi nazardan tadqiq etishda tilshunos S.Muhamedovanning tadqiqotlari alohida ahamiyatli. Olima nomzodlik dissertatsiyasida yo'nalma harakat fe'llari (YHF)ning kesim, ega, to'ldiruvchi, hol va aniqlovchi vazifasida qo'llanilishi bilan bir qatorda uning agens, lokalis, patsiyens, sabab, maqsad, kontragent, adresat kabi valentlik aktantlari va (YHF)ning Ab (harakatning boshlanish nuqtasi) hamda Ad (harakatning tugash nuqtasi) mavjudligini izohlaydi¹¹⁰. Doktorlik ilmiy ishida esa o'zbek tilidagi harakat fe'llarini obyektli va obyeksiz harakat fe'llariga ajratib tadqiq etadi. Obyektli harakat fe'llarini uchta: natijali ijroni bildiruvchi fe'llar, natijasi mavhum bo'lgan ijroni ifodalovchi fe'llar, og'iz bo'shlig'idagi harakatlarni ifodalovchi fe'llar guruhiga ajratadi. Obyeksiz harakat fe'llarining esa oltita: gorizontal, vertikal, aylanma, tebranma harakatni ifodalovchi fe'llar,

¹⁰⁷ Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент, 1992. – Б.145.

¹⁰⁸ Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмш феълларининг маъно валентликлари. Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1996. – Б.152

¹⁰⁹ Наримова Г.А Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – Б.19

¹¹⁰ Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 122 б.

nafas va tovush chiqarish hamda og‘iz bo‘shlig‘idagi harakatni ifodalovchi fe‘llar ma‘noviy guruhlariga ega ekanligini qayd etadi¹¹¹.

G.Isaqova dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi “qilmoq” fe‘lining, asosan, qo‘shma fe‘l, qolaversa, barqaror birikmalar tarkibidagi o‘ziga xos semantik xususiyatlari, ifodalanish usullarini ko‘rsatib o‘tadi, biroq ushbu fe‘lining mustaqil leksema, ko‘makchi fe‘l vazifasida kelishi yoki bu vazifalarda kelmaslik holatlarini ochiq qoldiradi. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilidagi barcha fe‘llarning ko‘makchi fe‘l vazifasida kelishi haqidagi fikrlarini ham keltirib o‘tadi. Tadqiqotchi tomonidan faqatgina ot (ism) tarkibli qo‘shma fe‘lning predmet, belgi, miqdor kabi uzvlar bilan birikuvi asosida mazkur leksemaning matn ichidagi sintagmatik-semantik munosabatlari aniqlangan. Xususan, “qilmoq” fe‘lining bo‘lmoq, etmoq, aylamoq fe‘llari hamda sintetik shakllar doirasida *-la, -lan, lash, -sira* kabi affiksli yasalmalar bilan distributiv munosabati orqali integral va differensial semalari izohlangan, “ot+fe‘l modelida “qilmoq fe‘li fe‘l yasovchi *-la, -lan* affikslariga funksional yaqinlashgan so‘z yasovchi element vazifasini bajarishiga *tasdiq qilmoq–tasdiqlamoq, soz qilmoq – sozlamoq* kabi sinonimik fe‘llar qatorida *ovqat qilmoq – ovqatlanmoq* fe‘lini ham misol qilib keltiradi¹¹². Tadqiqotda keltirilgan misollardan *tasdiq qilmoq–tasdiqlamoq, soz qilmoq–sozlamoq* fe‘llari o‘zaro sinonim, ammo *ovqat qilmoq–ovqatlanmoq* fe‘llari semantik nuqtayi nazardan o‘zaro sinonim bo‘la olmasligi, *ovqat qilmoq* bu “ovqat tayyorlamoq”, *ovqatlanmoq* esa so‘zlovchining o‘zi yoki kimdir tomonidan tayyorlangan “ovqatni yemoq, tanovul qilmoq” ma‘nolari ifodalaganligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari harakat fe‘llari qardosh bo‘lmagan tillarni chog‘ishtirish asosida ham keng ko‘lamda o‘rganilgan. Xususan, G‘.Mirsanovning ingliz va o‘zbek tillarida “yurish” harakat fe‘llarining aksional va aspektual xususiyatlari, A. Muminovanning nemis va o‘zbek tillarida “yurish” harakat fe‘llarining aspektual semantikasi xususidagi dissertatsiyalarida harakat

¹¹¹ Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри...дисс.. – Тошкент, 2007. – 325 б.

¹¹² Исақова Г.Н Ўзбек тилидаги *қилмоқ* феълининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. –127 б.

fe'llarining ayrim ma'noviy guruhlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlari ikki til misolida izohlangan ¹¹³.

Sh.Jalolova ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning mustaqil ma'no anglatishi, shakl yasashi, obyektga munosabati, valentligi, fe'llarning predlogli to'ldiruvchi olishi, o'timsiz fe'llarning majhul nisbat shaklida kela olishi, harakatning vaqtda chegaralanganligiga ko'ra fe'l turlari kabi grammatik jihatdan ahamiyatli bo'lgan tasnifi ishlab chiqilgan ¹¹⁴.

O'zbek tilshunosligida bir fe'l semantikasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar ko'p emas. Fe'l leksemalarning tor doirada, ma'lum bir sema asosida o'rganilishi va tezaurus modellari asosida tadqiq etilishi ularning nutqiy imkoniyatlarini keng miqyosda yoritishga xizmat qiladi.

¹¹³ Мирсанов Ф.Қ. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 2009. –Б.155; Муминова А. О. Ҳозирги замон немис ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг аспектуал семантикаси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 24 б.

¹¹⁴ Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирама тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019.

II BOB. “YURISH” SEMALI LEKSEMALAR SEMANTIKASI VA TEZAVURUSI

Semantika va tezaurus munosabati, tezuruslarning semantik tahlil modeli sifatidagi xususiyatlari

Semantika tilshunoslikning eng quyi fonetik sath birliklaridan matn tuzish va matnlarning o‘zaro mazmuniy munosabatlarini o‘z ichiga olgan ma’no haqidagi fandır.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning hayotga tatbiq etilishi barcha sohalar qatori tilshunoslikda ham mavjud lug‘atlarning turi, shakli, uning mazmun-mohiyatini tubdan isloh qilish, o‘zgartirish talabini qo‘ymoqda. Shu sababdan bugungi kunda lug‘aviy birliklarning semantik, ideografik, ontologik va tezaurus lug‘atlarini tuzish uchun ham tilning semantik sathini chuqur o‘rganish, til birliklari o‘rtasidagi iyerarxik, paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni tahlil qilish o‘zbek leksikografiyasi rivoji oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu kabi lug‘atlarning ko‘plab zamonaviy turlarini ishlab chiqish o‘zbek tilshunosligi rivojida muhim ahamiyatga ega: tilni samarali o‘qitish-o‘rgatishda, qolaversa, sifatli tarjima jarayonida ham bir qator qulayliklarni yaratadi. Bu borada zamonaviy lug‘atlarning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan¹¹⁵. Aniqrog‘i, bugungi kunda til tizimida yangicha ko‘rinishdagi zamonaviy lug‘at turlari (ideografik, tezaurus lug‘atlar)ni yaratish borasida, jumladan, til birliklarining leksik-semantik munosabatlari xususida ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda ¹¹⁶. Xususan, tilshunos A.Sobirov tadqiqotida o‘zbek tilining leksik sathi tizimli ravishda tadqiq etilgan va leksemalar o‘rtasidagi mazmuniy munosabat ochib berilgan bo‘lsa, I.Ermatov dissertatsiyasida esa tilshunoslik terminlari o‘rtasidagi lug‘aviy-semantik munosabatlarning gipero-giponimik va ekvonomik turlari tahlilga tortilgan ¹¹⁷. Aytish mumkinki, leksik-semantik munosabatlar, lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi tafovut va mushtarakliklar semantik, tezaurus kabi

¹¹⁵ Орифжонов Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 27; Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997 – Б.120.

¹¹⁶ Hamroyeva Sh., Xoliyoyorov O‘., Abdualimova G. O‘zbek tilining fe‘l shakllari lug‘ati (“kiymoq” fe‘li misolida) I jild. – Termiz: TerDU, 2021. – 492 б.

¹¹⁷ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 140 б.; Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол.фан. д-ри (DSc)...дисс. – Тошкент, 2022. – 225 б.

lugʻat turlarini yaratish va uning takomillashuvida lingvistik taʼminot, lingvistik manba boʻlib xizmat qiladi.

Tezaurus” tushunchasi ingliz tiliga XVI asrda lotin tilidan kirib kelgan, u lotin tilidagi *tezaurus*, *thesauros* soʻzlaridan olingan boʻlib, “*omborxona*” yoki “*xazina*” degan maʼnoni anglatadi (shuning uchun oʻrta asrlardagi *tezaurer* “xazinachi” maʼnosida qoʻllangan)¹¹⁸. Jahon tilshunosligida tezaurus koʻrinishidagi lugʻatning asoschisi ingliz fizigi, shifokori va lugʻatshunosi Piter Mark Rojer sanaladi. 1852-yilda tezaurusga nisbatan “maʼnoga koʻra tartiblangan soʻzlar yigʻindisi” degan taʼrifni qoʻllagan¹¹⁹. Bundan farqli oʻlaroq “maʼlum bir soha yoki tushunchalar toʻplamiga oid soʻzlar yoki maʼlumotlar kitobi”¹²⁰, “oʻxshash maʼnoga ega soʻzlar roʻyxatini oʻz ichiga olgan kitob”¹²¹, degan taʼriflar ham keltirilgan. Tezaurus “muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan, biron bir ilm-fan sohasiga oid lugʻaviy birlik (soʻz)lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar oʻrtasidagi semantik (tur-jins, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lugʻat” deb izohlangan¹²².

Gʻarb tilshunosligi leksikografiyasini mukammal oʻrgangan ideografik lugʻat yaratishning asoschilaridan biri rus tilshunosi V.Morkovkin mazkur tipdagi lugʻatlarni uch turga: ideografik tezaurus (идеографические тезаурусы), analog lugʻat (аналогический словарь), oʻquv tipidagi ideografik lugʻat yoki mavzuli lugʻat (словарь идеографический или тематический словарь учебного типа)larga ajratadi¹²³. Muallif ideografik tezaurusning yorqin namunasi sifatida Piter Mark Rojerning 1852-yilda yaratilgan “Inglizcha soʻz va iboralar tezaurusi” kitobini, qariyb 33 yildan keyin esa ilohiyot fanlari doktori, Lion katolik universiteti professori Eli Blanning 1885-yilda nashr etilgan “Fransuz tilining mantiqiy lugʻati yoki soʻzlarning tabiiy va falsafiy tasnifi. Tushunchalar va obyektlar” (“Логический словарь французского языка, или естественную и философскую классификацию слов, понятий и

¹¹⁸ Roget's II: The New Thesaurus. Boston: Houghton Mifflin, 1988.

¹¹⁹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Thesaurus>.

¹²⁰ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/thesaurus>.

¹²¹ <https://www.macmillanthesaurus.com/thesaurus#thesaurus>.

¹²² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 4-том.— Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002.— Б. 77

¹²³ Морковкин В.В. Идеографические словари. — М.: Изд. Моск. ун-та, 1970. — С.72.

предметов”) lugʻat kitoblarini misol qilib keltiradi. Tezaurus tipidagi ideografik lugʻat tuzuvchisining asosiy vazifasi til birliklarining konseptual guruhlarini aniqlash va uni oqilona tasniflash boʻlsa, analog lugʻatlarni yaratuvchilar oʻz oldiga lugʻatni mavzuviy jihatdan shakllantirishni maqsad qilib qoʻygani holda alifbo tartibidan voz kechmaydilar. Natijada tanlab olingan leksik-semantik guruhlar analog lugʻatda mavzuviy dominantlar (markaziy soʻzlar) alifbo tartibida joylashtiriladi. Bu borada rus tilshunosi Y.Karaulov ham tezaurusga ideografik lugʻat sifatida yondashadi, leksik birliklarning maʼnolari boʻyicha qidirishni taʼminlaydigan, tushunchalarning iyerarxik tizimini ideal shaklda ifoda etadigan zamonaviy lugʻat turi ekanligini qayd etadi: uni tashkil etuvchi birliklari orasida kuchli semantik munosabat yaqqol koʻrinuvchi lugʻatlarni “tezaurus” deb ataydi ¹²⁴. Tezaurus tipidagi ideografik lugʻatlarda leksik-semantik guruhlarining tabiati va soni tilning semantik imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Muammo, asosan, ularni aniqlash va tasniflashda boʻladi, oʻquv mavzuli lugʻatlarni yaratishda asosiy vazifa – taʼlim maqsadlariga mos keladigan mavzularni tanlashdir ¹²⁵. Keyingi yillarda tilshunoslikda ideografik, tezaurus lugʻatlar yuzasidan alohida ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchilar ¹²⁶ ham tezaurusni ideografik lugʻatlarning bir koʻrinishi yoki uning aynan ekvivalenti sifatida tavsiflaydilar: tezaurus “ideografik lugʻatlar” asosida yaratilganligi sababli “tezaurus va ideografik lugʻat” soʻzlarini sinonim sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bu borada samarali faoliyat olib borgan rus tilshunosi S.Osokina anʼanaviy ravishda ideografik lugʻatlar yaratilish tarixini uch bosqichga: qadimiy ideografik lugʻatlar, zamonaviy davr lugʻatlari va XX–XXI asrlarda nashr etilgan zamonaviy lugʻatlarga ajratadi ¹²⁷. Tadqiqotchi Y.Hamrayeva tezaurus va ideografik lugʻatlarning bir turdagi lugʻatlar sanalishiga oid quyidagi umumiy jihatlarni keltiradi:

1. Ularda soʻzlarning izohi berilmaydi.
2. Ularning asosini onomasiologik tadqiq usuli tashkil etadi.

¹²⁴ Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М.: Наука, 1981. – 368 с.

¹²⁵ Морковкин В.В. Идеографические словари. – М.: Изд. Моск. ун-та, 1970. – С.72.

¹²⁶ Хамроева Ё. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифадаловчи сўзлар мисолида). Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – Б.129; Осокина С.А. Основания лингвистической теории тезауруса. Дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул, 2015 – 437 с.

¹²⁷ Осокина С.А. Основания лингвистической теории тезауруса. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Барнаул, 2015 – С.24.

3. Ularda soʻz-tushunchalar orasidagi leksik-semantik munosabatlar koʻrsatiladi.
4. Tushunchalarni talqin qilishiga koʻra ular izohli lugʻatlarga yaqin turadi.
5. Ularda tushunchalar sifatida soʻz, soʻz birikmalari, frazemalar olinadi¹²⁸.

Bugungi kunda bu kabi lugʻatlar har bir tilning soʻz boyligini toʻliq tavsiflash bilan bir qatorda muhim tushunchalarni tez qidirish jihatdan ham ahamiyatli sanaladi. Shu nuqtayi nazardan tezaurus lugʻatlarning oʻziga xos xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- 1) tildagi barcha soʻzlarning matnda ishlatilish imkoniyati, toʻliq roʻyxatini taqdim etadigan ideografik lugʻat turi;
- 2) maʼlum bir semantik munosabatlar tizimiga ega boʻlgan muayyan bir tilning maʼno ifodalovchi birliklari toʻplami¹²⁹;
- 3) leksik birliklar orasidagi semantik munosabatlar batafsil tavsiflanadigan umumiy yoki maxsus lugʻatlarning mukammal namunasi¹³⁰;
- 4) soʻzni boshqa soʻzlar bilan semantik aloqasi boʻyicha qidirishga moʻljallangan lugʻat;
- 5) lugʻatda soʻzlarni tartibga solishning maʼlum bir usuli;
- 6) muayyan bir tildagi har bir soʻzning keng imkoniyatlarini bir oʻrinda jamlab koʻrsatadigan lugʻat turi¹³¹;

S.Osokina jahon leksikografiyasida mavjud tezaurus lugʻatlarni uch turga: bosma tezauruslar, elektron tezauruslar, assotsiativ tezauruslarga boʻlib tavsiflaydi¹³². Bosma tezaurus lugʻatlarining kamchiligi shundaki, kerakli soʻzni tezda topish qiyin kechadi. Elektron tezauruslar esa ushbu muammoni yetarli darajada hal qiladi. Ingliz tili materiallari asosida elektron koʻrinishdagi assotsiativ tezauruslarni tuzish XX asrning 70-

¹²⁸ Хамроева Ё. Ўзбек тилининг идеографик лугатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида). Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – Б.129

¹²⁹ Шрейдер Ю.А. Тезаурус // Большая Советская энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия, 1976. [электронный ресурс]. – URL: <http://slovari.yandex.ru/~книги/БСЭ/Тезаурус> (дата обращения 23.03.2009).

¹³⁰ Шайкевич А.Я. Тезаурус // Языкознание: Большой энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 506-507.

¹³¹ Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. – С.76

¹³² Осокина С.А. Основания лингвистической теории тезауруса. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Барнаул, 2015. – 437 с.

yillarida boshlandi: Edinburg assotsiativ tezaurusi ishlab chiqildi¹³³. Unda leksik birliklar sintagmatik munosabatlar asosida izohlangan.

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi bilan elektron tezaurus lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Yigirmanchi asrning so'nggi bir necha o'n yilliklarida, xususan, 1990-yillarda ilk bor lug'atlar raqamli shaklda nashr etilgan. Shu yillarda Jeyms-Katalano¹³⁴ birinchi marta elektron tezaurus lug'atlarni "bilimga intilishda qimmatli vosita" deb atagan. Elektron tezaurus lug'at (ETL) so'zlarning yozilishi, ma'nosi yoki ishlatilishi, leksik birliklar o'rtasidagi leksik-semantik munosabatlar haqida ma'lumot beruvchi elektron shaklda saqlanadigan har qanday ma'lumotnoma materialiga murojaat qilish uchun ishlatilishi mumkin¹³⁵.

Jahon tilshunosligida lug'atlar tillar soni, foydalanuvchilar maqsadi, qamrab olingan mavzu maydoni va hajmiga qarab tasniflangan. Bugungi kunga kelib izohli lug'atlarning deyarli barcha turi rivojlangan tillarda bosma nashrda emas, zamon talabi bilan elektronlashtirilgan. Xususan, ingliz tilidagi Oksford va Merriam-Webster lug'atiga 2019-2020-yillar mobaynida kirib kelgan yangicha 60ta zamonaviy so'zlarning elektron shaklda qayd qilib borilishi bir jihatdan til takomiliga sabab bo'lsa, ikkinchi jihatdan esa o'sha tilning xalqaro darajada, keng miqyosda o'rganilishiga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Rastislav Metruk ham elektron lug'atlarning ko'plab qulayliklari, ayniqsa, talaffuz xususiyatlari haqida fikr bildirib, o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani, o'quvchi va tadqiqotchilar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochganligi to'g'risida ma'lumot beradi¹³⁶.

Hozirgi kunga kelib, rivojlangan tillarda zamonaviy elektron lug'atlar ekvivalenti sifatida raqamli, innovatsion lug'atlar nomi ostida uning takomillashgan bir necha xillari mavjud. Ammo o'zbek tilida bu kabi lug'atlarning mukammal namunalarini ishlab chiqish tugul shu vaqtgacha

¹³³ The Edinburgh Associative Thesaurus [электронный ресурс] // <http://www.eat.rl.ac.uk/> (accessed 15.08.2014).

¹³⁴ James-Catalano The Virtual Wordsmith // Internet World 7 (6), 1996.– P.30.

¹³⁵ Budykina V. The role of electronic dictionaries in language acquisition, translation, and intercultural communication. Сетевой научно-практический журнал «Вопросы теоретической и прикладной лингвистики». – Chelyabinsk. State University Article January 2014. <https://www.researchgate.net/publication/290355348>.

¹³⁶ Rastislav M. Electronic dictionaries for pronunciation practice by university efl students Teaching English with Technology 17(4). – P. 38-51. <http://www.tewtjournal.org>.

mavjud izohli lugʻatlarning barchasi ham toʻlaligacha elektronlashtirilmaganligi eng katta muammodir. Bu borada <https://uz.m.wiktionary.org/wik>, <https://uz.m.wikipedia.org/wiki> kabu URLlari yordamida zamonaviy qatlamga mansub birliklar maʼnosini izlash imkoni boʻlsa-da, ular ham bir tarafdin toʻliq emasligi, har yili yangilanmasligi, oʻzbek tili tarixiga mansub leksik birliklar maʼnolarini internet saytlaridan qidiruvga beradigan boʻlsak, hech narsa topolmasligimiz achinarli hol. Shunday ekan, oʻzbek tilshunosligida yaratilgan mavjud izohli lugʻatlarning toʻliq elektron shaklini ishlab chiqish, tezaurusini yaratish bilan bir qatorda har yili unga yangi leksik birliklar qoʻshib takomillashtirib borish zarur. Chunki elektron onlayn lugʻatlar (EOL) qayta koʻrib chiqilish, kengaytirilish, tahrirlanish va takomillashtirilish imkoniyatlariga ega. Xususan, leksikolog va til oʻrganuvchilar uchun elektron shaklidagi tezaurus lugʻatlarning bosma lugʻatlarga nisbatan asosiy afzalliklarini quyidagicha asoslash mumkin:

1. Murakkab qidiruvga imkoniyat yaratadi, yaʼni nutqiy vaziyatda leksik birliklarning soʻz birikmalari, turgʻun birikmalar shaklida turlicha maʼno qirralari misollar yordamida aniq koʻrsatib beriladi.

2. Ortiqcha moddiy xarajatlarga chek qoʻyiladi.

3. Har yili yangidan yangi leksik birliklarni qoʻshib borish imkoniyatiga ega boʻlamiz.

4. Til oʻrganuvchilarning talaffuzi yaxshilanishiga olib keladi va natijada unda soʻzlarni mustaqil holda orfografik qoidalarga binoan talaffuz qilish imkoniyati mavjud.

4. Leksik birliklarning turli maʼno qirralari batafsil izohlanadi.

5. Elektron tezaurus lugʻatlar tarjimonlar ishini osonlashtiradi.

Ingliz va rus tilshunosligida mavjud tezaurus lugʻatlarining bir qator elektron versiyalari yaratilgan boʻlsa-da¹³⁷, oʻzbek tilshunosligida baʼzi ishlardagina tezaurus haqida maʼlumotlar keltirilgan¹³⁸, uning mukammal

¹³⁷ <http://www.archive.org/details/rogetsthesaurus010681gut>; <http://rifmovnik.ru/thesaurus>; <http://wordnet.princeton.edu>; <https://archive.illc.uva.nl/EuroWordNet>; <https://www.visualthesaurus.com/store/>; Смирнский В. Тезаурус информационно-поисковой по языкознанию. – М., 1977; Баранов А. Словарь тезаурус современной русской идиоматики. – М.: Мир энциклопедии, 2007; Баранов О. Русский тезаурус (Электронное издание). – М., 2014.

¹³⁸ Abjalova M., Elmurod Sh. Oʻzbek tezaurus lugʻati uchun sifat turkumi bazasini yaratish masalasi // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya. – Toshkent, 2021. – №.01 – B.189-193; Suyunov B. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. Toshkent, 2023. – 222 b.

variantlarini bosma va elektron shaklda yaratish hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Buning uchun, avvalo, mavjud lugʻatlarni isloh qilish bilan birga lugʻaviy birliklar, xususan, feʼl soʻz turkumining yangi tipdagi yirik hajmli semantik hamda izohli lugʻatlarini ishlab chiqish zarur, chunki bu kabi lugʻatlar tezaurus yaratishda muhim manba vazifasini bajaradi. Zero, muayyan til birliklarining semantikasini ishlab chiqmasdan mukammal tezaurus lugʻatlarni yaratish qiyin.

Leksik birliklarning semantik lugʻatlari rus tilshunosligida ancha ilgari yaratilgan¹³⁹: 1998-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi tilshunos olimlari tomonidan 6 jilddan iborat, soʻzlar va uning maʼnoviy guruhlari boʻyicha tizimlashtirilgan rus tilining semantik lugʻati nashr etilgan. Bu lugʻat 300 000ga yaqin leksik birliklar – leksema va frazemalarning maʼnolarini qamrab olgan. Har bir jild mustaqil leksikografik tadqiqot mahsuli sanalgan alohida tayyor ish hisoblanadi¹⁴⁰. Rus tilidagi semantik lugʻat kitobining 4- va 5-jildlarida bevosita feʼl soʻz turkumiga mansub leksik birliklar izohlangan, feʼllar leksik tizimining tavsifi, iyerarxik tarzda tashkil etilgan leksik-semantik toʻplamlar – barchasi birlashib, har biri alohida leksik guruhlarni tashkil qiladi. Bular bogʻlovchi va yarim mustaqil maʼnoli feʼllar, frazali feʼllar, modal feʼllar, bogʻlanish, munosabat va nomlash feʼllari; deytik feʼllar; ekzistensial feʼllar; faol harakat hamda faoliyat feʼllarini oʻz ichiga oladi¹⁴¹. Rus tilidagi feʼllarning ideografik-izohli lugʻati ham keng qamrovli lugʻat boʻlib, oʻzida izohli, ideografik va ikki tilli tarjima lugʻat tamoyillarini aks ettirgan¹⁴². Mazkur lugʻatda 25 000 ga yaqin feʼl mavjud, ular maʼnosiga koʻra bir necha guruhlarga birlashgan, har bir feʼlning inglizcha ekvivalenti keltirilib, unga alohida semantik izoh berilgan.

¹³⁹ Русский семантический словарь. – М.: 1982; Русский семантический словарь. Опыт автоматического построения тезауруса: от понятия к слову. Лексико-семантические группы русских глаголов. Учебный словарь-справочник. – Свердловск, 1988; Лексико-семантические группы русских глаголов. – Иркутск, 1989.

¹⁴⁰ Русский семантический словарь. Толковый словарь, систематизированный по классам слов и значений. В 6 т. Российская академия наук. Ин-т рус. яз. им. В. В. Виноградова. – М.: Азбуковник, 1998.

¹⁴¹ Русский семантический словарь. IV. Толковый словарь, систематизированный по классам слов и значений. – М.: Азбуковник, 2007. – 924 с.

¹⁴² Толковый словарь русских глаголов: Идеографическое описание. Английские эквиваленты. Синонимы. Антонимы. – М.: АСТ-ПРЕСС, 1999. – 704 с.

O'zbek kompyuter lingvistikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan M.Abjalova monografiyasida ontologiya va tezaurus tushunchalari tahlili, tarkibiy elementlari, imkoniyatlari keng ko'lamda tadqiq etilgan: "Tezaurus – yaqin ma'noga ega so'zlar, so'z birikmalari, tushunchalar, konseptlar yoki deskriptor (tavsiflovchi)lar deb ataladigan birliklarga birlashtirilgan hamda ushbu tushunchalar o'rtasida ularning iyerarxik shaklidagi semantik munosabatlari ko'rsatilgan lug'at hisoblanadi. Lingvistik ontologiya (LO) til imkoniyatini borligicha, hamma soha bo'yicha qamrab olsa, tezauruslar muayyan to'plam yoxud yo'nalish, sohaga xos tushunchalar munosabati bilan cheklanadi"¹⁴³. Mazkur monografiyaning ahamiyati shundaki, WordNet tizimidagi KeNet resursi tuzilishi, tarkibi, yuzaga kelgan muammolarni yoritish asosida o'zbek tili ontologiyasini yaratish texnologiyasi va mezonlari ishlab chiqilgan.

Tezaurus lug'atlarda leksik birliklarning semantik tahlili haqida fikr yuritar ekanmiz, ayni paytda rus tadqiqotchisi S.Gindinning quyidagi tezaurus (ideografik) lug'at haqidagi quyidagi jumlasini keltirish o'rinlidir. "til sohiblarining ajdod-avlodlari tomonidan to'plangan ma'nolar zaxirasining eng qulay va eng yorqin in'ikosi"¹⁴⁴. Aytish mumkinki, barcha sohada qulaylikka intilayotgan bir davrda yashar ekanmiz, muayyan bir tildagi ma'lum bir so'zning barcha ma'no qirralarini aniqlash uchun dastlab izohli, so'ngra sinonim, antonim, omonim, uyadosh so'zlar lug'atini birma-bir varaqlashdan ko'ra shu kabilarning hammasi bitta manba – tushunchalarni qidirishga mo'ljallangan elektron tezaurus lug'atda berilishi, bu til egalari, qolaversa, undan foydalanuvchilar uchun bir qator afzalliklar tug'dirishi barchaga ma'lum. Bu kabi ishlar rivojlangan tillar tishunosligida allaqachon amalga oshirilgan. Shuni ta'kidlash o'rinliki, qaysi tilda tezaurus tipidagi lug'atlar yaratilmagan bo'lsa, muayyan bir leksik birlikning barcha ma'nolari, xususan, sinonim, antonim kabi tushunchalarning bir o'rinda ketma-ket berilmaganligi bir tarafdin til o'rganuvchilarning o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nolarini o'rganishi uchun lug'atlardan foydalanishiga qiyinchilik tug'dirishi, ikkinchi tomondan esa

¹⁴³ Abjalova M.A. O'zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. Monografiya (qayta nashr). – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – B. 24-25.

¹⁴⁴ Гиндин С. Семантические словари карты языкового мира. // Гл. стр. журнала «Русский язык» – 2001. – № 5. URL: www/rambler.ru.

tarjima jarayonida ham ba'zi murakkablik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi ayni haqiqatdir. Bu kabi muammolarni bartaraf etishda tezaurus lug'atlarda har bir birlikning semalari, sinonim guruhlari, boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatlari (valentliklari), sintagmatik va paradigmatic munosabatlari yaxlit holda bir o'rinda qayd etilishi ayni muddaodir.

Tezaurus – semantikaning amaliy ifodasi, unda leksik birliklarning o'zaro semantik bog'liqligi izohlanadi. Semantika va tezaurus bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, semantika til birliklarining ma'nolarini va ularning o'zaro aloqalarini nazariy jihatdan o'rganadi, tezaurus esa bu bilimlarni tizimli ravishda ifodalaydi va amalda qo'llash imkonini beradi. Ma'nolarni avtomatik tushunish va qayta ishlashda tezaurus muhim rol o'ynaydi. Mazkur ikki tushunchaning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin:

2.1-jadval

Kategoriya	Semantika	Tezaurus
Ma'no tahlili	Lug'aviy birliklar, uning ma'noviy munosabatlarni o'rganadi.	Lug'aviy birliklar o'rtasidagi munosabatlarni tizimli ravishda ko'rsatadi.
Sinonimlar	Sinonimik munosabatlarni tahlil qiladi.	Semantik muqobil (alternativ)larni ko'rsatadi va tizimlashtiradi.
Antonimlar	Zid ma'nolilikni tahlil qiladi .	Qarama-qarshi ma'noga ega lug'aviy birliklarni tizimlashtiradi.
Ko'pma'nolilik	So'zlarning ko'pma'noliligini o'rganadi.	Har bir ma'no uchun alohida ma'nolar guruhini ko'rsatadi.
Tizimlashtirish	Lug'aviy birliklarning semalarini o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi.	Iyerarxik tuzilma orqali so'zlarni yuqori va pastki toifalarga ajratadi.
Amaliy foydalanish	Semantik tahlil ilmiy va amaliy tadqiqotlar, qolaversa, tazaurus uchun asos bo'ladi.	Amaliy qo'llanma sifatida, yozish, tarjima va izoh berishda foydalaniladi.
Foydalanuvchilar	Tilshunoslar, tadqiqotchilar.	Tilshunoslar, yozuvchilar, til o'rganuvchilar, tarjimonlar.

V.Dal mavzuviy lug'atlarning alifbo tartibidagi lug'atlardan farqi va afzalliklarini ko'rsatish maqsadida shunday deydi: “So'zlarning alifbo tartibidagi joylashuvi naqadar quruq va ma'nosizdir. Bunday lug'atni o'qishga kuch topish qiyin. O'ninchi so'zga yetmasdanoq aqlimiz o'tmaslashib, boshimiz aylanib qoladi, holbuki, bizning zehnimiz hamisha har narsada oqilona bog'lanishni, tadrijiylikni va mantiqiy izchillikni talab

qiladi”¹⁴⁵. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tezaurus lug‘at – bu har qanday ilmiy yoki texnik sohaning hamda ma’lum bir tilning butun so‘z boyligini tizimli ravishda tartibga soladi.

Darhaqiqat, mavjud lug‘at va tezauruslar tashqi bilimlarni olishga va uni oshirishga yordam beradigan turli xil so‘zlarni o‘z ichiga olgan qimmatli manba sanaladi. John Pratt lug‘at va tezaurus o‘rtasidagi farqlarni bir necha mezonlarga ko‘ra quyidagicha belgilaydi¹⁴⁶:

2.2-jadval

Taqqoslash parametri	Lug‘at	Tezaurus
Ta’rif	talaffuzi, ta’rifi, ma’lumoti, ishlatilishi, etimologiyasi, sinonimi, antonimi, tarjimasi – har biri alohida manbada beriladigan alifbo tartibida ma’lum bir tildagi yoki turli tillar bo‘yicha ishlab chiqilgan so‘zlar to‘plami	Barcha ma’lumotlar bir joyda jamlangan, shu bilan bir qatorda, bir tartibda keltirilgan so‘zlar to‘plami
Birinchi nashr	Miloddan avvalgi 2300-yilda zamonaviy Suriyada nashr etilgan	1852-yilda Peter Roget tezaurusi e’lon qilingan
Tartibga solinishi	Alifbo tartibida joylashtiriladi.	Alfavit yoki kontseptual tartibda joylashtiriladi.
So‘zlar	Katta hajmli so‘zlar ma’nosini qamrab oladi. Oksford lug‘atida 500000 so‘z bor	Eng katta tezaurusda 920 mingdan ortiq so‘z bor
Foydalanish	Keng xalq ommasi uchun mo’ljallanadi.	Tadqiqotchilar, tarjimonlar foydalanadi
Til	So‘z boshqa tillarda nimani anglatishini bildiradi	bitta tilda yoki bir necha tilda bo’ladi

Ko‘rinadiki, tilshunoslik uchun odatdagi lug‘atning ham, tezaurusning ham o‘z o‘rni, vazifasi, ahamiyati bor. Ammo hozirgi kunda tezauruslar alohida so‘zning ma’noviy guruhlarini elektron formatda tavsiflashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bu esa tilshunoslikda semantika yuzasidan tadqiqotlar olib borishda qulayliklar yaratadi.


Tezaurusning yana bir shakli – vizual tezaurusga to‘xtaladigan bo‘lsak, u interaktiv lug‘at-tezaurus bo‘lib, unda qidiruv paneliga ma’lum

¹⁴⁵ Даль В.Н. Толковый словарь живого великорусского языка (в четырех томах). Том 1.– М., 1989.

¹⁴⁶ [https://uz.maywoodcuesd.org/difference-between-dictionary-and-thesaurus, 1852]

bir deskriptor yozilsa, ekranda o‘sha so‘zning semantik diagrammasi paydo bo‘ladi, so‘ng deskriptorning har bir sinsetiga kompyuter sichqonchasini olib borsangiz, semantik diagramma (to‘r) bir qalqib, boshqacha shakl hosil qiladi, bu vizual tarzda so‘zlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash imkonini beradi ¹⁴⁷. Masalan, vizual tezaurus saytiga kirib, “yozmoq” (“write”) so‘zini yozganimizda ekranning chap tomonida chizma va uning sinonimlari paydo bo‘ladi. Mazkur jadvalda muayyan leksik birlik belgilanganida ekranda aks etmagan sinonimlari, uning izohi va misollari qalqib chiqadi.

2.3-chizma



Tezaurusning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga ular ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oya yoki tushunchaga mos keladigan so‘z, so‘z birikmasi, iboralarni topishga yordam berishidir. Har bir tezaurus tuzilishiga ko‘ra farq qilishi mumkin, ammo bir maqsadga xizmat qiladi: qidirilayorgan so‘z haqidagi ma’lumotlarni muqobil usullarini taqdim etadi va bu birlik muqobillari orasidagi farqlarni ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda internetda elektron tezauruslarning bir nechta qulay variantlari mavjud. Bularga Thesaurus.com, Collins Thesaurus va Oksford Thesauruslari ¹⁴⁸ misol bo‘la oladi. Foydalanuvchilar sinonimlar va antonimlarning to‘liq to‘plamini ko‘rish uchun so‘zni kiritishlari kerak. Qolaversa, matn protsessorlarining ko‘p dasturlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rnatilgan tezauruslar mavjud. So‘zni belgilash va menyuni to‘g‘ri tanlash orqali foydalanuvchilar sinonimlarning to‘liq ro‘yxatiga va hatto vizual

¹⁴⁷ <https://www.visualthesaurus.com/trialover/>

¹⁴⁸ <https://www.thesaurus.com/>; <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english-thesaurus>.

tezaurusga ham kirishlari mumkin. Alifbo shaklida tuzilgan lugʻatlar asosida oʻzbek tilining kompyuterga asoslangan lingvistik-leksikografik bazasini yangilash, yaratish zarurligi bugungi kun tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Yur- asosli leksemalarning linvostatistik tahlili, semantik xususiyatlari va tezaurusi

Soʻzning leksik maʼnosini aniqlash uning semantikasi, pragmatikasi, sintaksisi bilan belgilanadigan murakkab jarayondir. Semantikada leksik maʼno tuzilishida signifikativ va denotativ jihatlar ajralib turadi. Pragmatik jihatdan soʻzning leksik maʼnosi emotsional-ekspressiv (ijobiy yoki salbiy boʻyoq) baholashni oʻz ichiga oladi. Maʼnoning sintagmatik tomoni sintaktik, yaʼni leksemalarning jumla tarkibidagi boshqa til birliklari maʼnolari bilan uzviy bogʻliqligida namoyon boʻlsa, paradigmatic jihatida esa sinonimik qator ichidagi pozitsiyasi bilan belgilanadi¹⁴⁹.

Tilshunoslikda leksik maʼno turlari quyidagicha: denotativ (nominativ, sigmatik), signifikativ (aks ettirish), strukturaviy (belgini boshqa belgi bilan ifodalovchi maʼno, yaʼni sintagmatik va paradigmatic maʼno) va emotiv. Signifikativ maʼno – bu “obyektiv voqelikning oʻziga xos lingvistik aksi, leksik birlikning asosiy lingvistik mazmuni”¹⁵⁰. Strukturaviy maʼno – bu “leksik birlik xususiyatlarining rasmiy tavsifi, uning til tizimidagi oʻrnini belgilaydi”. U “belgilar (birliklar)ning bir-biriga nisbati orqali aniqlanadi”, shuning uchun strukturaviy maʼnoning ikkita kichik turi ajratiladi: sintagmatik va paradigmatic. Sintagmatik tarkibiy maʼno – bu matn tarkibida leksik birliklarning bir-biri bilan oʻzaro mazmun jihatdan bogʻliqligida, maʼlum bir ketma-ketlikni tashkil etuvchi leksik birliklarning chiziqli munosabatlari xarakteristikasi sanalib, valentlik yoki moslik deb ham yuritiladi. Paradigmatic tarkibiy maʼno – bu bir-biri bilan semantik jihatdan oʻzaro bogʻliq boʻlgan va, oʻz navbatida, bir-biriga qarama-qarshi hisoblangan leksik birliklarning chiziqli boʻlmagan munosabatlarining xarakteristikasi. Emotiv maʼno – bu “stilistik jihatdan belgilangan leksik

¹⁴⁹ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 262.

¹⁵⁰ Новиков Л.А., Зубкова Л.Г., Иванов В.В. и др. Современный русский язык: Фонетика. Лексикология. Словообразование. Морфология. Синтаксис. Учебник для филол. спец. вузов. – 3-е изд. – СПб.: Лань, 2001. – С.180.

birliklar yordamida belgilanadigan, ijobiy yoki salbiy bo‘yoqqa ega baholashning o‘ziga xos lingvistik ifodasi”¹⁵¹. M.Hakimova ham rus tilshunosligiga tayangan holda leksik ma’no qirralarini signifikativ, denotativ, strukturaviy va emotiv turlarga ajratgan¹⁵². A.Nurmonov esa ma’no semik tuzilshining pog‘onaviylik xususiyatini quyidagicha tasvirlashni ma’qul ko‘radi: 1) nominativ sema (denotativ, sigmatik ma’no); 2) aks ettirish (signifikativ) semasi; 3) struktur sema; 4) ifoda (konnotativ) sema; 5) amaliy (pragmatik) sema¹⁵³. Misol tariqasida “yurmoq” leksemasining leksik ma’no turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning denotativ, ya’ni referenti bu “muayyan bir turdagi harakat, faoliyat shakli” sanalsa, signifikativ ma’nosi esa “muayyan bir predmetning ayni bir makondagi yayov holda yoki transportda davomli va doimiy harakatlanishi” hisoblanadi.

“Yurish” leksemasi tarixiga ham nazar tashlasak, qadimgi turkiy tilda ham xuddi shunday ma’noda (“bir joydan boshqa joyga harakatlanmoq”) ishlatilganligini ko‘rish mumkin: “yur” fe’li aslida “йоры” tarzida talaffuz qilingan bo‘lib, keyinchalik “йурь”, “йуру” shakllarida, (“йоры→йурь→йурь”)¹⁵⁴ qo‘llanilib, undan “yurak”, “yurt” kabi so‘zlar yasalgan. Xususan, turk tili tadqiqotchisi B.Gulden tomonidan o‘rxun bitiklarida “yürümek” (yurmoq) fe’li “yori-“ shaklida bo‘lib, fonetik o‘zgarishlari quyidagi ketma-ketlikda sodir bo‘lganligi aniqlangan: yori->yöri->yüri->yürü-¹⁵⁵. Tushunchaning semantikasida esa mazkur so‘z 74 xil yangi ma’noga ega ekanligi ta’kidlanadi: *yurmoq (oldinga harakat qilmoq), rivojlanmoq, isyon qilmoq, yengmoq, yashamoq, sayr qilmoq* kabilar. Bundan tashqari “sü yorit” – qo‘shma fe’l sifatida “turtish, olg‘a siljish” ma’nolarini ham anglatadi: *qadam tashlamoq, bormoq, davom etmoq, hujum qilmoq, bostirib bormoq, ko‘chmoq, sarson bo‘lmoq* kabilar. Mazkur maqolada *yürümek (yurmoq)* so‘zi turkiy tillarning eng qadimgi yozma matnlaridan hozirgi kunga qadar fonetik va morfologik jihatdan qanday o‘zgarishlarga uchraganligi hamda qanday ma’nolarni ifodalashi

¹⁵¹ Новиков Л.А., Зубкова Л.Г., Иванов В.В. и др. Указанная литература. – С.180.

¹⁵² Хакимова М. Семасиология. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 2008.– Б.25.

¹⁵³ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –232 б.

¹⁵⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. –Тошкент: Университет, 2000.– Б.187-188.

¹⁵⁵ Gulden B. Türkçede “yürümek” kavraminin anlam bilimsel seyri üzerine bir araştırma // Route Educational and Social Science Journal. Volume 7, Issue 10. – İstanbul, October, 2020. – P.131-143.

haqida fikr-mulohazalar berilgan¹⁵⁶.

Z.Boynazarov “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “evür” fe’lining o‘zlik nisbat shakli “evril” leksemasining qadimgi turkiy tilda bir qator ma’nolar (*aylanmoq; yurmoq, kezmoq; rad etmoq; qayrilmoq, burilmoq*)da ishlatilganligini ta’kidlaydi. “Evür” fe’l shakli “Boburnoma”da uchramasligini, so‘zning o‘zlik nisbat shakli “evril” asarda quyidagi ma’nolarda kelganligini misollar bilan izohlaydi:

a) “yurmoq” ma’nosini ifodalagan: *Yerlik el ham afg‘onlar sari evruldi;*

b) “aylanmoq, kezib chiqmoq” ma’nolarini anglatgan: *Ba’zilarkim, yayoq yurub evrulurlar edi, bir evrulguncha tong otar edi* ¹⁵⁷.

“Yurish” tushunchasi tarixi juda qadimiy sanalib, u kundalik hayotning eng asosiy harakat konseptini ifodalaydi. Shu sabab uning arxisemasida “uzluksiz, ya’ni doimiy harakatda bo‘lish” semasi ham mujassam. Xususan, fors, arab tili va adabiyoti, tarixi, xalq og‘zaki poetik ijodini mukammal o‘rgangan, lirik shoir, qasidanavis, epik dostonchi va tarjimon Sayfi Saroyi asarida aynan shu semada “yurmoq” fe’lini ishlatgan: *Suhajlni kördi-jü, ajlandi birtek, Künäş girdindä jürgän misli – jertek*¹⁵⁸. Ma’lumki, adib Kopernikdan qariyb bir yarim asr avval Yerning Quyosh atrofida aylanishini bilgan va bundan Suhaylni ko‘rib sevib qolgan Guldursun ruhiy holatini ochib berishda foydalangan. Baytda *jürgän* fe’lining qo‘llanganidan shuni anglash mumkinki, shoir Yer Quyosh atrofida davomli harakatlanishi haqida bilimga ega bo‘lgan hamda *ajlan* – “aylanmoq” va *jür-* “yurmoq” fe’llaridan o‘zaro ma’nodosh birliklar sifatida foydalangan.

Hozirgi kunga kelib “yurish” lug‘aviy birligining mazmun ko‘lami ancha kengaygan. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 15 xil semada: “*ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, qadam tashlab olg‘a bosmoq, qadamlab jilmoq*” kabi sememalari bilan bir qatorda “*hayot kechirmoq, yashamoq*”, “*rozi bo‘lmoq, ko‘nmoq*”,

¹⁵⁶ Gülden B. Türkçede “yürümek” kavraminin anlam bilimsel seyri üzerine bir araştırma. // Route Educational and Social Science Journal. Volume 7, Issue 10. – İstanbul, October, 2020. –P.131-143.

¹⁵⁷ Boynazarov Z. Tarixiy-qomusiy manbalarda ifodalangan olamning lisoniy manzarasi va uning madaniyat tarixini o‘rganishdagi o‘rni (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asari misolida) // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi, 2019.– 6 (4). –S. 2167-2186.

¹⁵⁸ Sayfi Saroyi. Suhayl va Guldursun. Kitobda: Uch bulbul gulshani.–Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1986. –B. 326-330.

“suygan yor bilan vaqt o‘tkazmoq, yaqin munosabatda bo‘lmoq” ma’nolarida ham ishlatilishi qayd etiladi¹⁵⁹.

S.Muhamedova “yurish” leksemasini semantik jihatdan yo‘nalishi aniq gorizontal harakat fe’llar (YAGHF)i guruhiga kiritadi. Olima YAGHFinini o‘z navbatida uchga bo‘ladi: 1) harakat yo‘nalishi va usulini ifodalashiga ko‘ra farqlanuvchi fe’llar: “yurish”, “yugurish”, “suzish” kabi semali fellar; 2) muayyan obyektga nisbatan yo‘nalishiga ko‘ra farqlanuvchi fe’llar: “kirish”, “chiqish”, “qochish” kabi semali fellar; 3) yo‘nalishi mavhum gorizontal harakat fe’llari: “maqsadsiz yurish”, “har tomonga yo‘nalgan harakat” kabi semali fe’llar¹⁶⁰. YAGHFining barchasida etimologik va izohli lug‘atlarda keltirilganidek, “yurmoq” fe’lining “bir joydan boshqa joyga harakatlanish” arxisemasi birlashtirib turadi. Aytish mumkinki, “yurmoq” fe’li boshqa tillardan farqli o‘laroq gorizontal harakat fe’llarining deyarli barchasiga xos semalari o‘rnida kela oladi. Bu kabi fe’llarning ba’zilari ayrim tilshunoslar tomonidan oyoq bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi fe’llar deb ataladi¹⁶¹. Oyoq harakati, asosan, “yurmoq” fe’li bilan beriladi. Chunki yurish haqida fikr yuritganda ongimizda oyoq harakati bilan bog‘liq ma’lum bir faoliyat, jarayon haqidagi tushuncha hosil bo‘ladi. Shu sabab “oyoq” so‘zi “yurmoq” leksemasining atash semasi bilan muqim bog‘lana oladigan valentlik asosi hamdir. Mazkur fe’lni nutqda ishlatganimizda ham dastavval ongimizda uning arxisemasi bilan sintagmatik munosabatga kirisha oladigan asosan to‘rtta aktant leksema gavdalanadi: *agens: men (kim?); modus: yayov, piyoda (oyoq yordamida)... (qay holda?) yurmoq; lokalis: ko‘chada, dalada... (qayerda?) yurmoq; vosita: mashinada yoki velosipedda (nimada?) yurmoq* kabi. Ingliz va rus tilshunosligida mazkur birlik ma’nosida, asosan, “oyoq yordamida piyoda harakatlanish” semasida “walk”, “ходить” leksemalari qo‘llanadi, ammo u tillarda transportda harakatlanish uchun bu birliklar ishlatilmaydi. Ba’zan mazkur birlik nutqda ishlatilganda oyoq harakati umuman voqelanmasa-da, *“bir joydan boshqa joyga harakat qilmoq, jilmoq, bormoq, ketmoq”* kabi arxisemalari

¹⁵⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jildli –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

¹⁶⁰ Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.16.

¹⁶¹ Содиқова М. Феъл стилистикаси. –Тошкент: Фан, 1975.– Б.57; Sayfullayeva va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Zebo print, 2020.– B.181.

ifodalanaveradi. Xususan, rus tilining ta'sirida o'zbekcha "yurmoq" so'zi ruscha "ходить" so'zi anglatgan "sevishmoq", qiz va yigitning "oila qurishdan oldin bir-birini intim yo'llar bilan sinamoq" singari ma'nolari o'zbek tiliga semantik kalka usulida o'zlashtirildi¹⁶². O'zlashgan ma'no "davomli harakat", "oldga qarab siljish" kabi arxisemalaridan uzoqlashmagan holda o'zbek tilining o'z lug'aviy birligi orqali ifodalandi. Masalan, *Bizning o'g'il qo'shnimizning qizi bilan yurarmish*.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida qariyb 15 yil mobaynida izohli lug'atlar uch marta nashr etildi, mana shu nashrlardagi tadqiqot obyekti sanalgan "yur" semali leksik birliklarning izohi har uchala nashrda ham deyarli bir xil ekanligini kuzatish mumkin: 2008-yilgi nashridagi "yur" semali leksik birliklarning 18 xil birlik va shakllari, undagi misollar 2020-, 2022-yilgi nashrlarida ham aynan takrorlangan bo'lsa-da, uning yangicha ma'nolari kiritilmagan.

2.2-jadval

	"YURMOQ" FE'LINING MA'NOLARI	Inson oyoqlari harakati	transport harakati	butun tana, gavda harakati	tarz,holat	malum bir o'yin turi	mexanizmlar harakati	Birovning qarorini qabul	malumotning tarqalishi	davomiylik
1	Qadam tashlab olg'a bosmoq, qadamlab jilmoq: tez yurmoq	+								
2	Ma'lum yo'nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq (asosan transport vositasi haqida): mashina chap tomonga yurdi		+							
3	Umuman, bir joydan jilmoq, siljimoq (suzmoq, sudralmoq, o'rmalamoq va shu kabilar): Hovuzchada o'ntacha baliq yuribdi			+						
4	Kezish, aylanish, sayohat va shu kabilarda bo'lmoq: Shaharma-shahar yurmoq	+								
5	Hayot kechirmoq, yashamoq: ruslar orasida yurib, til o'rgandim.	+								

¹⁶² Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. –B.57-58.

6	Ish-faoliyat va shu kabilarda birga bo‘lmoq: nodon bilan yurma, nomusingni bukma. (maqol)	+							
7	Qatnamoq: markazdan qishlog‘imizga avtobus yuradi		+						
8	Davom etmoq (o‘zi birikib kelgan so‘z bildirgan holatda). Siz shu yo‘sinda yura bersangiz, erta-indin o‘g‘ildan ajralasiz. (A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”)				+				
9	Shaxmat, qarta, domino kabi o‘yinlarda o‘z navbatida, navbati kelganda harakat qilmoq, o‘ynamoq: piyodadan yurmoq					+			
10	Harakatga kelmoq, ishlab turmoq, ishlamoq (mexanizmlar haqida): soatim yaxshi yuryapti.						+		
11	Suygan yor bilan vaqt o‘tkazmoq, yaqin munosabatda bo‘lmoq: <i>Ayt, qachondan buyon bu yigit bilan yurasan?</i>	+							
12	Rozi bo‘lmoq, ko‘nmoq, unamoq: u birovning aytganiga yuradigan odammas.							+	
13	Yoyilib ketmoq, yoyilmoq; tarqalmoq (gap-so‘z, xabar haqida). <i>el og‘zida yurgan mish-mishlar</i>								+
14	-(i)b qo‘shimchali ravishdoshga birikib, harakatning davomiyligini bildiradi. Tomosha qilib yurmoq								+
15	Biror tomonga jo‘nash, ketishga undash mayli shaklida keladi. <i>Yur, kech qolamiz</i>	+							

Yuqorida berilgan jadvaldagi 2-, 3-, 7-, 8-, 9-, 10-, 12-, 13-ustunlarda berilgan misollarda bevosita oyoq harakati mavjud emas. Shunga ko‘ra “yurmoq” fe‘l- leksemasi semalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

2.3-jadval

Semalari	“Yurish” fe‘li semalari	“Yurish” fe‘lining qo‘lanish o‘rinlari
S ₁	Oyoq bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi fe‘llar	1, 4, 5, 6, 11, 14, 15
S ₂	Butun tana, gavda bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi fe‘llar	3
S ₃	“Yurmoq” so‘zi bilan bog‘lana oladigan transportlar (mashina, avtobus, poyezd, metro kabilarda), mexanizmlar (masalan, soat) harakati	2, 7, 10
S ₄	Turli xil semalar	8, 9, 12, 13

Mazkur chizmadan oyoq bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi semema umumiy leksik baza giponim (troponim)i, “yurish” fe‘li semalari esa uning giperonim (gipernim)i ekanligini anglash qiyin emas. Bundan tashqari nutqimizda “*yaxshi yuribsizmi?*”, “*ortiqcha pul yoningda yursin, bolam*”,

“*kechgacha shu o‘yda (shu niyatda, tashvishda) yurdim*”, “*oyog‘i bilan emas, tili bilan yurmoq*”, “*og‘zi bilan yuradigan odamlar ham bor*” kabi jumlar ham tez-tez ishlatiladi. Shulardan “*yaxshi yuribsizmi?*” jumlasidan mazmunan “*yaxshimisiz?*” gapiga, “*kechgacha shu o‘yda yurdim*” misoli “*kechgacha shu o‘yda edim (ya’ni shu holat bilan, mashg‘ullik, band bo‘lish)*” jumlasiga teng: *..chindan ham hammani o‘zlariga banda qilib olish niyatida yurishsa-ya?* Aytish joizki, bu kabi gaplarda “*yurmoq*” leksemasi o‘z leksik ma’nosidan uzoqlashib, *-siz, edi, bo‘lmoq* kesimlik shakllari vazifasini bajargan. Keyingi misolda “*ortiqcha pul yoningda yursin, bolam*” jumlasidagi “*yursin*” fe’li “*tursin, bo‘lsin*” fe’li o‘rnida qo‘llangan. Yuqoridagilardan farqli o‘laroq “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “*yurishmoq*” fe’li aynan “*yurmoq*” fe’lining birgalik nisbati shakli tarzida qaralib, “*yurmoq*” fe’lidan alohida so‘zlik sifatida izohlanadi. Shu sababdan “*yurishmoq*” fe’lining tarkibida keltirilgan misollar mazmunida va unga qo‘shilib kelgan grammatik kategoriyalarda har xillik kuzatiladi: masalan, *bolalar hali ham ko‘chada to‘polon qilib yurishardi* gapidagi “*yurishardi*” fe’li tarkibidagi *-ish* haqiqatan ham birgalik nisbati shakli, lekin *ish yurishmasa, bulamiq dandon sindirar yoki bu ishda faqat mening omadim yurishmadi* jumllarida “*yurishmoq*” fe’li tarkibidagi *-ish* affiksi fe’lining birgalik nisbati shakli vazifasida kelmagan, balki fe’l asosidan anglashilgan ifoda semaning mazmun-mohiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan xolos.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, izohli lug‘atlarda “*yurmoq*” asosidan shakllangan “morfosemantik” (bir asosdan yasalgan) so‘zlarni quyidagicha guruhlash, turkumlash va semalarini aniqlash mumkin:

1) “*yurmoq*” – “bir joydan ikkinchi joyga ma’lum bir yo‘nalishda va bir xil yoki turlicha usulda harakatlanish” semasini ifodalaydigan mustaqil fe’l turkumi;

2) “*yurmoq*” – yetakchi fe’lga qo‘shilib, davomiylik ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’l: *Baqara surasini o‘qib yurish baraka, uni tark qilish hasratdir.* (hadisdan);

3) “*yuramol*”, *yurag‘on*” (*yuramol/yurag‘on ot*), “*yurishli*” (*yurishli ayg‘ir*) – sifat turkumi;

4) “*yurish-turishi*”, “*yurish*”– faoliyat-jarayon oti, semalari quyidagicha:

a) shaxsning o‘ziga xos xatti-harakati, faoliyati, fe’l-atvori semasini ifodalagan: ...*yurish-turishlari Yo‘lchiga tamoman begona tuyuldi. Musulmon insonning har bir xatti-harakati, har bir so‘zi, o‘zining yurish-turishi yaxshilikdan iborat bo‘lishi kerak. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf);*

b) mehmondorchilik, ziyofat, sayohat, tomoshabop joylarga borishni xush ko‘rish semasini anglatadi: ...*ovsinim yurishni yaxshi ko‘radigan ayol;*

d) dushmanga qarshi qo‘shin tortish, jangga otlanish, “istilo” semasini ifodalaydi: *hoqon bosqinchilarga qarshi yurishni to‘xtatdi (ammo yurish qilmoq fe’li qo‘shma fe’l sanaladi);*

e) yashash, umr o‘tkazish semasini anglatadi: *Men o‘z yurtimda ko‘kragimni ko‘tarib yurishga o‘rganib qolganman;*

5) “*yurgizilmoq*”, “*yurgizmoq*” yoki “*yurg‘izmoq*” (traktorni *yurg‘izmoq*), “*yuritmoq*” (...*juvozni yuritib,.. qichqirdi*), “*yurishmoq*” (*ular ancha joygacha piyoda yurishdi*) – nisbat shakllarini olgan fe’llar harakatni ifodalashdan tashqari birga konnotativ semada ham keladi: *Turmush haqida aqli yetganicha farosat yurgizib, uzoq suhbat qurishar (Ch.Aytmatov)*

6) *-siz, edi, bo‘lmoq* kesimlik shakllari vazifasida keluvchi grammatik kategoriya;

7) *yur* leksemasi nutq jarayonida fe’llik xususiyatini qisman yo‘qotib, ba’zi hollarda modal ma’noni ham ifodalaydi: *Yur, narigi uyga chiqamiz, bobojoning damini olsin, ertalab yana duolaringdan o‘qib berasan. (X.To‘xtaboyev) Yur, tog‘larga chiqaylik, Mayli, yur (U.Nosir). Mazkur misollardagi gap boshida kelgan yur leksemasiga II shaxs buyruq-istak maylidagi -gin affiksini qo‘llab bo‘lmasligi uning modal ma’noga xoslanganligini to‘la-to‘kis isbotlaydi, ammo Yur, tog‘larga chiqaylik, Mayli, yur she’riy satridagi gap oxirida kelgan yur leksemasiga -gin affiksini qo‘shish mumkin. Chunki o‘zbek tilida fe’llik xususiyatini yo‘qotib, modal ma’no ifodalagan so‘zlar: demak, aytmoqchi, aytgandek, aytganday kabi so‘zlar mavjud darsliklarda qayd etilgan bo‘lsa-da, kel, qo‘y, shoshma-shoshma, yur kabi fe’l-leksemalarning modal ma’noga*

xoslanganligi hozirgi kunga qadar nashr etilgan darslik-qo‘llanmalarda o‘z ifodasini topmagan.

Endi “*yurmoq*” leksemasining matndan tashqari hamda matn ichidagi semantik xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz:

2.4-jadval

“yurmoq” leksemasining nutqdan tashqaridagi harakat semalar	o‘xshash (+) yoki farqli (-)	“yurmoq” leksemasining nutqiy jarayondagi harakat semalari
Gorizontal harakat	+	Gorizontal harakat: Anvar hovlida yuribdi.
Chiqish va manzilga yetish nuqtasi aniq bo‘lmagan harakat	–	Chiqish va manzilga yetish nuqtasi aniq bo‘lgan harakat: Uydan ishgacha yayov yuraman
Aksional jihatdan tugallanmagan, davomli harakat	–	Aksional jihatdan tugallangan, uzoq davom etgan harakat: Kecha ko‘chada besh soat yuribman.
Vaqt, makoni chegaralanmagan harakat	–	Vaqt, makoni chegaralangan harakat: Bugun bog‘ Ichida yarim soat tentirab yuribman.
Predmetga nisbatan yo‘nalishi ko‘rsatilmagan harakat	–	Predmetga nisbatan yo‘nalishi ko‘rsatilgan harakat: Bola onasi oldigacha pildirab yurib keldi.
Tirik jonzotlarning oyoq bilan bog‘liq harakati	+	Tirik jonzotlarning oyoq bilan bog‘liq harakati: dasturxon ustida hashorat yuribdi.
Insoniyatning oyoq bilan bog‘liq bo‘lmagan harakati	+	Insoniyatning oyoq bilan bog‘liq bo‘lmagan harakati: otda yurmoq
Butun tana, gavda bilan bog‘liq harakat	+	Butun tana, gavda bilan bog‘liq harakat: bog‘da ilon yuribdi.
transportlar (mashina, avtobus, poyezd, metro kabilar), mexanizmlar (masalan,soat) harakati	+	transportlar (mashina, avtobus, poyezd, metro kabilar), mexanizmlar (masalan,soat) harakati: metro soat 24:00gacha yuradi.

O‘zbek tilidagi mavjud bosma lug‘atlarning barchasi tezaurus ko‘rinishida bir yerda jamlanib, elektron onlayn shaklga aylantirilishi zarur. Rivojlangan davlatlar tilida tezaurus tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, rus tilshunosligida yaratilgan tezauruslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. So‘zning yoki til birligining morfologiya va sintaksisga aloqadorligi.
2. Talaffuz qilinishi.
3. Semantik tarkibi.

A) soʻzning asl maʼnosi;

B) sinonimi;

D) antonimi;

E) giperonimi;

F) giponimi.

4. Yaqin maʼnodagi soʻzlar.

5. Etimologiyasi.

6. Frazologizmlarda qoʻllanishi.

7. Boshqa tillarda qoʻllanishi¹⁶³.

Tildagi har bir leksik birlikka oid maʼlumotlar yuqorida keltirilgan tizimga asosan joylanadi. Misol tariqasida “*yurmoq*” leksemasining tezaurus modelini quyidagicha tasvirlash mumkin boʻladi:

1. Morfologiya va sintaksisda: *yurmoq* = *yur* + *-moq* (lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha)

A) feʼl soʻz turkumiga mansub, tuslanadi: *yurdim, yuryapman, yuradi; yurdik, yurasiz, yurdingiz(lar)*. Yetakchi feʼl (*uy tomon yurdi*) va koʻmakchi feʼl (*Kitobni hali ham oʻqib yuribdi*) boʻlib keladi;

B) bu leksemadan “*yuramol*”, *yuragʻon*” (*yuramol/yuragʻon ot*), “*yurishli*” (*yurishli aygʻir*) – sifat turkumi yasalgan;

C) “*yurish-turishi*”, “*yurish*” – faoliyat-jarayon oti.

D) bogʻlama vazifasida keladi: *sogʻ- salomat yuribsizmi?* (*sogʻ- salomatmisiz?*)

E) modal soʻz vazifasida qoʻllanadi: *yur, ketdik, kechikib bormaylik tagʻin!*

2. Talaffuz qilinishi: *yurmogʻ*

3. Maʼno tarkibi: *yurmoq* - “bir joydan boshqa joyga harakatlanmoq” maʼnosini anglatadi.

A) sinonimlari: *yurmoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam ranjida qilmoq;*

B) antonimi: *toʻxtamoq, dam olmoq, hordiq chiqarmoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *harakatlanmoq* – giperonim, *yurmoq*–giponim

¹⁶³ Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Asian Book House, 2020. – B.198.

E) giponimi: *qadam tashlamoq*– giponim, *yurmoq*- giperonim

H) yaqin ma’nodagi soʻzlari: oyoq yordamida, hayvon ustida (ot yoki eshakda), transportda, mexanizmlar; suvda, havoda harakatlanmoq

F) eng yaqin qarindoshlik soʻzlari: toza havoda *sayr qilmoq*, *aylanmoq*, *dunyo kezmoq*, *dunyo boʻylab sayohat qilmoq*, *gʻam- tashvishsiz hayot kechirmoq*

4. Etimologiyasi: qadimgi turkiy tilda ham xuddi shunday ma’noda (“*bir joydan boshqa joyga harakatlanmoq*”) ishlatilgan “yur” fe’li aslida “йоры” tarzida talaffuz qilingan boʻlib, keyinchalik “йуры”“, “йуру” shakllarida qoʻllangan: “йоры→йуры→йур” .

5. Frazologizmlarda yoki turgʻun birikma shaklida qoʻllanishi: *ogʻzi bilan yurmoq*, *tili bilan yurmoq*, *bosh koʻtarib yurmoq*.

6. Boshqa tillarda qoʻllanilishi. Ingliz va rus tilshunosligida mazkur birlik ma’nosida asosan “oyoq yordamida piyoda harakatlanish” semasida “*walk*”, “*ходумь*” leksemalari qoʻllaniladi, ammo mazkur tillarda bu birliklar transportda harakatlanishni ifodalash uchun ishlatilmaydi.

Yur- va *yur-*asosli soʻzlar turli grammatik shakllarni olgan holda nutqda faol qoʻllanadi.

2.3.1-jadval. *Yur-* va *yur-*asosli soʻzlarning grammatik shakllar kesimidagi qoʻllanish miqdori

Yur- va yur-asosli soʻzlar	Shaxs-son	Mayl	Zamon	Nisbat	Boʻlishsizlik	Funksional shakllar	Kelishik	Egalik	Koʻplik	Kichraytirish-erkalash
yur-	6	8	10	12		12				
yurish							6	6	12	12
yurmak							4	4	8	8
yurmoq							6	6	12	12
yurak							6	6	12	17
yurimsak							6	2	2	2
yurimsoq							6	4	2	2

2.3.2-jadval. Yur- va yur-asosli soʻzlarning qoʻllanish miqdori

Yur- va yur-asosli soʻzlar	Feʼl va otga xos grammatik kategoriyalar	Soʻzshakllar miqdori
yur-	Saxs-son, mayl,zamon, nisbat, boʻlishsizlik, funksional shakllar	48
yurish	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	36
yurmak	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	24
yurmoq	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	36
yurak	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	41
yurimsak	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	12
yurimsoq	Kelishik, egalik, koʻplik, kicraytirish-erkalash	14
Jami:		211

Nutqda *yur-* va *yur-asosli* 211 ta soʻz faol ishlatiladi. *Yur-* va *yur-asosli* soʻzlarning qoʻllanishi matn turi, uslubi bilan bevosita aloqador. Bu soʻzlarning badiiy uslubda qoʻllanish chastotasi yuqori.

“Yurish” semasini ifodalovchi boshqa leksemalarning semantik xususiyatlari va tezaurusi

Oʻzbek tilshunosligida “yurish” harakati semasini oʻzida ifoda etuvchi bir qator lugʻaviy birliklar mavjud. Ularni turkolog olim N.K.Dmitriyev tasnifiga asosan ikki turga ajratib tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1) harakat yoʻnalishini bildiruvchi 18 xil feʼl: *yoʻnalmoq, bormoq, kelmoq, ketmoq, tark etmoq, joʻnamoq, qaytmoq, kirmoq, chiqmoq, sayr qilmoq, sayohat qilmoq, kezmoq, aylanmoq, olib kelmoq, olib ketmoq, olib bormoq, qatnamoq, oʻtmoq*;

2) harakat usuli (tarzi)ni bildiruvchi 53 xil feʼl: *siljimoq, jilmoq, surilmoq, yurmoq, odimlamoq, qoʻzgʻalmoq, jadallamoq, yoʻrtmoq, ilgarilamoq, intilmoq, ildamlamoq, zingʻillamoq, dikillamoq, pildiramoq, zipillamoq, dikanglamoq, gandiraklamoq, yoʻrgʻalamoq, lapanglamoq, hakkalamoq, daydimoq, sangʻimoq, oralamoq, tentiramoq, sudralmoq, emaklamoq, oʻrmalamoq, yugurmoq, quvmoq, haydamoq, oqmoq, suzmoq, olib qochmoq, bosmoq, bosib olmoq, istilo qilmoq, bosib oʻtmoq, ergashmoq, uchmoq, yelmoq, qadam tashlamoq, qadam qoʻymoq, qadam bosmoq* kabi leksemalar; *tashrif buyurmoq, yoʻl boshlamoq, yoʻl olmoq, yoʻl solmoq, yoʻl bosmoq, yoʻlga tushmoq, yoʻlga otlanmoq, yoʻlga*

chiqmoq; boshini olib chiqib ketmoq, boshi og‘gan tomonga ketmoq kabi frazemalar.

Aslini olganda, yuqoridagi fe’llarning barchasi harakat yo‘nalishi va usulini ifodalab kelsa-da, birinchisida “bir joydan ikkinchi joyga ma’lum bir yo‘nalishda va bir xil usulda harakatlanish” semasi birlashtirib turibdi, ikkinchi guruh fe’llarda esa “bir joydan ikkinchi joyga ma’lum bir yo‘nalishda va turli xil usul, tarzda harakatlanish” (masalan, **siljimoq** fe’lida “*siljish*”, **ildamlamoq** fe’lida “*tez harakatlanish*”, **daydimoq** fe’lida “*darbadar kezish*”) semalari mujassam.

“Yurmoq” semali lug‘aviy birliklar guruhida “odimlamoq” leksemasi boshqa fe’llarga qaraganda og‘zaki nutqda kam qo‘llanadigan birlik sanalib, asosan yozma nutq uslubi, aniqrog‘i, badiiy va publitsistik uslublarida “sekin yoki tez harakatlanish, qadam tashlash, qadamlab o‘lchash” semalarini ifodalaydi. Sinxron nuqtayi nazardan u “qadam” leksemasining sinonimi “odim” so‘ziga –la fe’l yasovchi affiksining qo‘shilishi natijasida yasalgan. Mazkur leksema etimologiyasiga nazar tashlasak, “odim” oyoqni yerdan uzib, old tomon siljitishga teng masofa (*odimingni tezlashtir*), ot turkumiga mansub bo‘lib, u qadimgi turkiy tildagi “qadamla” ma’nosini anglatgan *a:d-* fe’lidan *-(i)m* qo‘shimchasi bilan yasalgan¹⁶⁴; o‘zbek tilida *a:* unlisi *â* unlisiga almashgan, *ï* unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: *a:d-* + *ïm* = *a:dïm* > *âdim*¹⁶⁵. Hozirgi kunda “*odimla*” fe’li *qadamla*, *ildamla*, *qadam tashla*, *qadam qo‘y*, *qadam bos* kabi fe’llar bilan bir sinonimik guruhni hosil qiladi. *Edigey..tanlov o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda dadil odimlab bormoqda*.

“Odimlamoq” leksemasining mutloq ekvivalenti “qadamlamoq” fe’li bo‘lib, nutq jarayonida ikkalasida ham ikki xil denotativ sema: bir yo‘nalishda harakatlanish va odimlab yoki qadamlab o‘lchash ma’nolari mavjud, ammo qadamlab o‘lchash ma’nosi bevosita “yurish” semasiga aloqador sanalmaganligi uchun bu haqda ishimizda to‘xtalmadik.

Yurish so‘zida oyoqni harakatlantirish; oyoqlardan birini ko‘tarib boshqa joyga ko‘chirish yoki ikkala oyoqni ketma-ket siljitish orqali oldinga yoki orqaga chekinish; biroz masofani bosib o‘tish uchun piyoda

¹⁶⁴ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. 1–IV.– М.: 1974-1989.– С.88.

¹⁶⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. –248 б.

borish; sekin, jiddiy yoki qat'iyat bilan yurish" denotativ semalari, "oyoq bilan harakatlanish" uning arxisemasi sanaladi. Masalan, *U binodan chiqib, tahririyatdan uncha uzoq bo'lmagan "Zarafshon" restorani tomon odimladi.* (Y.Xudoyqulova).

Yozuvchi Tog'ay Murod o'z asarlarida mazkur fe'lni badiiy tasvir vositasi sifatida har bir jumlada ketma-ket qo'llaydi va bu orqali qahramonlarning xatti-harakati uzoq muddatda davom etganligini ta'kidlaydi: *Qimmat momo Olapardan hadiksirab odimladi. Olapardan ko'z uzmay odimladi. Olaparni yonlab-yonlab odimladi. Ketiga qarab-qarab odimladi... Onamiz to'lib-toshib odimladi, bosar-tusarini bilmay odimladi!.. Onamiz toshlar bilan kesaklarni yanchib-yanchib odimladi! Onamiz giyohlarni ezib-ezib odimladi!* (T. Murod). *Normat xuddi askar kabi dast o'rnidan turdi-yu, asta ichkari uy tomon odimladi.* (Hordiq.uz). *Azimjon tugunni qo'yib, yo'lda changib ketgan etigi, ust-boshiga o'ng aysizlanib qaradi, tog'asi tomon odimladi.* (A. Muxtor).

Yuqorida keltirilgan misollarda "odimlamoq" fe'li insonga nisbatan ishlatilgan bo'lib, ba'zi hollarda insondan boshqa jonzotlarga nisbatan ham qo'llanilishi kuzatiladi: *Makiyon ketidan olam-jahon jo'ja odimladi.* (T. Murod). Ammo "**odimlamoq**"¹ fe'li nutqiy jarayonda yer yuzida oyoq bilan harakatlanadigan barcha tirik mavjudotlarga: insonga va insondan boshqa jonzotlarga nisbatan ishlatilganda uning denotativ semalari namoyon bo'ladi, deb xulosa qilib bo'lmaydi. *Odimlamoq* so'zi *yurmoq* so'ziga nisbatan sinonim, lekin bu so'zni jonzotlarga nisbatan qo'llab bolmaydi. Bu so'z faqat insonlarga nisbatan ishlatiladi. Badiiy matnda ta'sirchanlikni oshirish uchun jonsiz voqelikka, jonzotlarga nisbatan qo'llanadi.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq mazkur fe'lning semantik tarkibida quyidagi konnotativ semalar mujassam:

"**odimlamoq**"¹ – o'sish, rivojlanish sur'ati, shaxdamlik, ildamlik bilan, dadil qadam tashlash, doimo olg'a intilish (bu metafora usulda so'z ma'nosining ko'chishi): *Doimo yangilanish sari odimla! Yashayapsanmi, demak harakat qil, maqsading sari dadil odimla! Tanlagan yo'lingda tinmay odimla, soyang istasa, kelsin, istamasa kelmasin! Universitetimiz yangi ufqlar sari odimlayversin! Tibbiyot 10 qadam oldinga odimladi.*

(Aniq.uz). Buning uchun muayyan bir harakatni boshlash: *Nima qilishni bilmagan onda oldinga bir qadam **odimla**, chunki harakatsizlik qo‘rquvni, ildamlash esa ishonchni orttiradi. O‘zini jannatmakon yurtimizning haqiqiy fuqarosi deb his qilgan holda ertangi porloq kelajak sari dadil **odimlayotir**.* (Mirishkorpess.uz). *Viloyatning boshqa tumanlari mehnatkashlari ham birin-ketin zafar marrasini egallash sari **odimlayotir**. Shunga qaramay u, o‘zi tanlagan haq yo‘lida ildam **odimladi**.* (Uza.uz). *“Barselona” o‘z rekordini yangilash sari dadil **odimlamoqda**. Kibersport Osiyo o‘yinlari sari **odimlamoqda**.* (Kun.uz). *Meva-sabzavot eksporti kelajak sari **odimlamoqda**.* (“O‘zbekoziqovqatxolding”). ...tanlov o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda dadil odimlab bormoqda (qalampir.uz)

“odimlamoq”² – badiiy nutqda insondan tashqari jonsiz predmetlarga nisbatan ham qo‘llanilish holatlari kuzatiladi (bu metafora usulda so‘z ma’nosining ko‘chishi): *Og‘ir-ogir odimlaydir bu karvon, Buyuklar omonat, pastlar omonat, Afsuslar omondir, xiyonat omon, Raddi balo bo‘lgur kaslar omonat.* (R. Parfi). Mazkur misolda aynan “yurmoq” semasi o‘rnida qo‘llangan.

“odimlamoq”³ – muayyan hududga mansub insonlarning xatti-harakati, faoliyati, dadil qadam tashlashi, intilishi uning yashash joyi yoki shug‘ullanayotgan sohasi orqali ifodalanishi, ya’ni bunda Eron odimladi emas, aslida eronliklar yadro sohasida jiddiy yutuqlarga erishganligi nazarda tutiladi. Demak ushbu gapda ikki xil ma’no ko‘chishi yuz bergan: “Eron” so‘zida metonimiya, “odimladi” (aynan ko‘zlangan maqsadga erishmoq ma’nosida)da esa metafora usulida so‘z ma’nosining ko‘chishi ro‘y bergan. *Eron yadro sohasida jiddiy **odimladi**.* (Kun.uz). *Charlstonida Xotin-qizlar tennis uyushmasi tomonidan o‘tkazilayotgan musobaqada ukrainalik tennischi Katerina Kozlova dastlabki bosqichdan g‘alabali **odimladi**.* (g‘alabani qo‘lga kiritmoq, unga erishmoq). *Bokschilarimiz jahon chempionatida muvaffaqiyatli **odimlamoqda*** (Sport.uz). *Erkaklar o‘rtasida 54 kg vaznda o‘zbekistonlik Omonjon Otajonov yarim finalga qadar mag‘lubiyatsiz **odimladi**.* (Olamsport.com). *“Mag‘lubiyatsiz odimladi”* birikmasi ma’nosi aynan “g‘alabali odimladi” ma’nosiga teng birikma.

“Odimlamoq” fe’lining tezaurus modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: *a:d+im+la* morfemalarning ketma-ket qo‘shilishidan leksema hosil bo‘lgan.

Fe‘l so‘z turkumiga mansub, tuslanadi: *odimladim, odimlamoqda, odimladi; odimlasak, odimlaysiz, odimladingiz;*

2.Talaffuz qilinishi: *ādīmla*

3. Ma’no tarkibi: *odimlamoq* - “bir joydan boshqa joyga qadam tashlab harakatlanmoq, kelmoq, yurmoq, intilmoq” ma’nolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *yurmoq, qadam tashlamoq, qadam qo‘ymoq, intilmoq, rivojlanmoq;*

B) antonimi: *to‘xtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *yurmoq* – giperonim, *odimlamoq* – giponim (troponim)

E) giponim (troponim)i: *qadam qo‘ymoq* – giponim (troponim), *odimlamoq* - giperonim

H) yaqin ma’nodagi so‘zlar: *oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, vaqt.*

4. Etimologiyasi: “*odimla*” asli turkiy tilga mansub so‘z bo‘lib, “qadamla” ma’nosini anglatgan *a:d-* fe’liga *-(i)m, -la* affikslarini qo‘shish bilan yasalgan, “*ikkala oyoqni ketma-ket siljitish orqali oldinga yoki orqaga chekinish, uzluksiz harakat*” ma’nolarini anglatadi;

5. Turli xil lug‘aviy birliklar (leksemalar) o‘rnida qo‘llanilishi: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qo‘ymoq, qadam olmoq, qadamlamoq;*

6. Boshqa tillarda qo‘llanishi, Ingliz tilida “*step*”, nemis tilida “*schreiten (schritt, geschritten)*”, rus tilida “*uazamb*”, turk tilida “*adım, ayakla, adım atmak*”.

“Yurish” semali leksemalarning o‘zaro semantik munosabatlari

Elektron tezaurus lug‘atlarning yana bir foydali tomoni shundaki, unda lisoniy birliklarning leksik-semantik: paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga keng e’tibor qaratiladi. Paradigmatik munosabatlar bir xil sintaktik muhitda bir-biri bilan almashtiriladigan til birliklari o‘rtasida namoyon bo‘lsa, sintagmatik munosabatlar esa sintaktik munosabatda birga kelgan til birliklari o‘rtasida mavjud deb qaraladi. Ushbu munosabatlar

leksik birliklarning semantik jihatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, ingliz tilining katta leksik ma’lumotlar bazasi – WordNetda so‘zlar o‘rtasidagi quyidagi semantik munosabatlar qayd etiladi:

2.4-rasm

Table 3
Semantic relations in WordNet.

Semantic Relation	Syntactic Category	Examples
Synonymy (similar)	Noun Verb Adj Adv	pipe, tube rise, ascend sad, unhappy rapidly, speedily
Antonymy (opposite)	Adj Adv Noun Verb	wet, dry rapidly, slowly top, bottom rise, fall
Hyponymy (subordinate)	Noun	sugar maple, maple maple, tree tree, plant
Meronymy (part)	Noun	brim, hat gin, martini ship, fleet
Troponymy (manner)	Verb	march, walk whisper, speak
Entailment	Verb	drive, ride divorce, marry
Derivation	Adj Adv	magnetic, magnetism simply, simple

WordNetda mana shu leksik-semantik munosabatlardan gipogiperonim munosabati asosan ot turkumidagi sinsetlarga mansubligi, fe’llarda esa troponim-gipernim munosabati yetakchilik qilishi keltiriladi: fe’llarda “troponim” atamasi “giponim” o‘rnida ishlatiladi, fe’llar orasidagi troponimiya munosabati quyidagi formula bilan izohlanadi: “To V, is to V in a all a spicularly”, bunda V – gipernim V ning troponimi. Tilshunoslikda troponimiya konsepsiyasi dastlab Kristian Fellbaum va Jorj Miller tomonidan taklif qilingan. Ular keltirgan ba’zi misollarga e’tibor qaratamiz: *ovqatlanish* – gipernim yoki giperonim birlik sanalganda “*tishlash* – troponim yoki giponim, ya’ni bu ovqatlanishning ma’lum bir usulidir”¹⁶⁶.

Ikki yuzdan ortiq tillardagi so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni o‘z ichiga qamrab olgan WordNET – leksik ma’lumotlar

¹⁶⁶ George Miller, Christiane Fellbaum, Derek Gross, Katherine J. Miller. Introduction to WordNet: An On-line Lexical Database. // International Journal of Lexicography. Volume 3. Issue 4. Winter 1990.– P. 235–244// <https://doi.org/10.1093/ijl/3.4>.

bazasida fe'l sinsetlari o'zaro turli xil munosabatlar (gipo–gipernim, troponim–gipernim, ko-giponim–gipernim) orqali bog'langan bo'lsa-da, lekin troponim-gipernim munosabati fe'l sinsetlari orasida asosiy va eng ko'p uchraydigan munosabatdir ¹⁶⁷ Agar gipernim mavhum, umumlashtirilgan ma'nodagi fe'l bo'lsa, troponim gipernimning biror narsa qilish usulini aniqroq ko'rsatib berish maqsadida muloqot jarayonida kengroq ishlatiladi.

Shuni qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida harakat fe'llari keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsa-da, shu paytgacha biror o'rinda troponim-gipernim munosabati, aniqrog'i, "troponim" termini haqida fikr-mulohazalar berilmagan ¹⁶⁸. Ammo troponimiya hodisasi, shu nom bilan atalmagan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati dastavval Alisher Navoiy tomonidan o'rta tashlangan. Buyuk mutafakkir turkiy tillardagi *yig'lamoq*, *ichmoq* kabi bir qator harakat leksemalarining turli semalarini ifodalovchi birliklarni keltirish asosida troponimiyaning mohiyatini ochib bergan: *sipqarmoq*, *tomshimoq* – troponim, *ichmoq* esa ular uchun gipernim; *yig'lamsinmoq*, *ingramoq* *singramoq* *siqtamoq*, *o'kurmak*, *inichkirmak* – troponim, *yig'lamoq* – barchasi uchun gipernimdir

Troponimiya WordNet ma'lumotlar bazasining semantik tarmog'idagi fe'llar o'rtasidagi mavjud munosabatlardan biridir. Aniqroq aytganda, troponimiya – mazmunan yaqin leksik birliklarning troponim-gipernim, ya'ni aniq va umumiy tushunchalarni ifodalashi jihatidan ular o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlarni o'zida aks ettiruvchi semantik munosabati turi. Troponim esa ma'no jihatdan boshqa so'zlarga qaraganda aniqroq so'zdir, gipernim esa kengroq ma'no doirasini o'z ichiga olgan umumiyroq atamadir. Misol uchun, "yurmoq" leksemasi "*harakat qilmoq*"ning troponimidir, chunki u harakatlanishga qaraganda aniqroq usulni ko'rsatuvchi birlikdir, "*qadam tashlamoq*, *qadam bosmoq*" fe'llari esa yurishning aniqroq ko'rinishini anglatgani uchun "yurmoq" leksemasining


¹⁶⁷ Fellbaum C. and Miller G. 1990. Folk psychology or semantic entailment? A reply to Rips and Conrad. The Psychological Review. 97. – P.565-570.

¹⁶⁸ Холиков К. Ўзбек тилида ҳаракат йўналишини конкретлаштирувчи феъллар таснифига доир // ТошДУ илмий асарлар тўплами. 2-қисм. 501- сон. – Toshkent, 1976. – Б.82; Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Toshkent, 1989.– 141 б.; Muhamedova S. Harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish (metodik qo'llanma). –Toshkent: ToshDPU, 2006. – B. 16-18.; Abjalova M., Elmurod Sh. O'zbek tezaus lug'ati uchun sifat turkumi bazasini yaratish masalasi. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya. – Toshkent, 2021. – №.01 – B.189-193.

troponimdir. Ayni damda “yurmoq” fe’li *qadam tashlamoq*, *qadam bosmoq* leksemasi uchun gipernim, “*harakat qilmoq*” fe’li uchun esa troponim sanalgani uchun avtogiponim (autohyponym)dir¹⁶⁹.

Troponim-gipernim munosabatlari iyerarxik, ya’ni vertikal shakldadir. Shuning uchun bu iyerarxiyaning eng yuqorida gipernimlar va quyisida shunga mos keladigan troponimlar joylashadi, tarmoq yanada kengaytiriladi, natijada yuqoridagi sinsetlar bilan ulkan fe’l to’ri yaratiladi. Eng quyi qismida joylashgan, fe’l sinseti yuqoridagilarga qaraganda aniq tushunchani ifodalaydi. Buni quyidagi jadvalda ko’rish mumkin:

2.5-chizma



Chizmada gipernim “G”, troponim “T” belgisi yordamida ifodalanib, bu yerda “yurmoq” fe’li “harakatlanmoq” birligi uchun troponim bo’lsa, harakat usuli, tezligi va sekinligini anglatuvchi fe’llar guruhi uchun gipernim, o’zida ham giperonim, ham troponim munosabatini shakllantirgani uchun avtogiponim hisoblanadi. Shu bois mazkur fe’l o’z navbatida ham gipernim, ham troponim bo’lganligi uchun unga “GT” belgi qayd etilgan. “Harakatlanmoq” fe’lining troponim (giponim)lari “uchmoq”,

¹⁶⁹ Becker Th. Autohyponymy: Implicature in Lexical Semantics, Word Formation, and Grammar June 2002 Journal of Germanic Linguistics 14(02). – P.105 -136.

“yurmoq”, “suzmoq” fe’llari bir-biri bilan o‘zaro kogiponim (co-hyponymy)¹⁷⁰ munosabatda bo‘ladi.

Manbalarda ta’kidlanganidek, fe’llarda holo-meronim (butun-qism) munosabati kuzatilmaydi¹⁷¹. Chunki bir necha qismlardan iborat aniq predmetda, asosan, ot so‘z turkumida mazkur munosabat yaqqol ko‘zga tashlanadi, fe’llar esa harakat, faoliyat yoki jarayonni ifodalaydi. Masalan: **otlarda:** “mashina” → “g‘ildirak” (mashina g‘ildirakdan iborat, ya’ni holo-meronimik munosabat mavjud); **fe’llarda:** “yurish”, “o‘tirish” kabi fe’llar esa qismlarga ajratilmaydi, shu sabab ularda butun-qism munosabati mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlarga farqli o‘laroq “yurmoq” semali fe’llarning darajalanish qatorini quyidagicha shakllantirish mumkin:

2.6-jadval

A	B	C	D	E	F
sudralmoq, jilmoq, siljimoq, surilmoq (*)	emaklamoq, o‘rmalamoq (**)	gandiraklamoq, tentiramoq, yo‘rg‘alamoq, pildiramoq (***)	dikanglamoq, lapanglamoq (****)	yurmoq, kezmoq, sayr qilmoq, aylanmoq (*****)	yugurmoq, chopmoq, yelmoq (*****)

Ushbu graduonimiya mavjud tirik jonzotlarning, xususan, inson bolasining dunyoga kelgandan keyin yurish uchun bajariladigan dastlabki xatti-harakatlari misolida tuzildi. Gorizontal chizmada “A” boshlang‘ich nuqtadan “F” nuqtagacha sodir bo‘lgan harakatning tez sur’atda jadallashib borishi “yurish” semali lug‘aviy birliklarning guruhlanishida darajalanishni yuzaga keltirgan bo‘lib, bu nafaqat tanlangan leksik materialni samarali tizimlashtirish, balki har qanday matnni sifatli avtomatik tarjima qilish imkoniyatini oshiradi, lug‘atni tavsiflashda esa mantiqiy va semantik yondashuvlarni o‘zida mujassam etgan holda uning dolzarbligi va samaradorligini ham ko‘rsatadi.

¹⁷⁰Julie Weeds, Daoud Clarke, Jeremy Reffin, David Weir and Bill Keller Learning to Distinguish Hypernyms and Co-Hyponyms. Proceedings of Coling 2014, the 25th International Conference on Computational Linguistics: Technical Papers. – Dublin, Ireland, August 23-29 2014. – P. 2249–2259.

¹⁷¹Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси таъйини асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003.; Юнусова З. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004.

III BOB. “YURISH” SEMALI FRAZEMALAR SEMANTIKASI VA TEZAVURUSI

“Yur-” asosli frazemalarning semantik xususiyatlari va tezavurusi

Zamonaviy leksikografiya rivoji uchun, qolaversa, istalgan tilni o‘zlashtirishda ham so‘z boyligi sanalgan lug‘aviy birliklarni o‘rganish juda muhim, chunki u har qanday tilni o‘rganishning asosi sanaladi. Bugungi kunda barchaga sir emaski, elektron shakldagi lug‘atlar bosma nashrdagi izohli lug‘atlardan bir qator afzallik jihatlari: qulayligi, kamxarjligi, leksik birliklarning paradigmatic, sintagmatic, iyerarxik munosabatlari asosida yuzaga kelgan turli xil ma’nolarni jamlagan holda bir joyda berish imkoniyatining mavjudligi bilan tubdan farq qiladi. Shu sababdan hozirgi vaqtda lingvistik tadqiqotlarning aksariyati bu kabi zamonaviy lug‘atlarni yaratishga, buning uchun, avvalo, lug‘aviy birliklarning semantikasi bilan bir qatorda frazemalar semantikasini ishlab chiqishga qaratilgan.

O‘zbek tili frazeologiyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, frazemalar tizimining ilmiy shakllanishi va rivojlanishida professor Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos¹⁷². Olim o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha o‘tgan asrning o‘rtalaridan ish boshlagan. Bu mavzuda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozgan, bir necha o‘nlab kitoblar, yuzlab ilmiy maqolalar e‘lon qilgan¹⁷³. XX asrning oxirlariga kelib, bu borada B.Yo‘ldoshev va aka-uka Abdumurod va Abdug‘afur Mamatovlarning xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. B.Yo‘ldoshev frazem birliklarning konnotativ ma’nolari, tasviriy vosita sifatidagi xususiyatlarini keng monografik rejada yoritgan bo‘lsa, professor Abdumurod Mamatov frazeologik me‘yor muammosini hal qilishga harakat qildi. Professor Abdug‘afur Mamatovning tadqiqotlarida esa frazemalarning shakllanish muammolari kun tartibiga ko‘tarildi, uning paydo bo‘lish omillari aniqlandi¹⁷⁴.

¹⁷² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореф. –Тошкент, 1966.–Б.46;

¹⁷³ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya).–Toshkent: Turon-iqbol, 2021.– B.160.

¹⁷⁴ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри дисс...автореф. –Тошкент, 1993. –47 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 486.

Fe'l frazemalari til leksik tizimining eng murakkab va markaziy birligidir. Til tizimining birligi sifatida yo'nalma harakat semali frazemalarni har tomonlama o'rganish hozirgi zamon tilshunosligida leksikografik va semantik masalalarni hal qilishda ahamiyatlidir. Fe'l frazemasini aniqlashda ularning sintaktik qurilishi, ma'noviy xususiyatlari, unga bog'lanuvchi birliklarga e'tibor qaratish lozim. Fe'l semantikasi, birinchi navbatda, fe'l sintaktik xatti-harakatlarining turli shakllarini aniq chegaralaydi. Ushbu shakllarning har biri bir yoki bir nechta almashinish, ya'ni ekvivalent birliklar bilan tavsiflanadi. So'ngra fe'l frazemalari ushbu o'zgarishlarga ko'ra tahlil qilinadi: har bir fe'l frazemasini o'z o'rnini bosadigan ekvivalent birliklar bilan almashinadi. Sh.Rahmatullayev mazkur holatga frazema tarkibi va tuzilishi, boshqa leksik birliklar bilan bog'lashuvi hamda uning turlarini belgilash nuqtayi nazaridan yondashgan¹⁷⁵.

Ma'lumki, til birligiga xos ochiq o'rinni egallaydigan birlikka partnyor deyiladi¹⁷⁶. Partnyor bu o'zbek tilida asosan shaxsga nisbatan ishlatiladigan "hamkor, sherik" leksemalari o'rnida qo'llanuvchi so'z sanaladi. Mazkur so'zni tilshunos Sh.Rahmatullayev "bog'lashuvchilar"¹⁷⁷ deb nomlaydi va "bog'lashuv" aslida barcha turkum leksemalariga xosligini, ammo fe'llarda bu jarayon nihoyatda kuchli ekanligini alohida ta'kidlaydi. Demak, fe'l turkumiga oid leksik birliklarning partnyorlari sifatida unga mazmun va grammatik jihatdan bog'lanuvchi birliklar – muayyan so'zga tobelanib keluvchi, bo'sh o'rinni to'ldiruvchi aktantlarni tushunamiz. Partnyorlar miqdoriga ko'ra leksemalarning avalentli (bog'lashuvsiz), monovalentli (bir bog'lashuvli), divalentli (ikki bog'lashuvli), uch valentli (uch bog'lashuvli) guruhlari mavjud¹⁷⁸. Fe'l-leksemalarda bog'lashuv ikki xil holatda namoyon bo'ladi¹⁷⁹:

1. Fe'l-leksema yoki fe'l-frazema boshqa bir leksik birlikni o'ziga bog'laydi, bog'lov amalga oshadi. Masalan: *Kecha xorijliklar yurtimizga*

¹⁷⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.—Тошкент: Университет, 1992. — Б 3-5; шу муаллиф. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлиlining баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1986. — № 3. — Б.19-20.

¹⁷⁶ Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблемы валентности в современном немецком языке. —М.: Высшая школа, 1978. — С.170-171.

¹⁷⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.—Тошкент: Университет, 1992. — Б. 3-5

¹⁷⁸ Степанова М.Д., Хельбиг Г. Указанная литература. — С. 170-171.

¹⁷⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.—Тошкент: Университет, 1992. — Б. 3-5.

tashrif buyurishdi. Bu gapda *tashrif buyurishdi* bog‘latuvchi, qolgan birliklar bog‘lanuvchilar sanaladi.

3.1-chizma



2. Fe‘l-leksema boshqa bir leksik birlikka bog‘lanadi, bog‘lov amalga oshadi. M: *Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra* maqolida *yurgan inson* bog‘lashuvida *yurgan* fe‘l-leksema *inson* lug‘aviy birligiga bog‘langan. Shu sababdan mazkur misolda *yurgan* fe‘li bog‘lanuvchi, *inson* bog‘latuvchi hisoblanadi. Bog‘lanuvchining tushib qolishi natijasida fe‘lning sifatdash shakli otlashgan.

Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq so‘zning birikib, yaxlit ma’no ifodalashiga xizmat qiladigan til birliklaridir. Barqaror birikmalar ma’lum vaqt davomida shakllanadi, lug‘aviy ma’noning yuzaga kelishi muayyan tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Shu bois barqaror birikmalar tilning madaniy belgilarini to‘plash, aks ettirish, keyingi davrga yetkazish xususiyatiga ega. Ma’lum davrda qo‘llangan, keyinchalik iste’moldan chiqqan leksik birliklar ham barqaror birikmalar tarkibida saqlanib qoladi. Barqaror birikmalar ma’no kengayishi, ma’no torayishi hodisasini ham o‘zida aks ettiradi.

Barqaror birikmalar sifatida maqollar, hikmatli so‘zlar, frazemalar qayd etilgan.

Barqaror birikmalarda, jumladan maqollarda *yur-* fe‘lining erkin birikmalarda kuzatilmagan ma’nolari uchraydi:

1) *Yomonga o‘lim yo‘q, Yaxshiga – yurim* maqolidagi *yurim* so‘zi *yur-* asosidan shakllangan bo‘lib, “hayot” ma’nosini ifodalagan. *Och yur, tinch yur* maqolida ham *yur-* “hayot, umr kechirish, yashash” ma’nolarini anglatadi. *Nomussiz yurmoqdan nomusli o‘lmoq* yaxshi maqolida ham “yashash, umr kechirish ” ma’nolari aks etgan;

2) *Achchig‘ing oldin yursa, Aqling keynidan oshib kelsin* maqolida *yurmoq* harakat leksemasi jahl qilish jarayonining sodir bo‘lishini ifodalagan. *Achchiq* so‘zlashuv uslubi va shevalarda “jah!” ma’nosida qo‘llanadi. *Achchiq* – ot. Qahr, jahl; zarda. *Achchig‘i burnining ustida* (yoki uchida) – bekorga, sal narsaga jahli chiqaveradigan inson haqida; *achchig‘i kelmoq* (yoki chiqmoq, qistamoq) – jahli qo‘zg‘amoq; *achchiq ustida* – jahl qo‘zg‘agan paytda; *achchiq qilmoq* – jahl qilmoq, zarda qilmoq. *Achchiq* asosidan yasalgan fe‘llar ham jahl chiqish jarayonini ifodalaydi: *achchiqlanmoq* “jahli chiqmoq, g‘azablanmoq”; *achchiqlashmoq* “o‘zaro kelishmaslik sababli xafalashmoq”¹⁸⁰;

3) *Dono bilan yursang, dono bo‘lasan, Ahmoq bilan yursang, rasvo bo‘lasan; Yaxshi bilan yurding – yetding murodga, yomon bilan yurding – qolding uyatga* maqollarida *yurmoq* “yaqinlashmoq”, “hayot kechirmoq”, “faoliyat yuritmoq” semalarini ifodalab kelgan.

4) *Er yursa, yo‘li ochilar, Xotin yursa, yuzi ochilar* maqolida “*yur*” fe‘li turkiy xalqlarga xos ikki xil madaniy fonda: erkaklarga nisbatan qo‘llanilganda ijobiy sema, ayollarga nisbatan ishlatilganda salbiy ma‘no (behayo, beibo) kasb etgan. Quyidagi maqolda esa faqat salbiy fon mujassam: *Sayoq yurgan tayoq yer*.

5) *Ko‘rmaganning ko‘rgani, Yurmaganning yurgani yomon* maqolida shaxsning “tor doiradan tashqariga chiqish” holatini ifoda etgan.

6) *Boyning iti hurag‘on, Oti yurag‘on bo‘lar* maqolidagi *yurag‘on* “*harakat imkoniyatining kengligi*”ni aks ettirgan. *Boy* leksemasidagi “imkoniyati kenglik” semasi mazkur leksema denotatiga aloqador jonzoatlarga ko‘chgan.

Yur- asosli leksemalar barqaror birikmalar tarkibida kelib, ko‘chma ma‘nodagi semantikasi yuzaga keltirishga xizmat qiladi: *Teshaboyvachcha qilviriqning shoxida yursa, Madumar mingboshi bargida yuradi* (M.Ismoilij). Mazkur barqaror birikmadagi *yurmoq* amalga oshirish mumkin bo‘lmagan harakatni ifodalab kelgan. *Qilviriq* – *qil* asosidan yasalgan o‘simlik nomi. *Qil* 1. Ot va ba’zi boshqa hayvonlar dumi yoki yolining har bir tolasini; umuman, jun, soch, mo‘y va sh.k.ning tolasini. 2 s.t.

¹⁸⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B.123.

esk. Musiqa asboblarning tebranganda ovoz chiqaradigan ipi; tor¹⁸¹. Qil ishtirok etgan *qilich, qilko‘prik, qiltanoq, qiltiq, qiltomoq, qilcha, qilchalik, qilqalam* leksemalarida, *oralaridan qil (ham) o‘tmaydi, xamirdan qil sug‘urganday, yuragiga* (yoki *ko‘ngliga*) *qil sig‘maydi, qil (ning) ustida o‘tirmoq, qildan qiyiq axtarmoq, qilni qirq yormoq* frazemalarida “ingichkalik” semasi aks etgan. *Qilviriq* “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilmagan. *Qilviriq* semantikasida aks etgan “ingichkalik” semasi asosidagi “noziklik” tushunchasi barqaror birikmada dastavval, *shoxga*, keyin esa *bargga* ko‘chirilgan. *Barg* leksemasidagi “noziklik” *shox* birligiga qaraganda yuqori darajada ifodalangan. *Shoxida yurmoq, bargida yurmoq* murakkab tarkibli frazemaga aylangan bo‘lib, “uddaburon” semasini ifodalashga xizmat qiladi. *Sen shoxida yursang, men bargida yuradiganlardanman!* (O.Yoqubov) misolida ham frazemaning “*uddaburonlik*” semasi aks etganligini kuzatish mumkin.

Yurmoq leksemasi maqollardagi frazemalar tarkibida kelib, turli semantika ifodalashda yadro vazifasini o‘tagan. *Kambag‘alning ovi yurmas, ovi yursa ham dovi yurmas* maqolida *dovi yurmoq* frazemasini “ishi yurishmaslik”, “omadi kelmaslik” semalarini ifodalab kelgan. Maqol tarkibidagi *dov* so‘zi arxaiklashgan bo‘lib, hozirda mustaqil qo‘llanmaydi. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanayotgan *dov-darak, dov-daraxt, dov-dastak, dov-janjali* juft so‘zlari, *dovdir, dovdiramoq, dovdiratmoq, dovdirlik, dovlamoq* leksemalari tarkibida kelib, turli semantikadagi lug‘aviy ma’nolarni yuzaga chiqarishda ishtirok etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da to‘rt xil ma’nodagi *dov* so‘zi izohlangan: *dov* I 1 Bo‘yi baland, yo‘g‘on va baquvvat. 2 *ko‘chma* Jur‘at, botinish; dadillik. *Ko‘ngli* (yoki *yuragi*) *dov bermaslik* Botina olmaslik, jur‘at qila olmaslik; *dov* II [f.] O‘z haq-huquqini tasdiqlash yoki qondirish haqidagi talab, da’vo, tortishuv; *dov* III [f.] o‘yinda o‘rtadagi pulni ko‘paytirish] Qimorda o‘rtaga tikilgan pul yoki boshqa qimmatli narsa; *dov* IV *folk*. Urush, janjal; kurashuv, olishuv¹⁸². Frazema tarkibidagi so‘z *dov* II omonimining ma’nosiga aloqador bo‘lib, “talab, da’vo” semalarini ifodalagan. “Talab, da’vo”ning qondirilmasligi *ko‘chma* ma’noda “ishi yurishmaslik” semasini yuzaga

¹⁸¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B.290.

¹⁸² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B.633.

chiqargan. *Dovi yurmoq* frazeması aksariyat o‘rinlarda bo‘lishsiz shaklda va shu mazmunda ishlatiladi. Ayrim o‘rinlarda bo‘lishli holati ham uchraydi: *Ovi yurganning dovi yurar (maqol)*.

Chapga yurmoq frazeması, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, “xiyonat qilmoq”, “qing‘ir ish qilmoq” ma‘nolarini ifodalaydi.

Tilshunos Sh.Rahmatullayev fikricha, frazema kamida ikki leksemadan iborat bo‘lib, fe‘l frazemalarda tayanch a‘zo fe‘l-leksemalar bilan, notayanch a‘zo(lar) asosan ot-leksemalar bilan, qolaversa, boshqa turkum leksemalar bilan ifodalanadi¹⁸³. Olim fe‘l frazemalarni tadqiq etar ekan, sintaktik qurilishiga ko‘ra ikkita yirik guruhga ajratadi:

1. Sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga teng frazemalar: *tuproqdan tashqarida yurmoq, ovi yurgan* kabilar. Masalan: *Hammani to‘ydirish g‘amida yuradi–yu, o‘zi to‘yib non yemaydi (Hamid G‘ulom)* *Avaz bu vaqtgacha Davlatbekov to‘g‘risida juda yomon fikrda yurganidan izza bo‘ldi (Pirimqul Qodirov)*. *Brigadir yo‘rig‘iga yurmasa, bor-e deb hammasiga qo‘l siltab ketib ham qolardi (Z.Qurolboy qizi)*. *Otang, akalaring yo‘lidan yursang, kam bo‘lmaysan, bolam!.. (O.Yoqubov)*.

2. Sintaktik qurilishi predikativ sintagma (gap)ga teng frazemalar: *aql bitmadi, bosh(i) shishdi*¹⁸⁴. Bu kabi frazemalar tarkibida ega vazifasidagi so‘z, ya‘ni uning muqim grammatik shakli bosh kelishik shaklidagi leksema mavjudligi sabab gap egasi bilan bog‘lanish hosil qilmaydi. Bundan tashqari frazema to‘laligicha gap qolipida ham shakllangan bo‘lishi mumkin: *Sen shoxida yursang, men bargida yuraman, buni bilib qo‘y...(O.Yoqubov)*.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, *yur-* asosli fe‘l-leksemalar frazemalar tarkibida kelib, turli usubiy-semantik xususiyatlarni ifoda etadi, nutqda sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga hamda predikativ sintagma (gap)ga teng *yur-* asosli fe‘l- frazemalar uchraydi. Masalan, “*yurgiligi qolmadi*”- predikativ sintagma (gap)ga teng frazeologik birlik, chunki “*yurgilik*” leksemasi faqat “*qolmadi*” fe‘li bilan birikkandagina yaxlit ko‘chma ma‘noni ifodalaydi, ya‘ni bu so‘z nutqda yakka holda qo‘llanmaydi (izohli lug‘atlarda faqat “*yurgiligi*” leksemasi

¹⁸³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.—Тошкент: Университет, 1992. — Б. 3-5.

¹⁸⁴ Раҳматуллаев Ш. Ко‘rsatilgan manba.— Б. 3-5.

izohi keltirilgan): *Oqtosh elda yurgiligim qolmadi. Yurgiligim qolmadi* frazeması mustaqil komponentlarga ajralmaydi. Masalan, *qulog‘iga quymoq* frazeması struktur jihatdan *quloq+qolmadi* komponentlaridan hosil bo‘lgan butunlik. Ammo yuqoridagi frazemani *yurgilik(+im)+qolmadi* komponentlariga ajratib bo‘lmaydi. *Yurgilik* butunligi *ko‘rgilik* leksemasi qolipida yasalgan: *ko‘r+gılık, yur+gılık*. Bunda o‘zbek tilidagi grammatik manbalarda qayd etilmagan *-gılık* murakkab affiksi qo‘llangan; *ko‘rgilik* so‘zi mustaqil qo‘llanadi, ammo *yurgilik* mustaqil ishlatilmaydi. Har doim frazema tarkibida keladi. Bu esa bir xil qolipdagi so‘zshakllarning intralingvistik omillarga ko‘ra har xil kategorial mezonlarga xoslanishini ko‘rsatadi.

Og‘zi bilan yurmoq, tili bilan yurmoq, bosh ko‘tarib yurmoq frazemalari ham *yurmoq* fe‘lining turli semalariga asoslanadi. “*Tili bilan yurmoq*”, “*oyog‘i bilan emas, og‘zi bilan yuradigan odamlar ham bor*” kabi jumalarda kundalik hayoti tinimsiz g‘iybat qilish bilan o‘tadigan insonlar nazarda tutilgan bo‘lib, ular ham mavjud lug‘atlarda o‘z aksini topmagan.

“Yurish” semasini ifodalovchi boshqa shakldagi frazemalarning semantik xususiyatlari va tezaurusi

“Qadam tashlamoq” frazemasining semantik xususiyatlari va tezaurusi

O‘zbek tilida “qadam tashlamoq” fe‘li sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga teng frazemalar qatoriga mansub bo‘lib, uning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turkiy tilga mansub “adim” so‘zining sinonimi hisoblangan **“qadam”** asli arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, “oyoq kafti, tovon; oyoq, odim” ma’nolarini anglatadi¹⁸⁵. “Qadama” (قَدَمَه) fe‘lining “oldinga bordi” ma’nosi asosida hosil qilingan¹⁸⁶. Arab tilidan “oyoqni old tomonga tashlab qilingan har bir harakat” ma’nosi bilan qabul qilingan¹⁸⁷. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “qadam” so‘zi son

¹⁸⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд – Тошкент: ЎзМЭ, 2008.– Б. 202-203.

¹⁸⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд.–Тошкент: Университет, 2000. – Б.520. www.ziyouz.com kutubxonasi

¹⁸⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – М.: Рус тили – 1981.

turkumiga oid soʻz bilan yonma-yon qoʻllanganda numerativ va alohida kelganda mustaqil leksema ot turkumiga mansub birlik sifatida tahlil qilinadi. Tilimizda “**qadam**” soʻzi bilan bogʻliq frazeologik birliklar mavjud boʻlib, ularni quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) Ikki aʼzoli feʼl-frazemalar: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qoʻymoq, qadam olmoq, qadam(i) yetmoq, qadam uzmoq*;
- 2) Uch aʼzoli feʼl-frazemalar: *qadam ranjida qilmoq*.

Oʻzbek tilshunosligida “qadam” soʻzi bilan bogʻliq frazeologik birliklar talaygina boʻlsa-da, ammo bu kabi birliklar yaqin yillargacha frazeologik birlik yoki izohli lugʻatlarda uning turli maʼno qirralari alohida soʻzlik sifatida berilmagan edi, faqat izohli lugʻatdagina “qadam” leksemasi ichida *qadam otmoq (tashlamoq), qadam ranjida qilmoq, qadam bosmoq, qadam qoʻymoq* lugʻaviy birliklar izohiga misollar keltirilib tahlil qilingan¹⁸⁸. Ammo 2022-yilda bir guruh tilshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qayta nashr etilgan izohli frazeologik lugʻatining qayta toʻldirilgan nashri bosmadan chiqishi va yuqorida tilga olingan “qadam” soʻzi bilan bogʻliq birliklarning barchasi frazema tarkibiga kiritilishi mazkur muammoning yechimiga asos boʻldi¹⁸⁹.

Keltirilgan feʼl-frazemalar bir sinonimik qatorni tashkil etsa-da, ekvivalent sifatida birining oʻrniga ikkinchisi doimo almashinib kelavermaydi: har biri nutq qurshovida alohida turlicha maʼno nozikliklariga ega. Mazkur guruhdagi “qadam tashlamoq” feʼli boshqalariga qaraganda uslubiy betaraf (neytral) leksik birlikdir. “*Qadam ranjida qilmoq*” frazemasi asosan ijobiy semada badiiy, publitsistik uslubda, qisman soʻzlashuv uslubida qoʻllanadi. Baʼzan soʻzlashuv uslubida qoʻllanganda kinoya, kesatq kabi salbiy maʼnolarni ifodalab keladi. *Qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qoʻymoq* feʼllari deyarli barcha uslublarda qoʻllanishi jihatdan bir paradigmatic qatorga mansub sanaladi va “yurmoq” harakat feʼlining boshlanish nuqtasini anglatadi. Buni quyidagi jadvalda koʻrish mumkin:

¹⁸⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.203.

¹⁸⁹ Rahmatullayev Sh. va b. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati – Toshkent: Gʻ.Gʻulom, 2022. – B. 395-397.

3.2.1.1-jadval

	“yurmoq” ma’nolari	leksemasining denotativ	qadam tashlamoq	qadam bosmoq	qadam qo‘ymoq
1	Gorizonttal harakat		+	+	+
2	Chiqish va manzilga yetish nuqtasi aniq bo‘lmagan harakat		+	+	+
3	Aksional jihatdan tugallanmagan, davomli harakat		+	+	+
4	Vaqt, makoni chegaralanmagan harakat		+	+	+
5	Predmetga nisbatan yo‘nalishi ko‘rsatilmagan harakat		+	+	+
6	Insoniyatning oyoq yordamida qilgan harakati		+	+	+
7	Hayvon va hashoratlarning oyoq bilan bog‘liq harakati		-	-	-
8	Butun tana, gavda bilan bog‘liq harakat		-	-	-
9	transportlar (mashina, avtobus, poyezd, metro kabilar), mexanizmlar (masalan,soat) harakati		-	-	-

Ko‘rinadiki, uchala birlikning ham ma’nolari deyarli bir xil, ammo ba’zi hollarda uning tarkibiy qismi “qadam” so‘zi nutq jarayonida egalik va kelishik affikslarni olib kelishi ham kuzatiladi: *qadamingizni sekin tashlang, qadamingni o‘ylab bos, birinchilardan bo‘lib qadam(imni) qo‘ydim* kabi. Aytish mumkinki, nutqda ot+fe’l modelidagi qo‘shma fe’l tarkibiy qismlari o‘rin almashinib qo‘llanishi va ot turkumiga mansub birlikka otga xos sintaktik shakl yasovchi affikslar qo‘shilib kelish holatlari kuzatilishi tabiiy hol, ammo *qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qo‘ymoq* fe’llari frazeologik birliklar sanalar ekan, frazemani tashkil etuvchi birliklarga grammatik shakllarni qo‘shib yoki qismlari orasiga biror leksemani kiritib bo‘lmaydi. Xususan, bu holat quyidagi misollarda yaqqol ko‘rinadi: *Umr bo‘yi qilgan mehnatingiz rohatini ko‘rish naqadar baxt! Har bir tashlagan qadamingiz muvaffaqiyatga sababchi bo‘lsin!* (Gazeta.uz.dan). *Joning tekinga kelgan bo‘lsa ham qadamingni o‘ylab bos.* (T. Malik). Bu kabi birliklar nutqda qay tartibda qo‘llanmasin, morfologik va sintaktik tahlilda bir so‘z, yaxlit bitta gap bo‘lagi sifatida olinadi. Q.Sapayev ot va otlashgan so‘zlar bilan *qo‘ymoq, chiqarmoq, olmoq, bog‘lamoq, tutmoq, kechirmoq, tashlamoq* kabi fe’llarning birikishidan asli

frazologik birliklar hosil bo‘lishini, bunday birliklarni ot + fe’l tuzilishli qo‘shma fe’llar qatoriga kiritish to‘g‘ri bolmasligini qayd etgan: *ko‘ngil qo‘ymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, umid bog‘lamoq, yo‘l tutmoq, qo‘lga olmoq, kun kechirmoq, qadam tashlamoq, ko‘zdan kechirmoq*. Bu xil birliklarning ma’nosi uning tarkibidagi qismlarning to‘g‘ri ma’nosidan kelib chiqmaydi. balki har ikki qism yaxlitligicha ko‘chma ma’no anglatadi¹⁹⁰. Ma’lumki, nutqda frazema tarkibidagi birliklar o‘rnini ham, ularga qo‘shilib kelgan grammatik shakllarni ham boshqasiga o‘zgartirib bo‘lmaydi: *ko‘ngil qo‘ymoqni qo‘yilgan ko‘ngil yoki dam olmoqni olingan dam; qo‘lga olmoqni qo‘lda olmoq* deyish noto‘g‘ri. “Tashlamoq” fe’li quyidagi frazemalar tarkibida yaxlitlik hosil qiladi: *luqma tashlamoq, chek tashlamoq, engak tashlamoq*.

Qadam tashlamoq shu tipdagi frazemalar qatoriga kiradi. *Tashlangan qadam* birikmasi keltirilgan frazemaning o‘rin almashgan ko‘rinishi emas, alohida sintaktik birikuv hisoblanadi. Qayd etilgan frazema komponentlarining o‘rin almashuvi *tashlamoq qadam* tartibida bo‘ladi va bunday tartib mantiqan muvofiq emas. Bunda ot turkumiga mansub birlikka otga xos sintaktik shakl yasovchi affikslar qo‘shilib keladi. *Ba’zida tashlagan har bir qadamingiz hayotingizda ko‘pgina narsalarni izga tushirish mumkin.*(Gazeta.uz.dan) *Uning isitmasi kuchli, boshi og‘rir edi, tashlagan qadami xohlagan yeriga tushmasdi.* (A.Qahhor). Aytish joizki, bunda nafaqat mazkur fe’l tarkibidagi birliklar o‘rni alamshinibgina qolmasdan, balki ular orasida muayyan bir leksema qo‘llash holati ham uchraydi.

“*Qadam tashlamoq, qadam bosmoq*” fe’llari barcha tirik jonzot (inson, hayvon kabi)larga nisbatan ishlatiladi, biroq “*qadam qo‘ymoq*” fe’li denotativ semada faqat insonning oyoq yordamida amalga oshirilgan harakatini ifodalaydi. Ammo uchala fe’lning arxisemasi bir xil: “oyoq yordamida bir joydan boshqa joyga qarab harakatlanishni boshlash, oldinga tomon yurish” kabi denotativ ma’nolarni anglatib keladi: *Faqatgina bir qadam tashla, uch, besh yoki o‘n qadam emas, bir qadam.* (Kun.uz.dan). *Qadam tashla — pul ishla!* (“Sog‘lom turmush tarzi” platformasidan).

¹⁹⁰ Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.– B.71. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Qadam tashla – *mag‘rur, taomlan – oz-ozdan, nafas ol – chuqur, uxla – keragini, liboslan – sodda...* (gazetadan). Mana bir **qadam bosdim** sen tomon, Sen ham bir **qadam tashla** men tomon. (gazetadan). Oyga **qadam qo‘ygan** ilk inson Nil Armstrong bo‘ldi. (Kun.uzdan). Bahri xola oldinda Risolat bilan birga borar va otning **qadam tashlashi** maqomiga ashula aytar edi. (A.Qahhor). Tuyaqushlar salobatli **qadam tashlab** o‘tishadi. Sher shu joylarning hukmdoridek, beparvo va dadil **qadam tashlab**, savlat to‘kib kelaverdi. (“Qiziqarli geografiya” kitobidan). Orqadagi eshaklar beparvo **qadam tashlaydilar**. (T. Malik). Eshak dik-dik **qadam bosadi**. (O‘. Hoshimov).

Endi har bir frazemaning konnotativ semalariga to‘xtalib o‘tamiz:

“**Qadam tashlamoq**” frazemasining konnotativ semalari quyidagicha:

“**Qadam tashlamoq**”² – “bir holatdan boshqa holatga o‘tish, ma’lum bir pozitsiyani o‘zgartirish” ma’nosida: *Sog‘liqni saqlash vazirligi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda Toshkentda “Sog‘lom hayotga qadam tashla!” aksiyasi o‘tkazadi. Shundagina komillik yo‘liga yana bir qadam tashlagan bo‘lasiz.* (Kun.uzdan).

“**Qadam tashlamoq**”³ – “shiddat bilan harakatlanish, odimlash, tezkorlik bilan olg‘a intilish” semasini anglatadi: *Kelajak sari qadam tashla” shiori ostida davra suhbatlari tashkil etmoqda. Hech kimdan kam emasmiz, doim yonib, yashaymiz, Kelajakka mardona, shaxdam qadam tashlaymiz.* (“Konchlar hayoti” gazetasidan). *Ertangi go‘zal hayoting uchun bugun o‘rningdan tur va qadam tashla.* (Qalampir.uzdan). *Bobom bo‘yi kalta bo‘lganiga zarda qilgandek katta-katta qadam tashlab loy kechib ketyapti* (O‘. Hoshimov). *Shuning uchun biz konservatoriyada ijodiy muhit yaratish bilan bir qatorda hammamiz bitta maqsad sari ildam qadam tashlab, jips oila sifatida, hamfikrlar sifatida harakatlanishimiz kerak degan maqsadni qo‘yganman.* (Kun uz.dan).

“**Qadam tashlamoq**”⁴ – “davlatni boshqarish, hukmronlik qilish” ma’nosida ishlatiladi: *Qo‘r tuzgan vaqtingdan boshlab, shuni bilki, tangri senga adolat qilib, ko‘pchilik mulklarni senga berdi. Endi sen yalovingni baland ko‘tarib, odil qadam tashla.* (“To‘rt ulus tarixi” kitobidan).

“**Qadam tashlamoq**”⁵ – “tanatavorlik, ko‘tarinkilik, o‘ziga xos uslubda yurish” semasida qo‘llanadi: askar va harbiylarning yurishi:

“Shaxdam qadam tashla” komandasi berilganda shaxdam qadam bilan, **“Qadam tashla”** komandasi berilganda esa oddiy qadam bilan harakat qilinadi. (Gazeta.uz.dan)

“Qadam bosmoq” fe’lining konnotativ semalari quyidagicha:

“Qadam bosmoq”² – “ma’lum bir yoshga to’lgan, kirgan” ma’nosini anglatadi: *Kumushbibi endi o ‘n yettini qo‘yib, o ‘n sakkizga qadam bosganlikda bo ‘yi ham onasiga yetayozgan, jussasi onasidan ko‘ra to‘laroq edi.* (A.Qodiriy).

“Qadam bosmoq”³ – “shiddat bilan harakatlanish, tezkorlik bilan olg‘a intilish” semasini ifodalagan: Boshi devorga urilganini anglagan inson zamonga qasdma-qasd **qadam bosadi** (gazeta uzdan).

“Qadam bosmoq”³ – “nojo‘ya xatti-harakat” ma’nosida qo‘llanadi: *Chakki qadam bosgani yo‘q. Tinchgina yuribdi. Uning qadam bosishi g‘alati...* (T. Malik).

“Qadam qo‘ymoq” fe’llarining konnotativ semalari quyidagicha:

“Qadam qo‘ymoq”² – “ma’lum bir yoshga to’lgan, kirgan” ma’nosini ifodalaydi: *Bekxo‘ja o‘n to‘rt yoshga qadam qo‘yganida to‘satdan shol bo‘lib qoldi.* (A.Obidjon). *Oltmishqa umr qo‘yg‘onda qadam,* *Qush tilin sharh etgali yo‘ndum qalam.* (“Lison ut-tayr”dan).

“Qadam qo‘ymoq”³ – “ulg‘ayish, o‘shish, aql-idrok sohibi bo‘lish” semasida qo‘llanadi: *Oq-qorani ajratish pallasiga qadam qo‘ygan chog‘laridanoq...* (Qalampir.uzdan)

“Qadam qo‘ymoq”⁴ – “bir holatdan boshqa holatga o‘tish, ma’lum bir pozitsiyani o‘zgartirish” ma’nosini anglatadi: *Shaytanat olamiga qadam qo‘ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Ular oilaviy turmushga qadam qo‘yishdan oldin bu xonalarda nafaslarini rostlashlari lozim.* (Qiziqarli geografiya”dan). *Iste’dodli shoira Zulfiya Mo‘minova ham shu yillarda she’riyat ostonasiga qadam qo‘ydi.* (Gazeta. uzdan). *Ma’rifat vodiysig‘a urdung qadam. Chun Talab vodiysig‘a qo‘ysang qadam. Bu mahal yo‘lg‘a qachon qo‘ysam qadam. Ishq chun qildi vujudingni adam, Ollingg‘a har dam kelur yuz ming alam. Munda chun qo‘ydi qadam ahli ravish, Onga hayronlig‘din o‘zga bo‘lmas ish.* (“Lison ut-tayr”dan).

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, har uch fe’l-frazema oyoqni yerga turli usulda tekkizib harakatlanish, masalan, **“qadam tashlamoq”** so‘zida

oyoqni yerga qattiq zarb bilan tashlash; “*qadam bosmoq*”da oyoqni yerga mahkam oʻrnatib olish; “*qadam qoʻymoq*” feʼlida esa oyoqni narsani yerga qoʻygan kabi oddiy qoʻyish va shu holatda barcha harakatlarni davom ettirish semalari mujassam. Shu sababdan *shaxdam, gurs-gurs, tap-tap, ildam* leksemalari “*qadam tashlamoq*” feʼlining valentligini namoyon qiladi: *Uning shaxdam qadam tashlashi, alpday kelishgan qomatiga qarab yosh deb oʻylagandim, yoʻq...* (S. Anorboyev). “*Qadam bosmoq*” feʼlida biroz qoʻpollik, salbiylik boʻyogʻi mavjud: *..endi uyimga qadam bosa koʻrma!* (T. Malik). “*Qadam qoʻymoq*” feʼli esa boshqa birliklardan farqli oʻlaroq ohistalik, sokinlik semasi mujassamligi sabab sheʼriyatda koʻproq ishlatiladi: *Qoʻy qadam odob bilan yerda insonlar yotar* (Ashuladan). *Har sori boqsang tamosho aylagung asbobi aysh, Har taraf qoʻysang qadam ishratgʻa boʻlgʻungdur duchor.* (Ogahiy). *Kimki qimor yoʻliga qoʻysa qadam, Oqibat sharmanda-yu rasvo boʻlur.* (Sh. Zunnun). *Yoʻlga ermastur qadam qoʻymoq ravo. Manga ham ayon et, zoti muhtaram* (“Lison ut-tayr”dan).

Oʻzbek tilidagi “qadam tashlamoq, qadam qoʻymoq, qadam bosmoq” feʼllarining turk tilidagi ekvivalenti “adım atmak”dir. “Türk Dil Kurumu” (TDK), “Büyük Türkçe Sözlük” kabi izohli lugʻatlarda bu feʼlning quyidagi maʼnolari berilgan:

1. Yurish uchun oyogʻini oldinga qarab bosish

2. Bir ishga ilk marta kirishish.

Turk tilida “adım atmak” (“qadam qoʻymoq”) feʼli vaqt oʻtishi bilan oʻzining denotativ maʼnosidan uzoqlashib, idiomaga aylangan: yangi davrga kirish yoki muayyan harakatni boshlash semalarida ishlatiladi. Bu idioma nutqda ishlatilganda turli xil maʼnolarga ega boʻlib, turk va oʻzbek tillaridagi semalari deyarli oʻxshash: ham yurish, ham yangi tajriba orttirish maʼnolarini ifodalaydi.

3.2.1.2-jadval. “qadam tashlamoq” iborasining maʼnolari (TDK)

	Maʼnolari	Misollar
1	Yangi ishni boshlash yoki ilgari sinab koʻrilmagan narsani sinab koʻrish	<i>Men bilmagan ishga qadam tashlagan boʻlsam ham, bu yoʻldan orqaga qaytmayman.</i>
2	Yangi davrga kirish	<i>Bugun oʻn olti yoshni</i>

		<i>qarshilagan Serkan kelajak sari qadam tashladi.</i>
3	Yurish	<i>Bugun bozor shu qadar gavjumki, qadam tashaydigan joy yo‘q.</i>

“**Qadam tashlamoq**” fe’lining tezaurus lug‘atlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: *”qadam” va “tashlamoq” so‘zlarining qo‘shilishidan yangi leksema hosil bo‘lgan.*

Fe’l so‘z turkumiga mansub, tuslanadi: *qadam tashladim, qadam tashlamoqda, qadam tashladiqadam tashlasak, qadam tashlaysiz, qadam tashladingiz;*

2.Talaffuz qilinishi: *qadam tashla*

3. Ma’no tarkibi: *odimlamoq* - “bir joydan boshqa joyga qadam tashlab harakatlanmoq, kelmoq, yurmoq, intilmoq ” ma’nolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *yurmoq, qadam tashlamoq, qadam qo‘ymoq, intilmoq, rivojlanmoq;*

B) antonimi: *to‘xtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *yurmoq – giperonim, odimlamoq – giponim (troponim)*

E) giponim (troponim)i: *qadam qo‘ymoq – giponim (troponim), odimlamoq - giperonim*

H) yaqin ma’nodagi so‘zlari: *oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, vaqt.*

4. Etimologiyasi: *“odimla”* asli turkiy tilga mansub so‘z bo‘lib, “qadamla” ma’nosini anglatgan *a:d-* fe’liga *-(i)m, -la* affikslarini qo‘shish bilan yasalgan, *“ikkala oyoqni ketma-ket siljitish orqali oldinga yoki orqaga chekinish, uzluksiz harakat”* ma’nolarini anglatadi;

5. Turli xil lug‘aviy birliklar (leksemalar) o‘rnida qo‘llanilishi: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qo‘ymoq, qadam olmoq, qadamlamoq;*

6. Boshqa tillarda qo‘llanishi, Ingliz tilida *“step”*, nemis tilida *“schreiten (schritt, geschritten)”*, rus tilida *“uazamb”*, turk tilida *“ayakla, adım atmak”*

”Qadam ranjida qilmoq” frazemasining semantik xususiyatlari va tezaursi

Ma'lumki, nutqimizdagi barcha fe'l turkumiga mansub birliklar leksema yoki frazema shaklida namoyon bo'ladi. Fe'l frazeologizmlari murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Shu bois tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi fe'l frazeologizmlari tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. Shu ma'noda ularni amaliy va ilmiy o'rganish o'ziga xos yondashuvni, o'ziga xos metod va usulni taqozo etadi. O'zbek tilshunosligida fe'l turkumiga mansub iboralar grammatik, semantik, uslubiy yo'nalishda o'rganilgan¹⁹¹. Ana shunday harakat-hodisalarni, xususan, yo'nalma harakat semasini ifoda etuvchi lisoniy birliklar ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan, shu sabab tilshunoslikda uning tabiati, usuli to'g'risida turlicha qarashlar, fikr-mulohazalar mavjud. Chunki har bir olim mazkur birlikni kognitiv nuqtayi nazaridan kelib chiqib tavsiflaydi, tasniflaydi.

Ma'lumki, yo'nalma harakat semali fe'llar muhit nuqtayi nazaridan uch leksik-semantik guruhga (LSG) bo'linadi:

- qattiq yuzada harakat ma'nosini bildiruvchi fe'llar;
- havo orqali harakat ma'nosiga ega fe'llar;
- suyuq muhitda harakat ma'nosini bildiruvchi fe'llar.

“Qadam ranjida qilmoq” fe'l frazemasi qattiq yuzada harakat ma'nosini bildiruvchi fe'llar guruhiga mansub bo'lib, undagi harakatning xarakteri, usuli, muhiti, sur'ati, obrazli xususiyatlari bilan belgilanadi, shu bois badiiy va publitsistik uslubda faol qo'llaniladi:

*Hozir bu yerga oliy zotlar **qadam ranjida qilurlar** (badiiy uslub);*

*Harorati va tarovati ila **qadam ranjida etgan** yasharish fasli – bahorning ilk kuni har gal atoqli o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim tavalludi bilan boshlanadi (publitsistik uslub); Ostonamizga sanoqli daqiqalardan*

¹⁹¹ Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Мадвалиев А. Луғат ва луғат турлари хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008.–№1. – Б. 60-64; Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2009. –127 б.; Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида). Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) дисс...автореф.– Самарқанд, 2018.– 51 б.; Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи.–Тошкент, 2013. –123 б.; Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил). Филол. фан. фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 49 б.

soʻng qadam ranjida qilayotgan yangi yil bilan samimiy muborakbod etaman (publitsistik uslub).

Feʼl frazemalari til leksik tizimining eng murakkab birligi va, shu bilan birga, bu tizimning butun mazmun-mohiyatini oʻzida mujassam etadi. Til tizimining birligi sifatida yoʻnalma harakat semali frazemalarni har tomonlama oʻrganish hozirgi zamon tilshunosligining muhim vazifasidir. Feʼl frazemasini semantikasini aniqlashda, avvalo, uning soʻz birikmasi va gap ichida anglatgan maʼnosiga eʼtibor qaratish lozim. Chunki nutq jarayonida feʼl frazemalarining har biri bir yoki bir nechta leksik birliklar bilan erkin almashinish asosida ularning ekvivalent birliklari, semantik muqobillari yuzaga keladi. Masalan:

1. *Uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing.*
2. *Uyingizga tashrif buyurgan odamning oldiga peshvoz chiqing.*
3. *Uyingizga kelgan odamning oldiga peshvoz chiqing.*
4. *Uyingizga qadam qoʻygan odamning oldiga peshvoz chiqing.*
5. *Uyingizga qadam tashlagan odamning oldiga peshvoz chiqing.*
6. *Uyingizga qadam bosgan odamning oldiga peshvoz chiqing.*

Keltirilgan jumladan 1-misolda muayyan darajada mashaqqat bilan kelgan inson yoki soʻzlovchi tomon ulugʻvor, vazmin, muhtaram zot tashrif buyurganligi nazarda tutilsa, 2-gapda hurmat-izzatga loyiq inson sharaf bilan siznikiga kelganligi yaqqol koʻzga tashlanadi. 3-gapda esa uslubiy jihatdan betaraf, shunchaki doimiy kelib-ketib turish mazmuni anglashiladi, yuqoridagilardan farqli oʻlaroq qolgan uchala jumlada biroz qoʻpollik bilan harakatlanish semasi ifodalanadi. Shuning uchun mazkur faslda yoʻnalma harakat feʼllari guruhiga kiruvchi “qadam ranjida qilmoq” frazemasida **“qadam”** soʻzi bilan bogʻliq lugʻaviy birliklar bilan bir qatorda **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasining nutq jarayonida turli xil semalari, mazkur frazemaning giperonim-troponim munosabati koʻrib chiqildi. Tadqiqot davomida **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasining nutq jarayonida subyekt yoki obyekt tomondan harakatlanishdan koʻra subyekt yoki obyekt tomonga qarab harakatlanish yoʻnalishi semalari koʻproq uchrashi aniqlandi, uning tezaurus lugʻatlarda ifodalanish holatlariga ham eʼtibor qaratildi. Xususan, tilshunoslikda yoʻnalma harakat semasini anglatuvchi leksik birliklar turlicha boʻlib, ular qay usulda ifodalanishidan qatʼi nazar

barcha yo‘nalma harakat fe‘llari subyekt yoki obyekt tomon kelish hamda subyekt yoki obyekt tomondan ketish semalari atrofida birlashadi. Mazkur leksik birliklar qatorida *“qadam ranjida qilmoq”* frazemasi tahlili ham alohida tadqiqni talab etadi. Mazkur frazema nutq jarayonida muayyan leksemalar qurshovida ikki xil harakat sur‘atini: asosan sekin, ba‘zan intensiv harakatni ifodalaydi. Frazema arxisemasida “vazminlik, ulug‘vorlik, hurmat, kinoya, noz-u karashma bilan harakatlanish” kabi moduslar mujassamligi uchun ham o‘zida harakat usulini ifoda etuvchi fe‘llar guruhiga mansub.

Kuzatishlar davomida o‘zbek tilshunosligida *“qadam ranjida qilmoq”* lug‘aviy birligi frazema sifatida mavjud frazeologik lug‘atning to‘ldirilgan yangi nashrida qayd etilganligi¹⁹² hamda olti jidlik izohli lug‘atda *“qadam”*, *“ranjida”*, *“qilmoq”* leksemalarining leksema sifatida alohida so‘zlik ko‘rinishida berilganligini ko‘rish mumkin. Frazema tarkibidagi leksik birliklarning etimologiyasi xususida fikr yuritadigan bo‘lsak, *“qadam”* asli arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, “oyoq kafti, tovon; oyoq” ma’nolarini anglatadi;

“ranjida” so‘zi asli fors tilidan kirib kelgan, o‘zida “uringan, qiynalgan, ozor chekkan” semalarini idodalaydi;

“qilmoq” o‘z qatlamga oid so‘z bo‘lib, “bajarmoq, bajo keltirmoq” kabi ma’nolarga ega¹⁹³.

Ko‘rinadiki, yuqoridagi uch xil tilga mansub uch xil semali leksemani gorizontaal shaklda ketma-ket keltirish oqibatida *“ikkala oyoqni urintirish natijasida muayyan harakatni bajarish, bajo keltirish, ya’ni oyoq yordamida harakatlanish, tashrif buyurish”* semalarini o‘zida ifodalovchi *“qadam ranjida qilmoq”* frazemasi hosil qilinganligini kuzatish mumkin. Bu birlikni ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanma sanalganligi uchun uni frazeologik birlik deyish o‘rinli.

A.Berdialiev rus tilshunosligida maxsus ishlanmagan, turkologiyada esa til ilmi mutaxassislariga noma’lum bo‘lgan lug‘aviy sathning dolzarb

¹⁹² Rahmatullayev Sh. va b. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati– Toshkent: G‘. G‘ulom, 2022. – B. 395-397.

¹⁹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-, 4-, 5- жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2008; O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-, 4-, 5-jild. –Toshkent: O‘zME, 2020 – B.90-94; 2-, 3-, 4-, 5-, 6- jild. –Тошкент: O‘zME, 2022.

bir muammosi haqida fikr yuritgan¹⁹⁴. Tilshunos olimning ta'kidlashicha, suppletivlik va suppletiv birliklar tor va keng ma'nolarda anglashiluvchi mantiqiy-lisoniy hodisalardir. Tor ma'noda u bir grammatik ma'no doirasida har xil fonetik ko'rinishidagi ikki grammatik shakl tushuniladi. Masalan, kishilik olmoshlarning 1- va 2- shaxs shakllari "men – menlar", "sen -senlar" emas, balki "men – biz", "sen – siz"dir. Ana shu shakllar suppletivizmning tor ma'nodagi talqinidir. Jahon tishunosligida ham suppletivizmga berilgan ta'rifda ana shu tor ma'nodagi talqin nazarda tutiladi: suppletivizm bu tildagi bir leksemaning oddiy morfologik qoidalar bilan tushuntirib bo'lmaydigan turli shakllarda namoyon bo'lishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir¹⁹⁵. Bu hodisa asosan flektiv tillarda kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "to be" fe'lining zamonni ifodalovchi "am", "is", "are", "was", "were" va ularning muayyan kishilik olmoshlari bilan ishlatilish ("I am", "he is", "we are", "she was", "they were") shakllari; rus tilida "идти" fe'lining tuslangan shakllari "иду", "идешь", "идет", "идем", "идете", "идут" ("я иду", "ты идешь", "он идет", "мы идем", "вы идете", "они идут") suppletivlar sanaladi.

Suppletivlik keng ma'noda tilning lug'aviy, so'z yasash va boshqa sathlarida ham mavjuddir. Bu turi tilshunoslikda eng kam o'rganilgan. Lug'aviy sathda biri boshqasini assotsiativ tarzda taqozo etuvchi ikki va undan ortiq so'zlar munosabatini bildirib, ular o'zaro giponimik, ekvonimik va geteronimik munosabatlarda bo'ladi. Masalan, "ota" so'zi "ona", "bobo", "bola" so'zlari bilan suppletiv muqobil bo'ladi. Ular o'zaro geteronimik munosabat ta'sirida "ota-ona", "ota-bobo", "ota-bola" singari juft so'zlar hosil qiladi. Lug'aviy birliklarning leksik-semantik munosabatlarini aniqlashda A.Berdialiyevning ma'lumotlari katta ahamiyatga ega. I.Ermatov ham A.Berdialievning ayrim ilmiy maqolalari haqida to'xtalib, bir umumiy klassemaga ega bo'lgan har xil lug'aviy-grammatik kategoriyaga mansub ikki leksema munosabatida suppletiv munosabat vujudga kelib, shu munosabatni tashkil qilgan so'zlar lug'aviy

¹⁹⁴ Berdialiyev A. Suppletivizm va unga daxldor ba'zi tushunchalar haqida // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari // Ilmiy maqolalar to'plami. – Xujand: Nuri ma'rifat, 2011. – B. 9-16.

¹⁹⁵ Hippiisley A., Chumakina M., Corbett G. G., Brown D. Suppletion: frequency, categories and distribution of stems. Studies in Language. 2004. – 28/2. – P. 389-421.

suppletivizmga mansub bo‘lishini ta’kidlaydi¹⁹⁶. Ana shu umumiy klassema asosida ikki lugaviy birlik – lug‘aviy suppletivlar sintagmatik munosabatga kirishib, sintagma (birikma) hosil qiladi. Olim *qo‘l va ushlamoq, ko‘z va ko‘rmoq, tabib va davolamoq, oyoq va yurmoq* singari so‘zlararo suppletiv aloqa mavjudligiga asoslanib, bu so‘zlarni lug‘aviy suppletivlar deya izohlaydi. Buning natijasi o‘laroq suppletiv aloqa yordamida *ko‘z bilan ko‘rmoq* (ko‘z va ko‘rmoq), *quloq bilan eshitmoq* (quloq va eshitmoq) *oyoq bilan yurmoq* (oyoq va yurmoq) kabi birikmalar ma’nosini beruvchi leksikalizatsiyalashgan birlik (frazelogik ibora)lar hosil bo‘lgan. Shu bois “qadam ranjida qilmoq” birligi zahirida “*ikkala oyoqni urintirib, bir xil shaklda harakatga keltirish natijasida yurish*” semasi mavjudligi sabab ham uni suppletiv aloqa natijasida hosil bo‘lgan frazema deyish mumkin. Bunday iboralar suppletivizmning til lug‘aviy sathiga xos ko‘rinishi bo‘lib, unda tarkibiy qismlar bir umumiy ma’no — arxisema (klassema) qamrovida bo‘ladi, biri boshqasini mazmunan taqozo etadi. yaxlit frazeologik birlikka ham aylanadi.


Bugungi kungacha suppletivizm hodisasini ba’zi tadqiqotchilar sof morfologik hodisa deb hisoblashadi¹⁹⁷, ayrim tilshunoslar esa so‘z yasash sathida ham uchrashini ta’kidlashadi¹⁹⁸. Suppletivizm tilshunoslikning eng kam o‘rganilgan muammolaridan biridir. Bu kabi suppletiv aloqalar muayyan leksik birlikning boshqa birliklar bilan mazmun va grammatik jihatdan birikish imkoniyatini yuzaga chiqarishi jihatida valentlikka ham o‘xshab ketadi, ammo nutqiy jarayonda so‘z semantik imkoniyatidagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiruvchi aktantlar miqdori cheklanmagan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, suppletiv birikmalarda esa bog‘lanuvchi birlik semasiga o‘xshash eng yaqin leksema olinadi. Aniqrog‘i, keltirilgan aktantlarning faqat bittasi suppletiv aloqani hosil qiladi. Masalan:

¹⁹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki>.

¹⁹⁷ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Издательство Советская энциклопедия, 1966. – 607 с.; Глинских Г.В., Петрова О. В. Введение в языкознание. – Н. Новгород: Изд-во НГЛУ им. Н. А. Добролюбова, 1998. – 251 с.; Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – 2-е изд. – М.: Высш. шк., 1987. – 272 с.; Кодухов В. И. Введение в языкознание. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1987. – 288 с.; Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов [Электронный ресурс]. – М., 1976. – URL: <http://www.textologia.ru/slovari/-lingvisticheskie-terminy/?q=484>; Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 811 с.

¹⁹⁸ Мельчук И.А. Курс общей морфологии. Т. IV. – М.:Вена: Языки славянской культуры: Венский славистический альманах, 2001. – 580 с.; Немченко В.Н. Супплетивизм как грамматическое явление (понятие и термины) // Вестник Нижегородского гос. ун-та. Серия «Филология». – 2000. – № 1 (2). – С. 163-173.

3.2.2.1-chizma



Chizmada keltirilgan aktantlardan qayerga + qadam ranjida qildi birikmasi suppletiv aloqa sanaladi.

“qadam ranjida qilmoq” frazemasining nutq jarajonidaga 15 xil leksik birliklar o‘rnida kelishi aniqlandi: *kelmoq, bormoq, ketmoq, odimlamoq, jo‘namoq* kabi fe’l-leksemalar bilan bir qatorda *tashrif buyurmoq, qadam tashlamoq, qadam qo‘ymoq, qadam bosmoq* kabi frazemalar o‘rnida ham qo‘llaniladi va turli leksik birliklar qurshovida turlicha semalarni ifodalab keladi. Bu orqali uning leksik-semantik guruhini ajratish mumkin. Leksik-semantik fe’l tasniflari turli xil tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP)da katta ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘xshash sintaktik xatti-harakatlarga ega bo‘lgan leksik birliklarni aniqlash semantik jihatdan izchil fe’l sinflarini ajratishning samarali vositasi ekanligi ko‘rsatiladi va fe’l-frazema ma’nosi nutqiy jarayonda turli xil xatti-harakatlarini ifodalashi orqali ularning o‘xshah va farqli tomonlari belgilanadi.

“**Qadam ranjida qilmoq**” frazemasini nutq jarayonida turli xil semalarni ifodalaydi:

3.2.2.2-jadval

	“Qadam ranjida qilmoq” frazemasini semalari	Misollar
1	Subyekt tomonga sekin harakatlanish (aynan tashrif buyurmoq, kelgan, qadam qo‘ymoq, qadam tashlamoq)	<i>Ostonadan xonadonga qadam ranjida qilgan har qanday inson bir piyola choy ichib ketishi azaliy odat hisoblanadi. (matbuotdan); Uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing va ular bilan chiroyli muomala qilingki, ular sizning duoingizni qilsin. (“Qobusnoma”dan); Go‘zal dildori chiroyli kiyingan holda</i>

		gulshanga qadam ranjida qilib, Majnun oldiga keldi. (A. Navoiy); Qadam ranjida qil ko‘nglum uchun, ey yorning o‘qi, Mening bu notavon ko‘nglumga chun darmondin ortuqsen! (Bobur); Ey falak, hushyor bo‘l, doim ko‘zim uchadi, shoh faqir tomonga qadam ranjida qilayotganmikan-a? (Foniy)
2	Muayyan manzildan ko‘rsatilgan manzil tomon ko‘tarinki kayfiyatda harakatlanish (ekv. qadam bosmoq, qadam qo‘ymoq, qadam tashlamoq, bormoq); (ekv. ketmoq, jo‘namoq, bormoq)	Bugun qaysiki qishloq yoki mahalla ko‘chasiga qadam ranjida qilmang, gulga burkangan dov-daraxtlarni ko‘rib dilingiz yayraydi. (matbuotdan). Agar aynlar yurti Yaponiyaga qadam ranjida qilishni istab dengiz sayohatini ixtiyor qilsangiz, ruhiyatingizda o‘zgacha zavq tuyasiz (matbuotdan).
3	Subyekt tomonga harakatlanishda kesatiq, kinoya semasi (kelmoq, tashrif buyurmoq)	Axiyri, o‘zlari ham biz tomonga qadam ranjida qilidilar-da! Uning biz tomonlarga qadam ranjida qilishida bir gap borgan o‘xshaydi, bo‘lmasa buncha serqatnov bo‘lib qolmasdi.
4	Subyekt tomonga harakatlanishda yalinib yolverish semasi (bir qadam tashla, bir qadam kel)	Ey mug‘bacha, rindlar faqir bo‘lsalar ham, bir qadam ranjida qil.. (A. Navoiy)
5	Paydo bo‘lish, yaratilish semasi (tug‘ilmoq, dunyoga kelmoq), evfemizm	Alalhozal alqiyos to‘qquz oy, to‘qquz kun va to‘qquz soat o‘tub, ro‘zi dushanba yarim kecha vaqti oyning o‘n to‘rtinchi kuni mohitobonning ayni to‘lishgan zamonida yorug‘dunyog‘a barq urub, qadam ranjida qilinubdir. (A. Qodiriy)
6	Subyekt tomon tezlik bilan harakatlanish (kelib qolmoq)	Ne karamki, Ahmadxo‘ja hech kutilmaganda, barvaqt qadam ranjida qildi. (T.Malik)

7	Subyekt tomon harakatlanishda hurmat semasi (kelmoq, tashrif buyurmoq)	<i>Do‘ppi tor kelib qolibdi-da, mayorning o‘zi qadam ranjida qilayotgan bo‘lsa, demak, akaxonim yaxshilab tuzlaganlar. (T. Malik); Hozir bu yerga oliy zotlar qadam ranjida qilurlar. Taxtiravon qayerda? (“Yulduzli tunlar“dan)</i>
8	Subyekt tomon harakatlanishda hayotini o‘zgartirish semasi (kirib kelmoq, qadam qo‘ymoq)	<i>U yangi bir olamga qadam ranjida qilmoqda edi, qachonlardan beri shuni orzu qilib kelgandi. (Mopassan); Ana endi ilm olamiga qadam ranjida qildingiz, parvozingiz bexatar, ilmingiz har qanday zavoldan xoli bo‘lsin dedilar, duo qildilar. (Matbuotdan); Ey rafiqi jonim, otam el bilan kengashib ertaga meni o‘ldirib, qonim bilan yerni bo‘yamoqchi. Sizlar ham qadam ranjida qilib, bu yon kelib, meni xushdil-u bahramand etdingiz. (A.Navoiy)</i>

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan misollarda asosan harakatning ikki xil: kelish (1, 3, 4, 5, 6, 7, 8) va ketish (2) qarama-qarshi yo‘nalishi aks etgan.

“**Qadam ranjida qilmoq**” frazemasining nutq jarayonida subyekt yoki obyekt tomondan harakatlanishdan ko‘ra subyekt yoki obyekt tomonga qarab harakatlanish yo‘nalishi semalari ko‘proq uchrashini kuzatish mumkin. Shu bois mazkur frazemaning giperonim-troponim munosabati quyidagicha belgilanadi:

a) **subyekt yoki obyekt tomonga yo‘nalish: kelmoq (giperonim, gipernim); qadam ranjida qilmoq, tashrif buyurmoq, qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qo‘ymoq, qadam olmoq (troponim, giponim);**

b) **subyekt yoki obyekt tomonni tark etish: ketmoq (giperonim, gipernim); qadam ranjida qilmoq, bormoq, jo‘namoq (troponim, giponim);**

c) **tug‘ilish bilan bog‘liq evfemizm: tug‘ilmoq (giperonim, gipernim); qadam ranjida qilmoq, dunyoga kelmoq, dunyoga tashrif buyurmoq (troponim, giponim).** Masalan, *Inson dunyoga tashrif buyurar ekan, u kutilmagan sinovlarga ham tayyor bo‘lishi kerak (O‘Hoshimov).*

“Qadam ranjida qil(moq)” frazemasi semantikasini tezaurus lugʻatlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: *qadam, ranjida, qilmoq* leksemalarining yaxlitlashuvidan frazema hosil boʻlgan.

feʼl soʻz turkumiga mansub, tuslanadi: *qadam ranjida qildim, qadam ranjida qilyapman, qadam ranjida qiladi; qadam ranjida qildik, qadam ranjida qilasiz, qadam ranjida qildingiz(lar);*

2.Talaffuz qilinishi: *qadam ranjida qil*

3. Maʼno tarkibi: *qadam ranjida qilmoq* - “bir joydan boshqa joyga harakatlanmoq, kelmoq, ketmoq, tugʻilmoq” maʼnolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *tashrif buyurmoq, yurmoq, bormoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam qoʻymoq;*

B) antonimi: *toʻxtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *yurmoq*– giperonim, *qadam ranjida qilmoq* –giponim (troponim)

E) giponim (troponim)i: *kelmoq*– giponim (troponim), *qadam ranjida qilmoq* - giperonim

H) qarindoshlik soʻzlari: oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, barvaqt.

4. Etimologiyasi: “*qadam*” asli arab tilidan kirib kelgan soʻz boʻlib, “oyoq kafti, tovon; oyoq” maʼnolarini anglatadi;

“*ranjida*” soʻzi asli fors tilidan kirib kelgan, oʻzida “uringan, qiynalgan, ozor chekkan” semalarini idodalaydi;

“*qilmoq*” oʻz qatlamga oid soʻz boʻlib, “bajarmoq, bajo keltirmoq” kabi maʼnolarga ega.

5. Turli xil lugʻaviy birliklar (leksemalar) oʻrnida qoʻllanilishi: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qoʻymoq, qadam olmoq, qadamlamoq;*

6. Boshqa tillarda qoʻllanilishi, Ingliz tilida “*step*”, nemis tilida “*schreiten (schritt, geschritten)*”, rus tilida “*шаг*”, turk tilida “*ayakla, adım atmak*”.

“Qadam ranjida qilmoq” frazeologik birligini semantik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi fikrlarga kelindi:

1. Umuman olganda, “sekin harakatlanish” uning birlamchi semasi bo‘lsa, so‘zlovchining subyektiv munosabati “ko‘tarinki kayfiyatda harakatlanish; hurmat va kesatiq-kinoya” ma’nolari ikkilamchi semadir. Ammo **barvaqt + qadam ranjida qilmoq** shaklidagi birikmalarda “muddatdan oldin kelish, tezroq harakatlanish” semasini ifodalashi mumkin.

2. Badiiy matnlarda mazkur frazema “bir” so‘zi bilan kelib, “yalinib yolvorish” semasini namoyon etadi.

3. Dunyo(ga) + qadam ranjida qilmoq birikmasi shaklida kelganda “tug‘ilmoq, dunyoga kelmoq” ma’nolari yuzaga chiqadi.

4. Yangi bir (masalan, ilm) olam(i) (ga) + qadam ranjida qilmoq shaklidagi birikma ko‘chma ma’noga asoslangan bo‘lib, unda inson hayotini muayyan bir tomonga o‘zgartirish semasi ifodalanadi.

Umuman olganda, lug‘aviy birliklar semantikasini tashkil etishdan maqsad kompyuter tilshunosligi uchun o‘zbek tilidagi so‘zlarning ko‘p tilli elektron, ontologik, tezaurus, Wordnet lug‘atlar bazasini yaratish zarurligini, shu bois ushbu tadqiqotda o‘zbek tilida lug‘aviy birliklarning, xususan, **“qadam ranjida qilmoq”** frazemasini semalarining kognitiv mohiyati, lingvistik ma’nolari tizimining leksikografik tasvirini ishlab chiqishga ilk fikr-mulozalarni tahliliy bayon qilishga qisman bo‘lsa-da, harakat qilingan.

“Tashrif buyurmoq” frazemasining semantik xususiyatlari va tezaurusi

Yo‘nalma harakat fe’llari qatorida subyekt tomonga gorizontal harakatlanish semasini ifodalab keluvchi birliklardan yana biri “tashrif buyurmoq” frazemasini etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “tashrif” leksemasi arabcha so‘z تَشْرِيفُ —taşrîf(un), şarafa II bob shaklidan hosil qilingan masdar bo‘lib, “hurmat ko‘rsatib borish, e‘zozlash” ma’nolarini anglatadi¹⁹⁹. Bu so‘z ulug‘vorlik, yuksaklik, qadr-u martaba, yuqori nasab ma’nosida bo‘lgan “sharaf” so‘zi o‘zagidan kelib chiqqanligi sabab *sharaf bag‘ishlamoq, musharraf aylamoq, ulug‘vor qilmok, ulug‘lamoq, ulug‘lik*

¹⁹⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд.—Тошкент: Университет, 2000. — 520 б. www.ziyouz.com kutubxonasi

bag'ishlamoq kabi ma'nolarini anglatadi. "Buyurmoq" fe'li esa "uyğur dilində *buy* feili "приказывать" mənasını əks etdirir.–ur şəkilçisi *köç –ür* qəlibi üzrə təsirli feil düzəldib. Həmin *buyur* feilindən *buyuruq* ismi də əmələ gəlib"²⁰⁰, ya'ni turkiy tilga mansub birlik hosil bo'lgan, ana shu ikki leksema birikib, bir frazemani hosil qilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida "tashrif buyurmoq" alohida so'zlik sifatida emas, balki "tashrif" leksemasi so'zligi tarkibida ***tashrif qilmoq*** (yoki ***etmoq***), *kelmoq* yoki *bormoq*; *qadam ranjida qilmoq* kabi leksik birliklar o'rnida qo'llanilishi misollar yordamida izohlangan: *..bizning oilamizga tashrif qilganingiz uchun qadamlaringizga hasanot*²⁰¹. Ushbu jumlada "tashrif qilmoq" fe'lida aynan "subyekt tomonga harakatlanish, kelish" semasi mujassam: "bizning oilamizga" birikmasidagi -miz egalik shakli hamda -ga jo'nalish kelishigi sabab buni anglash qiyin emas. Ammo shunday misollar bo'ladiki, unda "kelmoq" yoki "ketmoq" semasidan qay biri ifoda etilganligini bilish biroz qiyin kechadi. Masalan, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryoga tashrif buyurdi*. Buni bilish uchun so'zlovchi qaysi hududda turib shu axborotni so'zlayotganligiga e'tibor qaratish lozim: Toshkentda bo'lsa, "ketmoq"; Qashqadaryoda bo'lsa, "kelmoq" ma'nosini beradi. Mana shunday jarayonda bir til birligi: frazeologik yoki leksik birliklari zahirida bir-biriga zid ikki xil ma'no – enantiosemiya hodisasi kuzatiladi va uning konstruksiyasi quyidagicha:

Lokalis valentligi, ya'ni o'rin-joy oti(-ga yoki -dan) + tashrif buyurmoq = "kelmoq yoki ketmoq".

Mazkur frazema qatnashgan ayrim jumlalarda esa yuqorida keltirilgan misol kabi "subyekt tomonga yaqinlashish yoki subyekt tomondan uzoqlashish, ketish" sememasidan bittasi ifodalanadi. Buni quyidagi jadvalda ham yaqqol ko'rish mumkin:

²⁰⁰ Əhmədov B.A. Azərbaycan dilinin qısa etimoloji lüğəti. – Bakı: Mütərcim, 1999.– B.63.

²⁰¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.

3.2.3.1-jadval

	“Tashrif buyurmoq” frazemasining denotativ semalariga misollar	Ekvivalent semalari
1	Polsha Tashqi Ishlar Vaziri Zbignev Rau O‘zbekistonga tashrif buyuradi. (Gazeta.uz) Samarqand viloyatidagi “Registon” ansambliga 2022-yilda 1 027 951 nafar mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyurdi. (Daryo.uz) Koronavirus epidemiyasidan oldin qadimgi Rim gladiatorlari arenasiga har yili 7,5 million kishi tashrif buyur edi. (UzReport) O‘zbekistonga Yevropa parlamenti delegatsiyasi tashrif buyuradi (Uza.uz) Xorazm viloyati OTMlariga tashrif buyurgan ishchi guruh a’zolari UrDU talabalar turar joyining sharoitlari bilan tanishdilar Marhamat, yangi do‘konning ochilish marosimiga tashrif buyuring!	kelmoq (axborotni muxbir O‘zbekistonda turib uzatganligi uchun)
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiyaga tashrif buyurmoqda. (Kun.uz)	kelmoq yoki ketmoq, bormoq (axborotni muxbir O‘zbekistonda yoki Turkiyada turib bergan bo‘lishi mumkin)

Aytish mumkinki, “tashrif buyurmoq” fe’li asosan *kelmoq, qadam ranjida qilmoq* fe’llari o‘rnida, badiiy va publitsistik uslubda ko‘proq qo‘llaniladi: *Tunda tashrif buyur, bilasan, Gul jimligi sochgan chiroyni. Changli yo‘llar kesishuvida Bo‘m-bo‘sh g‘urur, chayqalgan – oyni* (B.Ahmedov). Mazkur fe’lning konnotativ semasida ham “muayyan makonga yaqinlashish, kelish” ma’nosi anglashiladi: *Garchi yer qor iskamagan esa-da, allaqachon qish tashrif buyurib, suvlar muzlagan.* (U. Hamdam). “Tashrif buyurmoq” fe’li *kelmoq, qadam ranjida qilmoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam qo‘ymoq* kabi fe’llari bilan bir paradigmatic qatorni tashkil etsa-da, barchasi uchun “kelmoq” fe’li umumiy, ya’ni giperonim sanaladi, shunda paradigmalarining har biri “kelmoq” fe’li uchun troponim. Ularning o‘zaro semantik munosabati quyidagicha:

3.2.3.2-jadval

Ekvivalent fe'llar	yo'nalish	uslubiy betaraf	uslubiy xoslangan	ehtiram	ko'tarinkilik	emotiv
Tashrif buyurmoq	+		+	+	+	+
kelmoq	+	+				

Demak, **“tashrif buyurmoq”**¹ frazemasi nutqda denotativ ma’no anglatganda asosan mansabi va yoshiga ko‘ra ulug‘roq, hurmatga loyiq shaxsga yoki ma’lum darajada uzoqroq masofadan kelgan shaharlik yo xorijlik mehmonlarga nisbatan *“kelmoq”* fe’li o‘rnida qo‘llaniladi. Odatda so‘zlashuv uslubida hurmat yuzasidan mehmon yoki keksa kishilarga qarata *“Uyimizga tashrif buyuring”*, *“Tashrifingiz chog‘ida biz uyda yo‘q edik”* kabi mazmunda aytiladi. Ba’zan eng oliy maqom sohibi, masalan, davlat rahbarlariga nisbatan ham tashrif so‘zini ishlatish mumkin. Ammo shu o‘rinda shuni aytish joizki, “tashrif” so‘zi hech qachon oddiy shaxs, masalan, jurnalist yoki yozuvchi, yo oddiy fuqaro tomonidan o‘ziga nisbatan ishlatilmaydi, bu uslubiy xatolikni yuzaga keltiradi. Masalan, jurnalist *“Maktabga tashrifimiz chog‘ida bolalar sport bilan mashg‘ul edilar”* yoki *“Biz o‘sha manzilga tashrif buyurdik”* deyishi jumla mazmun-mohiyatining buzilishiga olib keladi. Yana bir misol: televidenie, radio va bosma nashrlarda aksariyat jurnalistlar “biz falonchi akaning uyiga tashrif buyurdik” deyishadi. Aslida “tashrif” so‘zi (ya’ni qadami bilan sharofat keltiruvchi, ulug‘lovchi ma’noda) odatan mehmonga, oliymaqom shaxslarga nisbatan qo‘llanishi kerak. Afsuski, nutqimizda bu kabi noo‘rin holatlarni ko‘p kuzatish mumkin. Shu bois “tashrif buyurmoq” fe’lining kimlarga nisbatan nutqda ishlatilish me’yorlarini belgilab olish kerak, chunki nutqimizda ishlatilayogan har bir birlikning, xoh leksema yoki xoh frazema bo‘lsin, o‘z o‘rni bor. Tadqiqot davomida buni quyidagicha belgiladik:

– hurmatga loyiq yoki mansabdor shaxsga nisbatan qo‘llaniladi: *Go‘yo Shohrux Mirzo Samarqandga tashrif buyurganida mashhur bir temirchiga qilich buyurgan, temirchi esa qilich yasashdan bosh tortgan* (O. Yoqubov);

– juda yaqin masofadan harakatlanayotgan shaxsga nisbatan emas, balki asosan olisdan kelgan bir yoki bir nechta shaxsga nisbatan ishlatiladi:

Ma'lumki, Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda Movarounnahrga chet ellardan ko'plab sayyohlar, elchilar tashrif buyurgan;


– tez-tez yoki doimiy ravishda kelib turadigan insonlarga nisbatan emas, balki onda-sonda, har zamonda tashrif buyuradigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi: *Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida 3,6 mln. nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan.*

Nutqimizda “tashrif buyurmoq” fe'lining subyektivi sifatida eng yuqori lavozimdagi davlat rahbarlari, hurmatga loyiq xorijlik mehmonlar, turistlar, ommaviy tadbirlarda mehmon sifatida ishtirok etayotgan ko'plab shaxslar (*Taqdimot so'ngida tadbirga tashrif buyurgan elektrik, energiya muhandisi hamda dilerlar uchun lotereya o'yini tashkil etildi*), ma'lum bir tashkilotning bir guruh vakillari (*Bu yil Huawei kompaniyasi O'zbekistonning bir qator viloyatlariga tashrif buyurib...*) harakatini ifodalash uchun qo'llanadi.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq konnotativ semada *tashrif buyurmoq*² frazemasi matn tarkibida “*kirmoq, qo'shilmoq*” leksemalariga ekvivalent sifatida ham ishlatiladi: *Qo'shimcha ma'lumot uchun ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizga tashrif buyuring, Saytingizga tashrif buyuruvchilarni qanday qilib ushlab qolish mumkin.* (Kun.uz). Ba'zan badiiy nutqda “*tashrif buyurmoq*”³ o'tmishga qaytish – “qaytmoq, o'tgan onlarni eslamoq” fe'li ma'nosida keladi: *U chuqur o'y-xayollar og'ushida bolaligiga tashrif buyurgan edi* (T. Malik).

Mazkur frazema quyidagi leksik birliklar o‘rnida ishlatiladi:

3.2.3.3-diagramma



“Tashrif buyurmoq” frazemasini tezaurus lug‘atlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: *tashrif, buyurmoq* leksemalarining yaxlitlashuvidan frazema hosil bo‘lgan;

fe‘l so‘z turkumiga mansub, tuslanadi: *tashrif buyurgandim, tashrif buyurgandingiz, tashrif buyuradi; tashrif buyurdik, : tashrif buyursangiz, : tashrif buyurdingiz;*

2.Talaffuz qilinishi: *taʃriʃ bʉyʉr*

3. Ma‘no tarkibi: *tashrif buyurmoq*– “bir joydan boshqa joyga ulug‘vorlik bilan qadam tashlamoq, kelmoq, ketmoq, kirmoq” ma‘nolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *kelmoq, qadam ranjida qilmoq, bormoq, ketmoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam qo‘ymoq;*

B) antonimi: *to‘xtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *kelmoq*– giperonim, *tashrif buyurmoq*–giponim (troponim)

E) giponim (troponim)i: *kelmoq*– giponim (troponim), *yurmoq* - giperonim

H) qarindoshlik so‘zlari: oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, sharaf, ehtirom

4. Etimologiyasi: “*tashrif*” asli arab tilidan kirib kelgan soʻz boʻlib, “sharaf, eʼzoz, hurmat” maʼnolarini anglatadi;

buyurmoq soʻzi asli uygʻur tilidan kirib kelgan, oʻzida “farmon bermoq, amr etmoq” semalarini idodalaydi.

5. Turli xil lugʻaviy birliklar (leksemalar) oʻrnida qoʻllanilishi: *kelmoq, qadam ranjida qilmoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam qoʻymoq; kirmoq, qaytmoq;*

6. Boshqa tillarda qoʻllanilishi: Ingliz tilida “*to visit, to have a visit*”, nemis tilida “*besuchen*”, rus tilida “*nocemumь*”, turk tilida “*gelmek, ziyaret etmek*”, xitoy tilida 下 [xia] kabi.

Frazemalar lugʻaviy birlik sifatida maʼno jihatdan bir soʻzga teng boʻlgani bois tezaurus modellari xuddi leksemalar kabi shakllantiriladi. Tezaurus modellarida ifodalangan frazema valentluga uni yaxlit butunlikda tushunish va tahlil qilsih imkonini kengaytiradi.

Semantik domenlar: lugʻaviy birliklarni yigʻish va lugʻat yaratish vositasi sifatida (yoʻl +feʼl qoliqli frazeologik birliklar misolida)

Xalqaro Fonetik Alifboning mavjudligi fonologik tizimlarni tillararo taqqoslash, standartlashtirilgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi esa grammatik universalialarni izlash imkonini berdi. Antropologiyada madaniy materiallar konturi, kimyoda esa universal davriy jadval mavjud. Soʻzlashuvchisi kam boʻlgan tillarni targʻib qilish va rivojlantirishga bagʻishlangan koʻngillilar tashkiloti – SIL (The Summer Institute of Linguistics) International tadqiqotchisi, tilshunos Ronald Mo 1800ga yaqin ingliz tilidagi soʻzlarning semantik domenlar roʻyxatini oʻz ichiga olgan veb-sayt namunasini ishlab chiqd²⁰²i va uning maqsadi dunyodagi istalgan til uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan domenlarning toʻliq roʻyxatini tuzish edi. Ronald Mo soʻzlarni toʻplash uchun semantik domenlar roʻyxatidan foydalanish mumkinligini qayd etib, “suv havzalari”ning semantik domeniga tegishli soʻzlarni (masalan, *okean, koʻl, daryo, qirgʻoq, toʻlqin* va boshqalarni) tizimlashtirdi, oʻn besh daqiqa ichida 169ta soʻz toʻpladi va

²⁰² Ronald M. Compiling Dictionaries Using Semantic Domains. Lexikos 13 (AFRILEX-reeks/series 13: 2003).– P. 215-223.

ma'lum bir tilga mansub soʻzlarni yillar davomida emas, balki bir necha kun ichida toʻplash mumkinligini taʼkidladi²⁰³.

R. Moe kognitiv nazariya tamoyillariga asoslanib lugʻatni ishlab chiqish jarayoni (Dictionary Development Process – DDP) deb nomlangan texnologiyani yaratdi, uning birinchi bosqichi tezkor soʻzlarni yigʻishdir. Inson ongida soʻzlarni katta hajmdagi munosabatlar tarmogʻida tashkil qilish maqsadida semantik domenlarni shakllantirish lozimligini aytib oʻtdi. Koʻp yillar davomida leksikograflar soʻzlarni toʻplash uchun semantik maydon, semantik tarmoqdan foydalanish mumkinligi taklifini bergandi. Buning uchun domenlarning roʻyxati kerak boʻldi. Shu sababdan R.Mo soʻzlarni jamlash uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan domenlar toʻplamini ishlab chiqdi. Shuningdek, u insonlarning tafakkurini kengaytirish va mushohada qilishlariga imkoniyat yaratish maqsadida har bir domen uchun savollar va unga namuna shaklda javoblarni taqdim qildi.

Domen lotincha “dominium” soʻzidan olingan boʻlib, “mulkiy huquq, egalik” degan maʼnolarni bildiradi²⁰⁴. Bu soʻz aslida tarixan mulkni boshqarish, egalik qilish huquqi yoki yerga egalik qilishni ifodalashda ishlatilgan; “dominium” soʻzi esa “domus”, yaʼni “uy, oila” asosida shakllangan boʻlib, mulkni boshqarish yoki unga egalik qilishni anglatgan²⁰⁵.

Tilshunoslikda semantik domen (lot. *dominium* – “mulk”) atamasi tildagi har bir konseptning barcha “maʼnolari”ni oʻz ichiga olgan mavhum makonni anglatadi²⁰⁶. Bir nechta soʻzlar bir xil maʼnoga ega boʻlishi mumkinligi sababli semantik domenni leksik birliklarning maʼnosiga koʻra guruhlash ham deyish mumkin. Unda har bir soʻz bir-biri bilan assosiativ tarzda, sintagmatik va paradigmatic kabi leksik munosabatlar orqali bogʻlanadi. Shu nuqtayi nazardan tilshunoslikda semantik domen semantik uya, semantik maydon, semantik tarmoq tushunchalariga yaqin termin

²⁰³ Ronald M. Koʻrsatilgan manba.– P. 215-223.

²⁰⁴ <https://www.etymonline.com/word/domain>

²⁰⁵ Hausmaninger H., Gamauf R., George A., Sheets A. Casebook On Roman Property Law. Herbert hausmaninger and richard gamauf translated with introduction, supplementary notes, and glossary by George a. Sheets. – P.30.

²⁰⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Semantic_domain

sanaladi, ammo ularga qaraganda keng qamrovli. R. Moe tadqiqotida har bir domen o‘z ichiga quyidagi elementlarni oladi²⁰⁷.

3.3-jadval

HOME ▾ SEMANTIC DOMAINS ▾ CONTACT BIBLIOGRAPHY	
Home » Semantic Domains » 7 Physical actions	
7 Physical actions	<u>saralash uchun raqam</u>
Use this domain for general words for physical actions--moving yourself, moving things, and changing things.	<u>domen yorlig'i (domenning asosiy g'oyasini aks ettiruvchi so'z yoki qisqa iboradan iborat)</u>
What general words refer to physical actions? act, action, active, activity, do, event, process	<u>domenning qisqacha tavsifi</u>
» 7.1 Posture » 7.2 Move » 7.3 Move something » 7.4 Have, be with » 7.5 Arrange » 7.6 Hide » 7.7 Physical impact » 7.8 Divide into pieces » 7.9 Break, wear out	<u>odamlarga domenga tegishli so'zlar haqida o'ylashga yordam beradigan bir qator savollar</u>
	<u>domenga tegishli bo'lgan har bir savol ostida inglizcha so'zlarning qisqa ro'yxati³</u>

R. Moe yuqoridagi ro‘yxat ingliz tili misolida dunyoning istalgan tili uchun mo‘ljallanganligini inobatga olgan holda shu tilga mansub leksik birliklarning semantik jihatdan o‘xshash domenlarini iyerarxik shaklda to‘qqizta asosiy sarlavha ostida birlashtirdi:

3.4-jadval

Semantik domenlar	1	Koinot, yaratilish	quyosh, havo, dunyo, suv, tuproq, atmosfera, tirik mavjudotlar (o‘simlik, hayvon), tabiat, atrof-muhit
	2	Insoniyat	tana a‘zolari va funksiyalari, sezish, idrok etish, tana holati, sog‘lik, hayot
	3	Til va tafakkur	shaxsiyat, ruhiy holat, o‘ylash, xohish-istak, hissiyot, muloqot, ta’lim
	4	Ijtimoiy axloq	shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faoliyat, xulq-atvor, farovonlik va qiyinchilik, vakolat, hukumat, qonun, huquq, janjal, diniy e’tiqod
	5	Kundalik hayot	uy jihozlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, chiroyli ko‘rinish, yong‘in, tozalash, uxlash, yashash
	6	Ish va kasb	mehnat, <i>dehqonchilik</i> , chorvachilik, baliqchilik, bino va qurilish, kasb-hunar, asbob, mablag, biznesni tashkil etish
	7	Jismoniy harakatlar	durum ²⁰⁸ , ko‘chirish, biror narsani siljitish, ega bo‘lish, tartibga solish, yashirish, jismoniy ta’sir etish, bo‘laklarga bo‘lish, buzilish, eskirish
	8	Holat, shakl	miqdor, qiymat, katta, xususiyat, xarakter, taqqoslash, umumiylik, namuna, model, taqlid qilish, nusxalash

²⁰⁷ Moe R. What is a semantic domain?. Semantic Domains. Retrieved 12 July 2014; R. Moe. Semantic domains. <http://semdom.org> 2013. (Accessed 2013-04-01).

²⁰⁸ Ushbu domenda inson tanasining holatini yoki pozitsiyasini ko‘rsatadigan umumiy so‘zlar (o‘tirish, yotish, tiz cho‘kish, ta’zim qilish, suyanish, egilish kabi) o‘rin olgan.

	9	Grammatik terminlar	harf, undosh, unli, bo‘g‘in, tuslanish, turlanish, hol, kelishik, kelishik, paradigma, qoida, birlik, ko‘plik, ot, fe‘l, sifat, ergash gap, bog‘lovchi, bosh gap, zarracha, artikl, so‘z, kesim, bo‘lishsizlik, gap bo‘lagi, birikma, hosila
--	---	---------------------	--

Xuddi shu modelda o‘zbek tiliga xos leksik birlik (leksema va frazema)larning denotativ va nutqiy jarayondagi turli xil konnotativ ma’nolarini to‘plab, muayyan tilda zamonaviy elektron lug‘atlar yaratish uchun semantik domenlarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat til rivoji, balki tarjimonlar, ijodkorlar, til o‘rganuvchilar uchun ham bir qator afzalliklarga ega. Bundan tashqari unda kompyuter ma’lumotlar bazalarini alifbo tartibida yoki domen bo‘yicha saralash ham mumkin. Semantik domen shunday xususiyatga egaki, u til birliklarining ma’nolarini alohida, nutqiy qurshovdan ajratilgan holda tadqiq etmaydi, balki o‘z semantik uyasiga bog‘liq holda yaxlit ifodalaydi. Zero, leksik mazmuniy guruhda a’zolarini alohida o‘rganishdan ko‘ra ularni birgalikda o‘rganish ancha samaraliroqdir²⁰⁹.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi “jismoniy harakatlar” domeni yorlig‘ida domenga tegishli so‘zlar: *harakat, harakat qilmoq, faol, faoliyat, hodisa, jarayon* kabilarda turli turkumga oid birliklar keltirilganligini va u ham to‘qqizta kichik semantik domenlarni o‘zida jamlaganligini ko‘rish mumkin.

3.5-jadval

Home » Semantic Domains » 7 Physical actions 7 Physical actions Use this domain for general words for physical actions--moving yourself, moving things, and changing things. What general words refer to physical actions? act, action, active, activity, do, event, process » 7.1 Posture » 7.2 Move » 7.3 Move something » 7.4 Have, be with » 7.5 Arrange » 7.6 Hide » 7.7 Physical impact » 7.8 Divide into pieces » 7.9 Break, wear out	• 7.1 <u>Durum</u> • 7.2 <u>Ko'chirish</u> • 7.3 <u>Biror narsani siljittish</u> • 7.4 <u>Ega bo'lish</u> • 7.5 <u>Tartibga solish</u> • 7.6 <u>Yashirish</u> • 7.7 <u>Jismoniy ta'sir</u> • 7.8 <u>Bo'laklarga bo'lish</u> • 7.9 <u>Buzilish, eskirish</u>
--	--

Ana shu kichik semantik domenga murojaa qilinsa, unga mansub domen birliklari ekranda namoyon bo‘ladi.

²⁰⁹ Wierzbicka, Anna. Semantics, Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

7.2 Move

Use this domain for intransitive verbs of movement referring to moving your whole body to a different location. There are many components of meaning involved in verbs of movement. They can include a source location (from), a goal location (to), a path (along), manner (walk, run), speed (race, crawl), direction (forward, back, side, up, down, toward, away from), shape of the path (straight, curve, circle, angle), relationship to some object or objects (on, hang, against, between, across, through, into, out of, onto, off of, around), proximity (near, far), multiple movements (back and forth, return, bounce), inclusion with other objects or parts of objects (join, leave, collect, disperse, unite, separate), volition (go versus drift), intransitive versus transitive (move versus move something). Some verbs of movement do not involve moving from one place to another, but express bodily movement.

OMC Codes: 481 Locomotion

Louw Nida Codes: 15 Linear Movement

15A Move, Come/Go

16 Non-Linear Movement

What general words refer to moving your body to a different location?

move, movement, change position, maneuver, jockey for position, budge

What words refer to beginning to move?

stir, make a move

What words describe something that is moving?

moving, be in motion

» 7.2.1 Manner of movement

» 7.2.2 Move in a direction

» 7.2.3 Move toward something

» 7.2.4 Travel

» 7.2.5 Accompany

» 7.2.6 Pursue

» 7.2.7 Not moving

» 7.2.8 Send someone

7.2.1 Harakat qilish uslubi

7.2.2 Bir yo'nalishda harakatlanish

7.2.3 Narsa tomon harakatlanish

7.2.4 Sayohat

7.2.5 Hamrohlik qilish

7.2.6 Ta'qib qilish

7.2.7 Harakatsiz

7.2.8 Shaxsga ta'sir etish

Shu domen yorlig'i tarkibidagi "ko'chirish" deb nomlangan kichik domeni ma'lum bir jism yoki tananing boshqa joyga ko'chirish mazmunini o'zida ifoda etuvchi birliklarni jamlaydi. Harakat fe'llarida ko'plab ma'no komponentlari mavjud. Ular joylashuv manzili (-dan), maqsad manzili (-ga), yo'l (bo'ylab, yoqalab), usul (yurish, yugurish), tezlik (poyga, emaklash), yo'nalish (bor, kel, ket, qayt)ni o'z ichiga oladi.

Harakat qilish uslubi domeni "yurish" semali barcha lug'aviy birliklarni jamlaydi. Undagi semantik uyalar ham umumiylikdan xususiylikka qarab bir nechta guruhlariga bo'linib ketadi, shu sababdan semantik domenni so'zning potensial ma'nolari qatoridir, deyish mumkin. So'zning potensial ma'nolari doirasini tushunish ma'lum bir nutq parchasida so'z nimani anglatishini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Ma'nolarni izlash esa semantik sohalarni o'rganishga yordam beradi.

Ma'lumki, o'zbek tilida "yurish" semali lug'aviy birliklarning semantik muqobillari *qadam ranjida qilmoq*, *tashrif buyurmoq* frazemalari bilan bir qatorda "yo'l + fe'l (harakat)" modeli frazeologik birliklar ham mavjud. Mazkur frazemalarni tashkil etuvchi asosiy birlik "yo'l" leksemasi etimologiyasi asli turkiy so'z bo'lib, mavjud izohli lug'atlarda 16 xil

ma'nolari misollar yordamida tahlil qilingan²¹⁰. Shular qatorida ushbu leksema bilan bog'liq bir qator frazemalar quyidagi shakllarda qo'llanadi:

– “yo'l” leksemasi bosh kelishik shaklida qo'llanadigan frazemalar: *yo'l bermoq, yo'l olmoq, yo'l solmoq, yo'l bosmoq, yo'l topmoq, yo'l bo'shatmoq, yo'l ko'rsatmoq, yo'l qo'yimoq, yo'l yurmoq, yo'l bo'lsin, yo'l tutmoq, yo'l ochmoq (yo'li ochilmoq), yo'li ochiq, yo'li yo'q, yo'li chekmoq, yo'l(i) tushmoq, yo'l(ga) boshlamoq, yo'li qolmadi (yo'l qoldirmadi);*

